

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI  
XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR  
KAFEDRASI

*A.MALIMOV, Z.M.OTAQO'ZIYEVA*

# **MAKROIQTISODIYOT**

**FANIDAN MA'Ruzalar KURSI**

Toshkent - 2008

Ushbu ma’ruzalar kursiga makroiqtisodiyot faniga oid asosiy mavzular kiritilgan bo’lib, unda makroiqtisodiy darajada mavjud qonuniyatlar, makroiqtisodiy muammo va jarayonlar atroflicha yori-tilgan. Ma’ruzalar kursining asosini Toshkent davlat sharqshunoslik institutida o‘qitilayotgan makroiqtisodiy fanining ma’ruzalar matni tashkil etadi. Ko’rib chiqilayotgan makroiqtisodiy muammolar mavjud chizma (grafik)lar, formulalar orqali tushuntirib berilgan. Har bir mavzuda ko’rib chiqiladigan savollar, tayanch ibora, adabiyot va takrorlash uchun savollar mavjud.

Ma’ruzalar kursi oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan iqtisodiyot yo‘nalishidagi barcha talabalar uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar:

i.f.n., dotsent **A.M. Alimov**,  
i.f.n., kat.o‘q. **Z. M. Otaqo‘ziyeva**

## KIRISH

O'zbekistonimiz ulug' vor davrlarni boshidan kechirmoqda. Mustaqillik tufayli jamiyatimiz hayotida tub mazmunli o'zgarishlar amalga oshib, har tomonlama taraqqiyot bilan birga bir mamlakat, bir xalqqa xos o'zgarishlar ham paydo bo'lib rivoj topmoqda. Bular ichida iqtisodiyot alohida o'rinni egallaydi. Kelajagi buyuk O'zbekiston davlatining negizi bo'lgan va mustaqil rivojlanadigan iqtisodiyotga asos solinmoqda.

Mustaqil iqtisodiyotni ta'minlash bozor asosidagi iqtisodiyotni yaratish orqali amalga oshmoqda, shunga ko'ra bundagi asosiy yo'l, yo'naliш bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirishdir. Iqtisodiy rivojlanish muammolarini ma'lum darajada hal etib, iqtisodiyotning porloq kelajagini ta'minlay oladigan yo'l bozor usuli ekanligi, mamlakatimiz uchun bundan boshqa iqtisodiy tizim, usul yo'q ekanligi biz uchun yaqqol haqiqatdir.

Shunga ko'ra bozor iqtisodiyoti mohiyati, shakllari, qonuniyatlar va bulardagi bor xususiyatlar kabilarni aniqlash, ularni o'rganish hozirgi iqtisodiy amaliyotimiz uchun juda dolzarb vazifadir.

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlariga o'tish boshlangandan beri bozor iqtisodiyotining nazariy asoslarini chuqur o'rganish, uning zamонави yantuqlari va xorijiy mamlakatlar tajribasini umumlashtirib, takomillashgan bozor munosabatlarini rivojlantirish davr taqozasiga aylandi.

Bozor iqtisodiyotining bir necha asrlik rivojlanish tarixidan ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga iqtisodiy o'sish yoki qisqarish, ishsizlik, inflyatsiya, aholining boy va kamba-g'allarga tabaqlashushi, mahalliy va xalqaro miqyosda raqobat, manfaatlar to'qnashushi kabi jarayonlarning yuz berib turishi xosdir. Albatta, bu jarayonlar o'z-o'zidan yuz bermaydi, ularni oldindan ko'ra olish, yechimini topish uchun makroiqtisodiyotning nazariy ilmi asoslariga ega bo'lish, ularning mohiyatini tushunib yetish, hamda yangi g'oya va fikrlar bilan boyitish imkoniyati bo'lmog'i kerak.

Biror resurs yoki tovarning yetishmovchiligi yoki ortiq bo'lishi ehtimollari bor ekan, iqtisodiy tizim umumiyligi muvozanatining buzilishi, masalan inflyatsiya, ishsizlik, milliy daromadning kamayish holari ham yuz berishi tabiiy. Shuning uchun iqtisodchilar bozor munosabatlari sharoitida mamlakatimizda iqtisodiy o'sish va uning

samaradorligini oshirish, iqtisodiy barqarorlashtirish, hamda inflayatsiyanı bartaraf etish, xalq farovonligini oshirish, tashqi aloqalarını kengaytirish kabi dolzarb masalalarını tahlil qila olishlari, kerak bo'lganda muhim qarorlar qabul qila olishlari zarur. Bunday mutaxassislar tayyorlashda «Makroiqtisodiyot» kursini o'qish muhim rol o'ynaydi. Kursni o'rganish iqtisodiy jarayonlarning ilmiy asoslarini hamda ilg'or mamlakatlardagi bu jarayonlarni tartibga solish amaliyat va to'plangan boy tajribani o'zlashtirish imkonini beradi. Respublika iqtisodiyoti yangicha munosabatlarga o'tish bosqichida turgan sharoitda esa bu masalalar ayniqsa ahamiyatlidir.

Ushbu ma'ruzalar kursining maqsadi talabalarga makroiqtisodiyotning nazariy asoslari to'g'risida tushuncha berish orqali ularga o'zлari yashayotgan jamiyatning iqtisodiy qonun-qoidalarini to'g'ri va chuqurroq tushuntirish hamda jamiyatda o'z o'mini topish va keng qamrovli bilimlar egasi bo'lib yetishishlariga ko'maklashishdir.

# MAVZU № 1

## Makroiqtisodiyot fanining predmeti va uslubi

### Mavzuda ko'rib chiqiladigan savollar:

1. *Makroiqtisodiyot fanining predmeti*
2. *Makroiqtisodiyat tahlilning usul va tamoyillari*
3. *Mahsulotlar, harajatlar va daromadlarning doiraviy aylanishi.*

### Tayanch iboralar

Makroiqtisodiyot, keynsian makroiqtisodiy modeli, umumiy kataliklar, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, yalpi talab, yalpi taklif, yalpi iste'mol, investisiyalar, narxlarning umumiy darajasi, ishsizlik darajasi, davlat qarzları, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy tebranish, foiz stavkasi darajasi, pul muomalasi muammosi, davlat byudjeti holati, umumlashtirish, makroiqtisodiy agentlar, uy xo'jaliklari, firmlar, davlat, chet el sektori, xususiy sektor, ochiq iqtisodiyot, yopiq iqtisodiyot, makroiqtisodiy bozorlar, tovar va xizmatlar bozori, moliyaviy bozorlar, iqtisodiy resurslar bozori, valyuta bozori, mahsulotlar, harajatlar va daromadlarning doiraviy aylanishi.

### Adabiyotlar

1. Agapova T. A., Seregina S. F. *Makroekonomika*. Moskva – Ufa, 1995 y.
2. Makkonell K. Bryu S. *Ekonomiks* t. 1-2 M.: «Respublika» 1992 y.
3. Z. Yo'ldoshev, M. Qosimov «Makroiqtisodiyot asoslari» Toshkent, «O'qituvchi», 1994 y.
4. M. Hakimova «Makroiqtisodiyot» T. – «Mehnat» 1997 y.
5. Alimov A., Hamedov I. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T.: «O'AJBNT» Markazi, 2004y.

### 1. Makroiqtisodiyot fanining predmeti

Makroiqtisodiyot mikroiqtisodiyot kabi iqtisodiyot nazariyasining bo'limi hisoblanadi. Grekcha so'zdan olingan «makro» so'zi «katta» (tegishlichcha «mikro»-«kichkina»), «iqtisodiyot» so'zi esa «xo'jalikni yuritish» ma'nosini anglatadi. Shunday qilib, **makroiqtisodiyot fani iqtisodiyotni bir butunligicha o'rganuvchi fan** bo'lib, bunda iqtisodiyot katta bir butun birlashgan tizim sifatida, iqtisodiy jarayonlar va ularning ko'rsatkichlari umumlashgan holatda o'rganiladi.

Dastavval «makroiqtisodiyot» atamasini 1933 yilda taniqli norveg olimi, iqtisodchi-matematik, ekonometrikaga asos solgan olimlardan

biri, Nobel mukofoti laureati Ragnar Frish o‘z maqolasida tilga olgan (Ragnar Frisch). Ammo zamonaviy makroiqtisodiyot nazariyasi taniqli ingliz iqtisodchisi, Kembridj maktabining vakili, lord Jon Meynard Keyns (John Maynard Keynes) ning fundamental asarida mazmunan keng yoritilgan. 1936 yilda «Bandlikning umumiylar nazariyasi, foiz stavkasi va pul» kitobi chop etilib, unda Keyns makroiqtisodiy tahlilga asos solgan. Keyns tadqiqotining ahamiyati shu darajada katta ediki, iqtisodiy adabiyotlarda «Keynsian inqilobi» atamasi paydo bo‘ldi va **keynsian makroiqtisodiy modeli** yoki iqtisodiy jarayonlarga shu davrgacha yagona mavjud bo‘lib kelgan an’anaviy klassik yondoshishga, ya’ni mikroiqtisodiy tahlil (klassik model)ga qarama-qarshi bo‘lgan keynsiancha yondoshish paydo bo‘ldi.

Alovida (individual) xo‘jalik sub’ektlari (iste’molchi yoki ishlab chiqaruvchi) ning individual bozorlarda iqtisodiy hatti-harakatini o‘rganuvchi mikroiqtisodiyotdan farqli o‘laroq, makroiqtisodiyot iqtisodiyotni bir butunligicha o‘rganadi, iqtisodiyotda umumiylar mavjud bo‘lgan muammolarini tahlil qiladi, umumiylar (yalpi) kattaliklar bilan ish ko‘radi, ya’ni bular: yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, yalpi talab, yalpi taklif, yalpi iste’mol, investisiyalar, narxlarning umumiylarini darajasi, ishsizlik darajasi, davlat qarzlarini va boshqalar.

Makroiqtisodiyot o‘rganadigan asosiy muammolar bular: iqtisodiy o‘sish va uning sur’atlari; iqtisodiy tebranish va uning sabablari; bandlik darajasi va ishsizlik muammosi; umumiylar narxlarning umumiylarini darajasi va inflyatsiya muammosi; foiz stavkasi darajasi va pul muomalasi muammosi; davlat byudjeti holati, davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish muammosi va davlat qarzlarini muammosi; to‘lov balansi holati va valyuta kursi muammolarini; makroiqtisodiy siyosat muammolarini.

Bu muammolarini barchasini mikroiqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan, ya’ni alovida olingan iste’molchi, firma yoki tarmoq darajasida hal etish mumkin emas. Aynan shuning uchun, ya’ni umumiylar, makroiqtisodiy muammolar mavjud bo‘lganligi sababli iqtisodiyot nazariyasida mustaqil bo‘lgan bo‘lim, mustaqil fan – **makroiqtisodiyot** paydo bo‘lishiga zarurat tug‘ildi.

## 2. Makroiqtisodiy tahlilning usul va tamoyillari

Tahlil qilishda makroiqtisodiyotda ham mikroiqtisodiyotda qo‘llanilgan uslub va tamoyillar qo‘llaniladi. Iqtisodiy tahlilning bunday umumiylar uslub va tamoyillariga quyidagilar kiradi: abstractlashtirmoq (mavhumlashtirmoq), ya’ni iqtisodiy hodisa va

jarayonlarni tadqiq etish va tushuntirishda modellarni qo'llash; deduksiya va induksiya usullarini birgalikda qo'llash, normativ va pozitiv tahlilni qo'shib olib bormoq; «boshqal omillar o'zgarmas bo'lganda» tamoyilidan foydalanish, iqtisodiy agentlarning rasional harakatlari tahmini va boshqalar.

Makroiqtisodiy tahlilning asosiy xususiyati shundan iboratki, uning eng muhim tamoyili **umumlashtirish** hisoblanadi. Iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va qonuniyatlarni iqtisodiyotning bir butunligi darajasida o'rghanish faqatgina umumlashtirish yoki agregatlash orqali amalga oshiriladi. Makroiqtisodiy tahlil agregatlashni talab etadi. Agregatlash – alohida elementlarni bir butun aggregatga birlashtirishni ifodalaydi. Agregatlash doimo abstraktlashga asoslanadi, ya'ni unchalik ahamiyatga ega bo'limgan jihatlarni chiqarib tashlab, ahamiyatga molik bo'lgan iqtisodiy jarayon va hodisalarning qonuniyatlarini ajratib ko'rsatish demakdir. Agregatlash: **makroiqtisodiy agentlar, makroiqtisodiy bog'liqliklar, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.**

Iqtisodiy agentlarning nisbatan tipik harakatiga asoslangan agregatlash to'rtta makroiqtisodiy agentni ajratib beradi:

- uy xo'jaliklari;
- firmalar;
- davlat;
- chet el sektor.

1) Uy xo'jaliklari (households) -bu mustaqil, oqilona harakat qiluvchi makroiqtisodiy agent hisoblanib, uning iqtisodiy faoliyat yuritishdan maqsadi tovar va xizmatlardan oladigan foydalilikni maksimal-lashtirishdir. U iqtisodiyotda: a) **iqtisodiy resurslar egasi** (mehnat, yer, kapital va tadbirkorlik faoliyati). Iqtisodiy resurslarni sotib, uy xo'jaliklari daromad ko'radilar, daromadning asosiy qismini esa iste'molga (iste'mol harajatlari) harajat qiladilar va shuning uchun ular b) **tovar va xizmatlarning asosiy xaridori** bo'lib maydonga chiqadilar. Daromadlarning qolgan qismini esa uy xo'jaliklari jamg'aradilar va shuning uchun ular v) **asosiy jamg'aruvchilar yoki kreditor** ya'ni, iqtisodiyotga kredit vositalarini taklif etuvchi hisoblanadilar.

2) Firmalar (business firms) -bu ham mustaqil, oqilona harakat qiluvchi makroiqtisodiy agent hisoblanib, uning iqtisodiy faoliyat yuritishdan maqsadi foydani maksimallashtirishdir. Ular: a) **iqtisodiy resurslar xaridori** bo'lib bozorga chiqadilar, bu resurslar orqali esa ishlab chiqarish jarayoni yuz beradi va shuning uchun firmalar b) **iqtisodiyotda tovar va xizmatlarni asosiy ishlab chiqaruvchisi** bo'lib

hisoblanadilar. Ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan olingan tu-shumni firmalar uy xo'jaliklariga omillar daromadi ko'rinishida to'laydilar. Ishlab chiqarishni kengaytirish, kapital zahirasi o'sishini ta'minlash va yemirilgan kapitalni qoplash uchun firmalarga investision tovarlar (va birorchi navbatda asbob-uskunalar) kerak, shuning uchun firmalar v) **investorlar** bo'lib hisoblanadilar, ya'ni investision tovarlar xaridorigirlar. Investision harajatlarni moliyalashtirishda mablag'larni qarzga olar ekanlar, demak ular g) **iqtisodiyotning asosiy debitori (qarz oluvchisi)** hisoblanadilar, ya'ni kredit vositalariga tabjni kelтирib chiqaradilar.

### **Uy xo'jaliklari va firmalar iqtisodiyotning xususiy sektorini tashkil etadilar.**

3) Davlat (government) deganda davlatga tegishli barcha muassasa va tashkilotlar tushuniladiki, ular siyosiy va yuridik huquqqa ega va iqtisodiyotni tartibga solishda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir eta oladilar. Davlat – bu mustaqil va oqilona harakat qiluvchi agent, uning asosiy vazifasi - bozor muvaffaqiyatsizliklarini oldini olish va yo'qotish (market failures) va jamiyat farovonligini oshirish va ay-nan shuning uchun u: a) **umumjamiyat ne'matlarni ishlab chiqaruvchi;** b) davlat sektori faoliyatini ta'minlash va uning ko'pgina vazifalarini bajarish uchun **tovar va xizmatlar xaridori;** v) **milliy daromadni taqsimlovchi** (soliqlar tizimi va transfertlar orqali); g) davlat byudjetining holatiga ko'ra moliya bozorida **kreditor va qarzdor** bo'lib maydonga chiqadi. Bundan tashqari davlat d) **bozor iqtisodiyotini tartibga soladi.**

U iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator institusional asoslar yaratadi (qonunlar, xavfsizlik tizimi, sug'urta tizimi, soliq tizimi va bosh-qalar), ya'ni «o'yin qoidalari»ni ishlab chiqadi; pul taklifini ta'minlaydi va nazorat qiladi, chunki pul emissiyasida monopol huquqqa ega; makroiqtisodiy siyosat yuritadi. U o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strukturaviy (tarkibiy) siyosat;
- iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi, iqtisodiyotning davriy tebraniishlarini oldini olishga qaratilgan va resurslarning to'liq bandligini, barqaror narx darajasi va tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi siyosat.

Barqarorlik siyosatining asosiy ko'rinishlari:

- a) fiskal (yoki soliq – byudjet) siyosati;
- b) monetar (yoki pul – kredit) siyosati;
- v) tashqi iqtisodiy siyosat;
- g) daromadlar siyosati.

## **Xususiy va davlat sektori yopiq iqtisodiyotni tashkil qiladi.**

**Yopiq iqtisodiyot** (closed economy) – xorijiy mamlakatlar bilan aloqasi bo‘lmagan iqtisodiyot.

4) chet el (xorijiy) (foreign sector) sektor-dunyoning boshqa baracha mamlakatlarini birlashtiradi va mustaqil oqilonaga harakat qiluvchi agent hisoblanadi. U ushbu mamlakat bilan:

- xalqaro savdo (tovar va xizmatlar eksport va importi);
- kapital harakati (moliyaviy aktivlar, ya’ni kapitalning eksport va importi) aloqalarini amalga oshiradi.

### **Tahliliga chet el (xorijiy) sektoring qo’shilishi ochiq iqtisodiyotni keltirib chiqaradi.**

Bozorlarni agregatlash har bir alohida bozorda amal qiluvchi qonuniyatlarni aniqlash, ya’ni: talab va taklif shakllanishi xususiyatlarni va har bir bozorda uning muvozanat shartlarini tadqiq etish; talab va taklif nisbatlari asosida muvozanat narx va muvozanat hajmni aniqlash; har bir bozorda muvozanat o’zgarishi oqibatlarini tahlil etish maqsadida amalga oshiriladi.

Bozorlarni agregatlash to‘rtta makroiqtisodiy bozorni ajratish imkonini beradi:

- tovar va xizmatlar bozori (real bozor)
- moliyaviy bozor (moliyaviy aktivlar bozori)
- iqtisodiy resurslar bozori
- valyuta bozori.

1) Agregatlangan tovar va xizmatlar bozori (goods market) ni hosil qilish uchun biz iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan barcha turli-tuman tovarlarni abstraktlashtirib (ajratib olib), bu bozorda amal qiluvchi eng asosiy qonuniyatlarni, ya’ni tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab va taklif qonuniyatlari shakllanishini aniqlab olishimiz zarur bo‘ladi. Talab va taklif nisbati tovar va xizmatlarga bo‘lgan muvozanat narx (price level) va muvozanat hajm (output) ni aniqlash imkonini beradi. Tovar va xizmatlar bozori real bozor (real market) deb ham ataladi, chunki unda real aktivlar sotiladi va sotib olinadi (real boyliklar-real assets).

2) Moliya bozori (financial assets market) - bu bozorda moliyaviy aktivlar (pul, aksiya va obligatsiyalar) sotiladi va sotib olinadi. Bu bozor ikki segmentga bo‘linadi:

- a) *pul bozori (money market) yoki pullik moliyaviy aktivlar bozori;*
- b) *qimmatli qog‘ozlar bozori (bonds market) yoki pulsiz moliyaviy aktivlar bozori.*

Pul bozorida sotish va xarid qilish jarayoni yuz bermaydi (chunki pulni pulga sotib olish ma'noga ega emas), ammo pul bozorida amal qiladigan qonuniyatlarini, pulga bo'lgan talab va taklif shakllanishini tadqiq qilish makroiqtisodiy tahlil uchun katta ahamiyatga ega. Pul bozorini o'rghanish, uning muvozanat shartlari "pulning narxi" (kredit narxi) bo'lmish foiz stavkasini va pul massasi (money stock) ning muvozanat kattaligini, hamda pul bozorida muvozanatning o'zgarish oqibatlari va uning tovar va xizmatlar bozoriga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Pul bozorining asosiy vositachisi banklar hisoblanadi, ular pullarni saqlaydilar va kreditga beradilar.

Qimmatli qog'ozlar bozorida aksiya va obligatsiyalar sotiladi va sotib olinadi. Qimmatli qog'ozlar xaridori – bu birinchi navbatda uy xo'jaliklari, ular o'z jamg'armalarini daromad olish maqsadida ishlatadilar (aksiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar bo'yicha foiz oladilar). Aksiyalarni sotuvchi (emitent)lari bo'lib firmalar, obligasiyalarni sotuvchilari esa – firmalar va davlat hisoblanadi. Firmalar aksiya va obligatsiyalarni o'z investision harajatlarini moliyalashtirish, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun, davlat esa obligatsiyalarni davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish maqsadida chiqaradi.

3) Resurslar bozori (resource market) makroiqtisodiy modellarda mehnat bozori orqali aks ettirilgan (labour market), chunki bu bozorda amal qiluvchi qonuniyatlar (mehnatga bo'lgan talab va taklifning shakllanishi) makroiqtisodiy jarayonlarni tushuntirib berish imkonini beradi (ayniqsa qisqa muddatda). Uzoq muddatli makroiqtisodiy modellarda kapital bozori tadqiq etiladi. Mehnat bozoridagi muvozanat iqtisodiyotda mehnatning muvozanat hajmi (labour force) va "mehnat narxi" muvozanati-ish haqi stavkasi (wage rate) ni aniqlash imkonini beradi. Mehnat bozorida muvozanat buzilishi tahlili ishsizlikni kelib chiqish sabablari va turlarini tushuntirib beradi.

4) Valyuta bozori (foreign exchange market) da esa turli mammakatlar milliy pul birligi (valyuta) o'zaro bir-biriga ayirboshlanadi (dollar ienalarga, rubl yevroga, so'm dollarga va xakozo). Bir milliy valyutani ikkinchi bir valyutaga ayirboshlash natijasida valyuta kursi (exchange rate) shakllanadi.


### **3. Mahsulotlar, harajatlar va daromadlarning doiraviy aylanishi**

Iqtisodiy agentlar harakatlarining eng tipik jihatlarini (agentlarni agregatlash) va bozorlarning amal qilishida nisbatan muhim bo'lgan


qonuniyatlarini (bozorlarni agregatlash) aniqlash makroiqtisodiy bog‘-liqliklarni agregatlash, ya’ni makroiqtisodiy bozorlarda makroiqtisodiy agentlar harakatlari qonuniyatlarini tadqiq etish imkonini beradi. Buni esa **mahsulotlar, harajatlar va daromadlarning doiraviy aylanishi** chizmasi orqali tasvirlash mumkin (yoki aylanma oqim modeli-model of circular flows).

Dastavval ikki sektorli modelni ko‘rib chiqamiz, bu model faqat ikki makroiqtisodiy agentdan, ya’ni uy xo‘jaliklari, firmalardan va ikki bozordan- tovar va xizmatlar bozori va iqtisodiy resurslar bozoridan iborat.

Firmalar ishlab chiqargan (taklif etgan) va tovar va xizmatlar bozoriga keltirgan mahsulotlarni uy xo‘jaliklari sotib oladilar (ularga talab bildiradilar). Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun firmalar iqtisodiy resurslarni (yer, mehnat, kapital va tadbirkorlik faoliyatini) sotib oladilar, ya’ni ularga talab bildiradilar. Iqtisodiy resurslar egasi – uy xo‘jaliklari esa ularni taklif etadilar. Tovar va xizmatlar sotib olganda uy xo‘jaliklari sarf-harajat qiladilar. Uy xo‘jaliklarining tovar va xizmatlarga qilgan harajatlari iste’mol harajatlari (consumption spending) deb nomlanadi. Firmalar o‘z mahsulotlarini uy xo‘jaliklariga sotganda daromad ko‘radilar (revenue), bundan ular uy xo‘jaliklariga iqtisodiy resurslar uchun haq to‘laydilar, bu esa firmalar uchun harajat (costs) hisoblanadi (uy xo‘jaliklari uchun omillar daromadi, mehnat omili uchun ish haqi, yer omili uchun renta, kapital omili uchun foiz va tadbirkorlik faoliyati uchun foyda, ular yig‘indisi esa milliy daromadni tashkil etadi). Olingen daromadlarni uy xo‘jaliklari tovar va xizmatlarni sotib olish uchun sarflaydilar (iste’mol xarajatlari). Daromadlar va harajatlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Har bir iqtisodiy agent daromadi sarflanganda boshqa bir iqtisodiy agent daromad ko‘radi, bu esa keyingisining qiladigan harajatiga asos bo‘ladi. Harajatlar ortishi daromad o’sishiga olib keladi, daromad o’sishi esa kelgusida harajatlarning ko‘payishiga zamin yaratib beradi. Shuning uchun ham chizma aylanma harakat modeli yoki aylanma oqim modeli nomini olgan. Moddiy oqimlar soat strelkasiga qarshi, pullar esa soat strelkasi yo‘nalishida harakatlanadi. Talab soat strelkasi yo‘nalishida, taklif esa unga qarshi harakatlanadi. Chizmadan quyidagilarni ko‘rish mumkin: 1) har bir moddiy oqim narxi pul oqimi kattaligiga teng; 2) milliy mahsulot milliy daromadga teng; 3) umumiy talab umumiy taklifga teng; 4) umumiy daromad unumiy harajatlarga teng.



1-rasm. Iqtisodiyotdagi aylanma harakat oqimi diagrammasi.



2-rasm. Harajatlar ayloma harakatining to'liq chizmasi.

### Mavzu №1 bo'yicha savollar:

1. Makroiqtisodiyot fani nimani o'rganadi?
2. Makroiqtisodiy tahlilning usul va tamoyillari.
3. Makroiqtisodiy agentlarni tushuntiring.
4. Ochiq va yopiq iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
5. Makroiqtisodiy bozorlarni tushuntiring.
6. Mahsulotlar, harajatlar va daromadlarning doiraviy aylanishini diagrammada ko'rsatib tushuntiring.

## MAVZU № 2

### Ijtimoiy ishlab chiqarish natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar va narxlar indeksi

#### Mavzuda ko'rib chiqiladigan savollar:

1. *MHT (milliy hisobchilik tizimi) dagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning o'zaro nisbati.*
2. *Yalpi milliy mahsulotni aniqlashga ikki xil yondoshuv.*
3. *Ijtimoiy ishlab chiqarish ko'lamenti belgilashda narxlarning ahamiyati. Nominal va real YaMM.*
4. *Deflyator va undan real milliy mahsulotni aniqlashda foydalanish.*
5. *«Sof iq tisodiy farovonlik» ko'rsatkichi va YaMM.*

#### Tayanch iboralar

YaMMni daromadlar va harajatlar buyicha hisoblash, yalpi milliy mahsulot, shaxsiy daromad, qo'shimcha qiymat, sof milliy mahsulot, milliy daromad, iste'mol harajatlari, nominal YaMM, real YaMM, sof eksport, xususiy va davlat transfert to'lovlari, davlat xaridi, YaMM inflyatsiyasi va deflyatsiyasi, yalpi ichki mahsulot, ixtiyorligi daromad, joriy yoki haqiqiy narxlar, o'zgarmas yoki solishtirma bazis narxlar, bozor savati, INI-iste'mol narxlari indeksi va boshqalar.

#### Adabiyotlar

1. *Karimov I. A. O'zbekiston islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995 y.*
2. *Karimov I. A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» T., «O'zbekiston», 1992 y.*
3. *M. Hakimova. «Makroiqtisodiyot», Toshkent – «Mehnat» – 1997 y.*
4. *Alimov A., Hamedov I. "O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari" T.: «O'AJBNT» Markazi, 2004y.*
5. *A. O'lmasov, M. Sharifxujaev «Iqtisodiyot nazariyasi». Toshkent – «Mehnat» – 1995 y.*
6. *Y. Abdullaev «Bozor iqtisodiyoti asoslari». Toshkent – «Mehnat» – 1997y.*

## **1. MHT (milliy hisobchilik tizimi) dagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning o'zaro nisbati**

**YaMM** – ma'lum vaqt mobaynida (yil, chorak, oy) mamlakatda yaratilgan barcha tayyor mahsulotlar va xizmatlarning bozor qiyamida hisoblangan miqdoridir.

**YaMM** – bu mamlakatda va uning tashqarisida joylashgan milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlar qiyamatining yig'indisidir. Uni quyidagi usul bilan hisoblash mumkin:

**YaMM = YaIM<sup>+</sup> shu mamlakat yuridik va jismoniy shaxslarning xorijdan oladigan foyda va daromadlari –**  
**– xorijiy investorlar va ishchilarning shu mamlakatda olgan foyda va daromadlari**

**Yalpi ichki mahsulot(YaIM)** – bu mamlakatning iqtisodiy faoliyatini umumlashtirib ifodalovchi natijaviy ko'rsatkichdir. U mazkur mamlakat hududida joylashgan barcha xo'jalik sub'ektlari (qaysi millat va qaysi davlat fuqarosiga mansub ekanligidan qat'iy nazar) tomonidan pirovard iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymatini anglatadi. YaIM jami ijtimoiy mahsulotdan quyidagilar bilan farq qiladi:

– YaIM – bu iste'molga tayyor hayotiy ne'matlarni bildiradi. Shu sababli uning tarkibiga qayta ishlash yoki qaytadan sotishga mo'ljallangan mahsulotlar kirmaydi. Ya'ni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan oraliq mahsulot va xizmatlar qiymati (masalan, xom ashyo, material, yonilg'i, energiya, urug'lik, ozuqa, transport xizmati, ulgurji savdo, tijorat, moliyaviy xizmatlar va boshqalar) YaIM qiymatiga qo'shilmaydi. Aks holda YaIM takroriy hisoblashlardan xoli bo'lmay qoladi;

– YaIM – mazkur mamlakat hududida joylashgan barcha xo'jalik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

**SMM** ham muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich sifatida qaraladi. U YaMM bilan amortizatsiya ajratmalari o'rtaсидаги farq bilan aniqlanadi.

**MD** – bu milliy ishlab chiqarishdan olingan daromad yoki ijtimoiy ishlab chikarishdagi barcha daromad turlarining yig'indisidir.

Ixtiyoridagi daromad (**ID**) makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, iqtisodiyot bo'g'inlarining harajatlari va jamg'arish uchun ularning ixtiyorida qoladigan daromadlarning miqdorini ifodalaydi.

Bozor iqtisodi mamlakatlarida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar MHT yordamida aniqlanadi va ma'lum vaqt mobaynida (yil, chorak, oy) milliy iqtisodiyot rivojlanishining pirovard natijalarini ifoda laydi. Yagona uslub asosida hisoblangan bu ko'rsatkichlar o'zaro birlari bilan bog'lik bo'ladi. Bunday uzaro bog'liqlik quyidagi 1-jadvalda aks ettirilgan.

**1- jadval**  
*(shartli raqamlarda)*

**MHT da o'chanadigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning  
o'zaro nisbati**

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilari	Miqdor
1	2	3
1. Yalpi milliy mahsulot Minus: amortizatsiya	YaMM	100 10
2. Sof milliy mahsulot Minus: biznesdag'i egor soliqlar	SMM	90 8
3. Milliy daromad Minus: -Ixtimoiy sug'urta to'lovlari; -korporatsiya daromadlariga soliqlar; -korporatsiyalarning taqsimlanmaydigan daromadlari; + Transfert to'lovlari	MD	82 9 3 1,5 16,5
4. Shaxsiy daromad Minus: individual soliqlar	ShD	85 11
5. Soliqlar to'langandan keyingi daromad, ya'ni ixtiyordagi daromad	ID	74

**2 -jadval**  
*(shartli raqamlarda)*

**2. Yalpi milliy mahsulotni aniqlasbga ikki xil yondoshuv**

Nº	YaMMni tovar va xizmatlar sotib olishga mo'ljalangan barcha harajatlari buyicha o'chash	Shartli belgilari	Miqdor
1	2	3	4
1	Uy xo'jaliklarining iste'mol harajatlari	C	65
2	Biznesga investisiya harajatlari yoki yalpi xususiy ichki investisiyalar	I	17
3	Tovar va xizmatlar bo'yicha davlat xaridi	G	20
4	Sof eksport	X <sub>n</sub>	- 2
	Jami: YaMM=C+I+G+X <sub>n</sub>	Y	100

**YaMMni barcha daromadlar bo‘yicha o‘lchash**

1	Iste’mol qilingan kapital hajmi	A	10
2	Biznesga egri soliqlar	T	8
3	Yollanma ishchilarning ish haqlari	W	59
4	Ijara haqi	R <sub>1</sub>	0,5
5	Foiz stavkasi	R	8
6	Yakka qo‘yilmalardan daromadlar	P	7
7	Korporatsiyalar foydasiga soliqlar	TR	4
8	Dividentlar	P <sub>1</sub>	2
9	Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydalarli	P <sub>2</sub>	1,5
	Jami: A+T+W+R <sub>1</sub> +R+P+TR+P <sub>1</sub> +P <sub>2</sub>	Y	100

- 1) Uy xo‘jaligining iste’mol harajatlari (C) o‘z ichiga oladi:
  - a) uzoq muddatli foydalanadigan iste’mol buyumlarini;
  - b) kundalik foydalanadigan iste’mol buyumlarini;
  - v) iste’mol qilinadigan xizmatlarga ketgan harajatlarni.
- 2) Investisiya harajatlari (I) quyidagilar kiradi:
  - a) asbob – uskunalar, mashinalar sotib olish;
  - b) korxonalar, omborlar, turar-joy binolarini qurishga sarflangan harajatlar.

Tovar zaxiralari o‘rtasidagi farq ham shu yerda hisobga olinadi. Investisiya harajatlari yoki yalpi xususiy ichki investisiyalar o‘z ichiga amortizatsiya va sof investisiyalarni oladi.

- 3) Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G).

Bu ko‘rsatkich markaziy va mahalliy hokimiyat idoralari tomonidan korxonalarning yakuniy mahsulotlari hamda resurslar xaridi ni aks ettiradi (qurol – yarog‘sotib olish, avtomobil yo‘llari va pochta muassasalari qurilishi, davlat korxonalarida to‘lanadigan ish haqi). Ta’kidlash lozimki, davlat xaridlariga transfert to‘lovlari kiritilmaydi.

**Transfert to‘lovlari** davlat tomonidan aholining ma’lum toifalariga ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari, urush faxriylariga nafaqalar hamda boshqalarni o‘zida mujassamlantiradi va davlat haajatlarining alohida ko‘rinishi hisoblanadi. Ular davlat xaridlaridan farqli ravishda ishlab chiqarish bilan bog‘lanmagan bo‘lib, faqat soliq tushumlarini qayta taqsimlaydi, xolos.

Biroq tovarlar va xizmatlarning davlat xaridi va transfert to‘lovlari orqali davlat iqtisodiy faoliyatga to‘g‘ridan – to‘g‘ri aralashadi.

- 4) Sof eksport ( $X_n$ ) yoki mamlakat eksport va import operatsiyalari o‘rtasidagi farq.

Ishlab chiqaruvchilarning barcha daromadlari yig'indisi ko'rinishda hisoblangan YaMMning asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

1) Iste'mol qilingan kapital xajmi yoki amortizatsiya (A), ya'ni joriy yildagi YaMMni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan investisiya tovarlarini sotib olishga mo'ljallangan ajratmalardir.

2) Biznesga egri soliqlar (T) – bu mahsulot bahosini oshiruvchi ishlab chiqarish harajatlari hisoblanadi. Jumladan, sotishdan olinadigan soliq, aksizlar, mulkka soliqlar, lisensiya to'lovlari va bojxona bojlari.

3) Yollanma ishchilarining ish haqi (W) – xususiy va davlat kompaniyalarining ish haqi to'lashga sarflagan umumiylar harajatlari (asosiy ish haqi va quyidagi qo'shimchalar: ijtimoiy sug'urta, pensiya, bandlik va boshqa ijtimoiy fondlarga ajratmalar).

4) Ijara haqi ( $R_1$ ), bu iqtisodiyotni mulk resurslari bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining daromadlaridir. Masalan, ijagara berilgan turar joylar, binolar, asbob-uskunalar, yer va boshqalardan olinadigan daromadlar.

5) Foiz stavkalari yoki foizli daromadlar ( $R$ ) - pul kapitalini yetkazib beruvchilarga xususiy biznes daromadidan pul to'lovlari.

6) Mulkdan keladigan daromad yoki foyda (P) - mulk egalarining daromadlari va korporatsiyalarning olgan foydalari o'z navbatida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanadi:


a) davlat byudjetiga tushadigan korporatsiyalarning foydasiga soliqlar;

b) hissadorlar o'rtasida taqsimlanadigan dividendlar;

v) korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydalari. Ular hozirda yoki kelajakda yangi korxonalarни barpo etishga va asbob-uskunalarni sotib olishga investisiya qilinadi.

YaMMni aniqlashda **ikki marotaba hisoblashga yo'l qo'ymaslik** deganda nimani tushunish lozim?

Yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar hajmini to'g'ri hisoblash uchun 1 yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar faqat bir marotaba hisobga olinishi kerak. Ko'pgina mahsulotlar bozorga kelishidan oldin bir necha bor ishlab chiqarish bosqichidan o'tadi. Natijada mahsulotlarning ayrim qismlari va komponentlari bir necha bor sotib olinadi va qayta sotiladi. YaMMni hisoblashda ana shu oraliq mahsulot hisobga olinmasligi kerak. Chunki yakuniy mahsulot narxiga oraliq mahsulot kiritilgan bo'ladi. Agar oraliq mahsulot qo'shib hisoblansa, YaMMni 2 marotaba hisoblashga yo'l qo'yilgan bo'ladi.



100 / ZA

Misol. Shers (jun) kostyumi ishlab chiqarish bozorga kelishdan oldin 5 ta ishlab chiqarish bosqichini bosib o'tadi. Jadvalda ko'rsatilgandek, qo'ychilik fermasi (A) junni kayta ishlaydigan korxona (B) ga 60 dollarga junni sotadi. (A) fermasiga tekkan pul ish haqi, renta to'-lovlari, prosent va foyda ko'inishida tarqatiladi. Firma (B) junni qayta ishlab, kostyum ishlab chiqaradigan firma (V) ga 100doll. ga sotadi. (B) firma 100dollarlarning 60 dollarini (A) firmaga beradi, qolgan 40 dollar (B) firmaga ish haqi, renta to'lovlari, prosent, foyda va junni qayta ishlash uchun resurs sotib olishga qoladi. Kostyum ishlab chiqaruvchi (V) firma kostyumlarni ko'tarasiga (optoviy) sotadigan (G) firmasiga sotadi. (G) firma o'z navbatida kiyimlarni chakana narxda (roznichniy) sotadigan sotuvchiga sotadi. Xaridorga kostyum 250 dollar narxda yetib keladi. Har bir ishlab chiqarish bosqichidan o'tayotganda firmaning mahsulotga to'lagan to'lovi va firmaning mahsulotni sotgandan tushgan tushumi o'rtasida farq bo'ladi (bu tushum ish haqi, renta to'lovlari, prosent, foyda tariqasida tarqatiladi). YaMMni hisoblashda faqat yakuни maxsulotni (bizni misolda bu 250 dollar) hisobga olish kerak.

### **3-jadval**

Ishlab chiqarish bosqichlari	Material yoki mahsulotning coti- ladigan narxi (doll.)	Qo'shilgan qiymat (doll.)
1	2	3
	0	
Firma (A) Qo'ychilik fermasi	60	60 (=60-0)
Firma (B) Junni qayta ishlovchi korxona	100	40 (= 100-60)
Firma (V) Kostyum ishlab chiqaruvchi korxona	125	25 (=125-100)
Firma (G) Mahsulotni (kostyumi ko'tarasiga sotadigan sotuvchi)	175	50 (=175-125)
Firma (D) Chakana narxda sotuvchi firma	250	
Umumiy narxi	710	
Qo'shilgan qiymat (umumiy daromad)		250

YaMMni hisoblashda quyidagi unumsiz bitimlar hisobga olinmaydi:

-sof moliya bitimlari (transfert to'lovlari, xususiy transfert to'lovlari, qimmatli qog'ozlarni oldi – sotdisi)

-ushlab (saqlab) turilgan mahsulotlar va ularning oldi-sotdisi.

### *1. Sof moliya bitimlari:*

a) **davlat transfert to'lovlari** (ijtimoiy-sug'urta to'lovlar, ish-sizlarga nafaqa, veteranlar pensiyasi va boshqalar). Eng asosiysi shuki, transfert to'lovlarini oluvchilar ishlab chiqarishga hech qanday hissa qo'shmaydilar. Shuning uchun ular YaMMni hisoblashda hisobga olinmasligi kerak;

b) **xususiy transfert to'lovlar** – masalan, studentlarning oyiga o'z uylaridan oladigan subsidiyalari yoki boy qarindoshlaridan sovg'a tariqasida oladigan tushumlari ishlab chiqarish natijasi hisoblanmaydi. Balki ular faqat vositalarning bir xususiy mulk egasidan ikkinchisiga o'tganligini bildiradi;

v) qimmatli qog'ozlar bitimlari ham hech qanday mahsulot yaratmaydi, shuning uchun ular ham YaMMga qo'shib hisoblanmaydi.

2. *Ushlab turilgan narsalar va ularning oldi-sotdisi* ham YaMMga qo'shilmaydi, chunki ular o'zлari yaratilgan yilda hisobga olinib, YaMMga qo'shilgan bo'ladi. Masalan, siz 1982 yilda chiqqan «Ford» avtomashininasini tanishingizga sotayapsiz. Bu bitim YaMMga qo'shilmaydi, chunki u hozirgi davrdagi ishlab chiqarish hajmini ko'paytirmaydi. Xuddi shunday siz hozir yangi zavoddan chiqqan va sotib olgan «Ford» avtomashinangizni 1 haftadan keyin sotsangiz ham uning qiymati YaMMga qo'shilmaydi, chunki siz uni yangi sotib olganganizdayoq uning narxi YaMMga qo'shilgan edi. Agar biz uni qayta sotib, narxini YaMMga qo'shsak, 2 marotaba hisoblagan bo'lamiz. Bunday qilish YaMMni bo'rttirib ko'rsatishga olib keladi.

### **3. Ijtimoiy ishlab chiqarish ko'lamini belgilashda narxlarning ahamiyati. Nominal va real YaMM**

Amaliyot (MHT) da narxlarning 2 ko'rinishi qo'llaniladi:

- **joriy yoki haqiqiy narxlar;**
- **o'zgarmas yoki solishtirma bazis narxlar.**

Shu yildagi **joriy yoki amaldagi narxlar** yil mobaynida mahsulot ishlab chiqarish va uning iste'moli o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda qo'llaniladi hamda takror ishlab chiqarishning moliyaviy qiymat jihatlarini aks ettiradi. Lekin joriy narxlardan ishlab chiqarishni ma'lum bir vaqt davomida tahlil qilish uchun foydalanish maqsadga muvofiq emas. Chunki ularning har qanday oshishi yoki pasayishi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning hajmiga bevosita ta'sir etib, iqtisodiyotning haqiqiy ahvolini buzib ko'rsatadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga haqqoniy baho berish uchun o'zgarmas narxlardan foydalilaniladi. **O'zgarmas yoki solishtirma bazis narxlar** – bu asos qilib

olingen biron-bir yildagi mahsulotning narxi bo'lib, tahlil qilinayotgan davr uchun ishlab chiqarish hajmini qiymat jihatdan baholashda foydalaniadi. Bu narxlar mahsulotning natural hajmini o'zgarishini ilg'ash imkonini beradi va ishlab chiqarishni ma'lum bir vaqt davomida haqiqiy o'zgarishini aks ettiradi.

Pulda ifodalangan va muayyan narxlarda hisoblangan mahsulot nominal YaMM deb yuritiladi. Nominal mahsulot hajmi mahsulotning moddiy miqdori va narxiga bog'liqdir.

Milliy ishlab chiqarish hajmini o'zgarishiga narxlarning ta'sirini bartaraf etish maqsadida deflyator yordamida **real yalpi ichki mahsulot** hisoblanadi.

$$\text{Real YaIM (YaMM)} = \frac{\text{Nominal YaIM (YaMM)}}{\text{Deflyator}} \times 100\%$$

Real YaIM (YaMM) – narx o'zgarishi nazarda tutilib hisoblangan, ishlab chiqarishning amaldagi miqyosini ifodalovchi mahsulotdir.

#### **4. Deflyator va undan real milliy mahsulotni aniqlashda foydalanish**

Narxlarning o'sishi bilan yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'zgarishini ko'rsatuvchi miqdor **deflyator** yoki barcha tayyor mahsulot va xizmatlarning umumiyligi **narx indeksi** deyiladi. Jami mahsulot tarkibiga millionlab nomdag'i yaratilgan ne'matlar kiradi va ularni har birining narxini o'zgarib turishini jismonan kuzatish mumkin emas. Shuning uchun ham deflyator **bozor savati** yordamida aniqlanadi.

**Bozor savati nima?** Bozor savati yalpi ichki mahsulot yoki yalpi milliy mahsulot tarkibiga kiruvchi, uning asosiy qismini tashkil etuvchi muhim tovar va xizmatlarni o'z ichiga oladi.

$$\text{Joriy yildagi bozor savatining baxosi shu yilning narxlari} \text{da}$$

$$\frac{\text{Joriy yil = deflyatori}}{\text{Joriy yildagi bozor savatining baxosi bazis yili narxlari} \text{da}} \times 100 \% \text{ yoki}$$

$$\frac{120mlrd.so'm}{50mlrd.so'm} \times 100\% = 240\%$$

Yuqoridagi misoldan ma'lum bo'ldiki, mamlakatda narxlarning umumiy darajasi bazis yilga nisbatan 2,4 martaga o'sgan. Agarda shu davr ichida yalpi ichki mahsulotning natural hajmi o'zgarmasdan qolgan bo'lsada, uning nominal qiymati shuncha oshadi. Narxlar darajasi pasayayotgan bo'lsa, unda narxlar indeksi yoki deflyator 100 dan kam darajagacha tushib ketadi. YaIM (YaMM) narxlari indeksining joriy yilda bazis yilga qaraganda ko'tarilib borishi inflayatsiyani va aksincha, uni kamayib borishi deflyatsiyani bildiradi.

**Iste'mol narxlari indeksi.** Iqtisodiy amaliyotda deflyator bilan bir qatorda inflayatsiya darajasining yana bir ko'rsatkichi – iste'mol narxlari indeksi (INI) yoki hayot kechirish qiymati indeksi keng qo'lllaniladi.

Bu ko'rstkich ham deflyator kabi bozor savati yordamida aniqlanadi. Ammo, bu yerda bozor savatiga faqat aholining iste'mol byudjetini tashkil etuvchi iste'mol mollari (kiyim-kechak, oyoq-kiyim) va xizmatlar (tibbiy, transport xizmati, aloqa) kiritiladi, xolbuki, deflyatorni hisoblanayotganda bozor savatining sezilarli qismini ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan tovarlar tashkil etadi. Iste'mol narxlari indeksi joriy yilda bazis yilga qaraganda qayd etilgan iste'mol buyumlar va xizmatlar turkumining qiymati qanday o'zgarayotganini aks ettiradi.

Hamdo'stlik mamlakatlarda INI ni xalqaro standartlarni hisobga oluvchi usul buyicha hisoblash 80-yillarning oxirlaridan boshlandi.

Yalpi ichki mahsulot mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, u ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi korxona va tashkilotlar faoliyatining pirovard natijalarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun 1995 yil burilish yili bo'ldi. YaIM ishlab chiqarishning pasayishi keskin sekinlashdi. 1996 yildan boshlab hozirgacha yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning barqaror ijobji dinamikasi davom etmoqda.

YaIM hajmi qanchalik universal ko'rsatkich bo'lmasin, lekin baribir u iqtisodiyotda kechayotgan chuqur sifat o'zgarishlarini o'zida to'la aks ettira olmaydi. Shuning uchun ham uni to'ldiradigan, qo'shimcha iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish lozim bo'ladi.

1997 yil natijalariga ko'ra, YaIM ishlab chiqarish umumiy hajmi sur'atlari birinchi marta aholi soni o'sish sur'tlaridan ustun bo'lishiga erishildi. Bu o'ta muhim sifat ko'rsatkichi bo'lib, iqtisodiyotimizda 1980 yildan keyin kuzatilmagan edi. Bu mamlakat iqtisodiy qudrati

va aholi turmush darajasini belgilaydigan muhim mezonlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Yana muhim sifat ko‘rsatkichlardan biri ijtimoiy ishlab chiqarish hajmining o‘sishi iqtisodiyotda band bo‘lganlar sonining o‘sishi bilan birga kechishidir.

Qanday bo‘lmasin iqtisodiy o‘sishni ta’minalash yagona va pirovard maqsad emas. YaIM tarkibini takomillashtirish, bozor tan oladigan, kishilarning kundalik ehtiyojini bevosita qondiradigan, sifatli va eksport talablariga javob beradigan mahsulot va xizmat turlarini muttasil ko‘paytirib borish bosh maqsadlardan hisoblanadi. Shundagina islohotlar chuqur mazmun kasb etadi, kishilarni samarali mehnatga rag‘batlantiradi.

### **5. «Sof iqtisodiy farovonlik» ko‘rsatkichi va YaMM**

Iqtisodiy faoliyatni to‘liq aks etirish uchun jahon amaliyotida YaMM ko‘rsatkichi «sof iqtisodiy farovonlik» ko‘rsatkichi bilan to‘ldirilishi lozimligini amerika iqtisodchilari V. Nordxauz va Dj. Tobinlar qayd etishgan.

Ko‘pgina faoliyat turlari bozordan tashqari xarakterga ega bo‘lib, jamiyatning iqtisodiy farovonligini oshiradi. Masalan, uy xo‘jaligidagi ishlar, dala hovli ishlari oila ehtiyoji uchun bajariladi. Rivojlangan mamlakatlarda daromadning oshishi bo‘sh vaqt va dam olishga bo‘lgan talabni oshiradi, bu esa farovonlikning oshishiga teng, o‘z navbatida buning natijasida YaMM ko‘rsatkichi pasayadi.

YaMM da yashirin iqtisodiy sektorning faoliyati aks etmaydi (narkotik moddalar ishlab chiqarish, reket, pripliskalar va boshqalar). Yashirin iqtisodiy sektorning ba’zi bir elementlari iqtisodiy farovonlikni oshirishi mumkin (nazoratdan chetda qolgan individual va koopertiv faoliyat, kasal kishiga yaqin odamlarining qarashi, kasal bolalarga qarash, repititorlik, dala hovli qurish va boshqalar).

Iqtisodiy farovonlik ekologik faktor (omillar) ta’sirida kamayishi mumkin. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlimning o‘zgarishi va kengaytirilgan ishlab chiqarishning boshqa salbiy oqibatlarini millatning iqtisodiy farovonligini baholashda hisobga olish zarur.

Sof iqtisodiy farovonlikni aniqlash uchun YaMM dan farovonlikka ta’sir etuvchi salbiy omillarni ayirish va nobozor faoliyatning pullik bahosini, bo‘sh vaqtning pullik bahosini qo‘sish lozim.

## **Mavzu №2 buyicha savollar:**

1. *YaMM va undan kelib chiqadigan boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.*
2. *YaMMni xarajatlar va daromadlar bo'yicha aniqlash.*
3. *YaMMni aniqlashda ikki marotaba hisoblashga yo'l qo'ymaslik deganda nimani tushunasiz?*
4. *Joriy yoki xaqiqiy narxlar va o'zgarmas yoki solishtirma bazis narxlarni tushuntiring.*
5. *Real YaMM qanday aniqlanadi.*
6. *Deflyator yoki narxlar indeksi deganda nimani tushunasiz? Joriy yil deflyatori qanday aniqlanadi?*
7. *Iste'mol narxlari indeksi deganda nimani tushunmoq lozim?*
8. *O'zbekistonda YaIM ishlab chiqarilishining oxirgi yillardagi o'sishi sur'atlarini yoki barqaror saqlanib qolayotganligini qanday tushuntirasiz?*
9. *Bozor savati nima?*
10. *YaMM va YaIM bir-biridan qanday farqlanadi?*

### MAVZU № 3

## Makroiqtisodiy jarayonlar tahliliga ikki xil yondashuv

### Mavzuda ko‘rib chiqiladigan savollar:

1. *Klassik model: asosiy postulat (dastlabki qonim) va xulosalar.*
2. *Keynsian makroiqtisodiy model: asosiy qonun va xulosalar.*

### Tayanch iboralar

Klassik va keynsian maktab, klassik model asoschilari, real va pul sektorlari, bozor muvozanati, mehnat bozori, kapital bozori, tovarlar bozori, «Buyuk depressiya», resurslarning cheklanganligi, «Keynsian inqilobi», mukammal va nomukammal raqobat, foiz stavkasi, investisiyalar va jamg‘armalar, ish haqi stavkasi, yalpi taklif va yalpi talab, iqtisodiyotga davlatning aralashuvi muammosi.

### Adabiyotlar

1. *Karimov I. A. O‘zbekiston islohotlarni chugurlashtirish yo‘lida. T. «O‘zbekiston», 1995 y.*
2. *Karimov I. A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» T., «O‘zbekiston», 1992 y.*
3. *Makkonell K. Bryu S. Ekonomiks t. 1-2 M. «Respublika» 1992 y.*

Iqtisodiy hodisa va jarayonlarga monistik (yagona) tarzda qaral-gan mikroiqtisodiyotdan farqli o‘laroq, makroiqtisodiy hodisa va jarayonlarda 2 xil yondoshuv, ikki xil maktab, ikki xil yo‘nalish mavjud: **klassik** va **keynsian** (zamonaviy sharoitlarda esa tegishlicha neoklassik va neokeynsian).

Shuning uchun bir-biridan bir necha xil tizim:

- nazariy asos;
- model tenglamalari;
- nazariy xulosalar;
- amaliy tavsiyalar

bilan farqlanuvchi 2 xil makroiqtisodiy model mavjud.

Maktablar o‘rtasidagi asosiy farqlar quyidagilar:

- a) bozor kon'yunkturasi o‘zgarishiga narxlar egiluvchanligi va ular moslashuvchanligi tezligi masalasi;
- b) iqtisodiyotga davlat aralashuvining zarurligi darajasi va uning instrumentlari.

## 1. Klassik model: asosiy qoida va xulosalar

Klassik modelga XVIII asrda asos solingen bo‘lib, uni mazmunan boyitgan buyuk iqtisodchilar: A. Smit, D. Rikardo, J. -B. Sey, Dj. -S. Mill, A. Marshall, A. Pigu va boshqalardir.

Klassik modelning asosiy qoidalari quyidagilar:

1. Iqtisod ikki, mustaqil bo‘lgan: real va pul sektoriga bo‘linadi. Bu makroiqtisodiyotda “klassik dixotomiya” tamoyili nomini olgan. Pul sektori real ko‘rsatkichlarga ta’sir etmaydi, u faqatgina nominal ko‘rsatkichlarni real ko‘rsatkichlardan farqini ko‘rsatadi va bu tamoyil “pullarning betarafligi” nomini olgan. Bu tamoyil pullarning real sektordagi vaziyatga ta’sir etmasligini va barcha narxlar nisbiy ekanligini bildiradi. Shuning uchun **klassik modelda pul bozori mavjud emas** va real sektor uchta bozordan iborat:

- mehnat bozori;
- kapital bozori;
- tovar bozori.

2. barcha **real bozorlar sof raqobatli** bo‘lib, bu XVIII asr va butun XIX asr davriga to‘g‘ri keladigan iqtisodiy holatdir. Shuning uchun iqtisodiy agentlarning barchasi “price takers”dir.

3. barcha bozorlarda takomillashgan raqobat mavjud bo‘lganligi sababli barcha **narxlar egiluvchan**. Bu mehnat bozorida ham nominal ish haqi stavkasiga, kapital bozorida ham foiz stavkasiga, tovar bozorida ham tovar narxiga tegishli. Narxlar egiluvchan deyilganda, narxlar bozor kon'yunkturasi o‘zgarishiga (ya’ni talab va taklif nisbati o‘zgarishiga) mos ravishda o‘zgarishini va resurslarning to‘liq bandligi sharoitida bozor muvozanatining har qanday bozorda buzilishi tiklashini ta’minlashini tushunmoq lozim.

4. narxlar egiluvchan ekan, bozor **muvozanati** bozorlarda avtomatik tarzda o‘rnatalidi, ya’ni A. Smitning “ko‘rinmas qo‘l”, ya’ni bozorlarni o‘z-o‘zini muvozanatga keltirish, tartibga solish (market-clearing) tamoyili amal qiladi.


5. bozor muvozanati bozor mexanizmi orqali avtomatik tarzda ishga tushar ekan, u holda hech qanday tashqi kuch, tashqi agent iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda aralashmasligi lozim. Shunday qilib, **iqtisodiyotga davlat aralashmasligi kerak** degan tamoyil asos topdi va “laissez faire” nomini oldi, fransuzchadan bu “hamma narsa qanday qilinsa shunday qilinsin, qanday ketsa shunday ketsin” degan ma’noni anglatadi.

**6. iqtisodning asosiy muammosi–bu resurslarning cheklanganligi muammosidir, shuning uchun barcha **resurslar** to‘la bandlik sharo-itida samarali va rasional ishlataladi.** (Mikroiqtisodiyotdan ma’lumki, barcha mavjud bozor strukturalari ichida resurslarning nisbatan samarali ishlatalishi aynan sof raqobatga to‘g‘ri keladi). Shuning uchun ishlab chiqarish hajmi doimo o‘zining potensial ishlab chiqarish darajasida bo‘ladi.

**7. resurslarning cheklanganligi ishlab chiqarishni, ya’ni yalpi taklifni iqtisodning eng asosiy muammosi qilib qo‘yadi.** Shuning uchun klassik model (“supply-side”) iqtisodni **yalpi taklif** tomonidan o‘rganadi. Asosiy bozor-bu resurs bozori va birinchi navbatda mehnat bozoridir. Yalpi talab yalpi taklifga doimo mos keladi. Iqtisodda “Seyu” qonuni amal qiladi. Bu qonun XIX asr boshlariда fransuz iqtisodchisi Jan-Batist Sey tomonidan yaratilgan. U shunday ta’kidlaydi: taklif o‘z-o‘zidan talabni keltirib chiqaradi, chunki har qanday kishi bozorda ham iste’molchi, ham ishlab chiqaruvchi bo‘lib maydonga chiqadi va uning harajatlari doimo uning daromadiga teng. Ishchi bir tomonдан o‘zining mehnati bo‘lgan iqtisodiy resursni taklif qilsa, ikkinchi tomonдан shu mehnat mahsuli bo‘lgan daromadiga endi tovar va xizmatlar sotib oladi. Ish haqi ko‘rinishida bo‘lgan uning olgan daromadi o‘zi ishlab chiqargan mahsulot narxiga tengdir. Firma bir vaqtning o‘zida ham tovar va xizmatlarni sotuvchi va ham iqtisodiy resurslarni sotib oluvchi hisoblanadi. Uz ishlab chiqargan mahsulotidan tushgan daromadini ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish omillarini sotib olishga sarflaydilar. Shuning uchun yalpi talab bilan bog‘liq muammo bo‘imasligi lozim, chunki iqtisodiy agentlar o‘z daromadlarini harajatga aylantiradilar.

**8. resurslar cheklanganligi muammosi sekin-asta hal bo‘ladi** (miqdor o‘sishi va sifat yaxshilanishi). Ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va texnologik yangilanish uzoq davom etadigan jarayon. Barcha narxlar iqtisodda talab va taklif nisbati o‘zgarishiga javoban tez o‘zgarmaydi. Shuning uchun klassik model **uzoq muddatni tasvirlovchi model**. Narxlarning absolyut egiluvchanligi va bozorlarning o‘zaro muvozanati faqatgina uzoq muddatda kuzatiladi. Endi biz klassik modelda bozorlarning o‘zaro ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

Klassik modelda yuqorida aytib o‘tganimizdek, real bozorlar uchta: **mehnat bozori, kapital bozori va tovar bozori**.



3-rasm. Klassik modeldagi real bozorlar

**Mehnat bozorini ko'rib chiqamiz** (3-a rasm) Sof raqobat sharoiti-da resurslarning to'liq bandligi mavjud ekan (to'liq bandlik darajasi), mehnatning taklif egrisi ( $L^S$  – labour supply curve) vertikal ko'-rinishga ega va taklif etilayotgan mehnat xajmi  $L_F$  ga teng (full employment). Mehnatga bo'lgan talab ish haqi stavkasiga bog'liq va bunday bog'liqlik teskari proporsionallik xarakteriga ega, ya'ni ish haqining nominal stavkasi (W-wage rate) qanchalik yuqori bo'lsa, firmalar harajatlari yuqori bo'ladi va ishchilarни ishga yollash kamayadi. Shuning uchun mehnatga talab egri chizig'i ( $L^D$  – labour demand curve) pastga qarab og'adi. Dastavval muvozanat mehnatga taklif egri chizig'i ( $L^S$ ) va mehnatga bo'lgan talab egri chizig'i kesishgan nuqtada o'rnatilib, bunda ish haqi stavkasi  $W_1$  va ish bilan bandlar soni  $L_F$  miqdorga to'g'ri keladi. Faraz qilaylik, mehnatga bo'lgan talab pasaydi va mehnatga talab egri chizig'i  $L^D_1$  dan chapga  $L^D_2$  gacha siljidi. Nominal ish haqi stavkasi ( $W_1$ ) da tadbirkorlar  $L_2$  miqdorga teng bo'lgan ishchilarни yollaydilar.  $L_F$  va  $L_2$  o'rtaсидаги farq ishsizlikni bildiradi. XIX asrda ishsizlik nafaqasi bo'lmaganligini hisobga olsak, klassik maktab tarafdoरlari fikriga ko'ra, ishchilar rasional harakat qiluvchi iqtisodiy agentlar hisoblanadilar va ular hech qanday daromad ko'rmagandan ko'ra oz miqdorda bo'lsa ham daromad ko'rishni afzal ko'radilar. Nominal ish haqi stavkasi  $W_2$  gacha tushadi va mehnat bozorida yana to'liq bandlik -  $L_F$  o'rnatiladi. Shuning uchun ishsizlik klassik modelda ixtiyoriy xarakterga ega, chunki ushbu nominal ish haqi stavkasi  $W_2$  ga ishslash yoki ishlamaslikni ishchining o'zi hal qiladi.

**Kapital bozori** (3-b rasm) -bu investisiyalar (I-investment) va jamg'armalar (S-savings) "uchrashadigan" va unda foiz stavkasi (R-interest rate) o'rnatiladigan bozordir. Investision tovarlarni sotib olish uchun firmalar kapitalga talab bildiradilar, kredit resurslari taklifini esa

uy xo'jaliklari o'zlarining jamg'armalarini qarzga berib amalga oshiradilar. Investisiyalar va foiz stavkasi o'rtasida teskari proporsional bog'liqlik mavjud, shuning uchun pullik kapitalning narxi qanchalik yuqori bo'lsa, firmalarning investision harajatlari miqdori shunchalik kamayadi. Jamg'armalar va foiz stavkasi o'rtasida esa to'g'ri proporsional bog'liqlik mavjud, chunki foiz stavkasi qanchalik yuqori bo'lsa, uy xo'jaliklarining jamg'armalarni qarz (kredit) ga berishi va undan oladigan daromadi shunchalik yuqori bo'ladi. Dastavval  $I_1 = S_1 R_1$  foiz stavkasida o'rnatiladi. Agar jamg'armalar ortsas ( $S_1$  dan  $S_2$  ga jamg'arma egri chizig'i surilsa), u holda ilgarigi foiz stavkasi  $R_1$  da jamg'armalarning bir qismi daromad keltirmaydi. Jamg'aruvchilar (uy xo'jaliklari) o'zlarining barcha jamg'armalariga daromad olishni istaydilar va pastroq foiz stavkasiga ham rozi bo'ladilar. Yangi foiz stavkasi  $R_2$  darajasida o'rnatiladi, bunda barcha kredit vositalar to'liq ishlataladi, chunki endi bunday pastroq foiz stavkasida investorlar ko'proq kredit oladilar va investisiyalar miqdori  $I_2$  ga ortadi, ya'ni  $I_2 = S_2$  bo'ladi. Muvozanat to'liq bandlik sharoitida o'rnatildi.

**Tovar bozorida** (3-v rasm) dastavval muvozanat yalpi taklif (AS) va yalpi talab ( $AD_1$ ) kesishgan nuqtada o'rnatiladi, bunda muvozanat narx-P<sub>1</sub> va potensial ishlab chiqarish darajasidagi ishlab chiqarish hajmi- Y<sup>\*</sup>. Barcha bozorlar bir-biri bilan bog'liq ekan, mehnat bozorida ish haqi stavkasining pasayishi (bu esa daromadni kamayishiga olib keladi) va kapital bozorida jamg'armalarning ortishi iste'mol harajatlarini kamaytiradi, buning oqibatida yalpi talab kamayadi.  $AD_1$  egri chiziq  $AD_2$  ga, chapga siljiydi. Ilgarigi P<sub>1</sub> narxda endi firmalar o'zları ishlab chiqargan barcha Y<sup>\*</sup> hajmdagi tovarlarni sota olmaydilar, ular endi faqat Y<sub>2</sub> hajmdagi tovarlarni sotish imkoniyatiga ega bo'lib qoladilar. Ammo firmalar rasional harakat qiluvchi iqtisodiy agent hisoblanganligi uchun barcha ishlab chiqargan hajmdagi tovarlarni pastroq narxda bo'lsa ham sotishni afzal ko'radilar. Natijada narx P<sub>2</sub> darajaga tushadi va barcha hajmdagi ishlab chiqarilgan tovarlar sotiladi. Muvozanat yana potensial ishlab chiqarish hajmida o'rnatiladi (Y<sup>\*</sup>).

Bozorlar o'z-o'zidan narx egiluvchanligi hisobiga muvozanatlashdi, bunda har bir bozordagi muvozanat resurslarning to'liq bandligi darajasida o'rnatildi. Faqatgina nominal ko'rsatkichlar o'zgardi, real ko'rsatkichlar esa o'zgarmasdan qoldi. Shunday qilib, klassik modelda nominal ko'rsatkichlar egiluvchan, real ko'rsatkichlar esa noelastik (qat-

tiq) hisoblanadi. Bu ham ishlab chiqarishning real hajmiga (u doimo potensial ishlab chiqarish hajmiga teng), ham iqtisodiy agentlarning real daromadiga tegishlidir. Gap shundaki, narxlar barcha bozorlarda bir-biriga proporsional ravishda o‘zgaradi, shuning uchun  $W_1 / P_1 = W_2 / P_2$  (nominal ish haqining narx darajasiga nisbatli real ish haqiga teng). Bunda kelib chiqib xulosa qilsak, nominal daromad tushganiga qaramay, mehnat bozorida real daromad o‘zgarmasdan qoladi. Jamg‘aruvchilarning real daromadlari (real foiz stavkasi) ham o‘zgarmasdan qoldi, chunki nominal foiz stavkasi ham narxlar tushgan nisbatda pasaydi. Narx darajasi tushganiga qaramay, tadbirkorlarning real daromadlari (sotuvdan tushgan tushum va foyda) pasaymadi, chunki aynan shu darajada harajatlar pasaydi (ish haqi harajatlari, ya’ni nominal ish haqi stavkasi). Bunda yalpi talabning pasayishi ishlab chiqarish hajmini pasayishiga olib kelmaydi, chunki iste’mol harajatlarining kamayishi (mehnat bozorida nominal daromadning kamayishi va kapital bozorida jamg‘armalar miqdorining ortishi natijasida) investision talabning ortishi bilan to‘ldiriladi (kapital bozorida foiz stavkasi tushishi natijasida). Shunday qilib, o‘zaro muvozanat faqatgina alohida bozorlarda o‘rnatalmay, balki barcha mavjud bozorlarning bir-biri bilan o‘rnataladi va oqibatda esa bozorlar muvozanatga erishadi.

Klassik model xulosalaridan shuni aytish mumkinki, uzoq davom etuvchi krizislardan iqtisodda bo‘lishi mumkin emas, balki bu faqat vaqtinchalik disproportsiyalardir. Bunday disproportsiyalar bozor mexanizmi bo‘lmish narx mexanizmi o‘zgarishi orqali asta-sekin o‘z-o‘zidan yo‘qoladi.

Ammo 1929 yil oxirida AQShda krizis ro‘y berdi, bu krizis barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab oldi va 1933 yilgacha davom etdi va “Buyuk depressiya” nomini oldi. Ushbu krizis navbatdagi oddiy krizislardan emas edi. Bu krizis klassik makroiqtisodiy modelning qilgan xulosalarini va birinchi navbatda iqtisodiy tizimni o‘z-o‘zini boshqara olishi mumkinligini butunlay yo‘qqa chiqardi. Birinchidan, 4 yil davom etgan “Buyuk Depressiya”ni endi vaqtinchalik ishdan chiqqan, avtomatik ravishda o‘z-o‘zini boshqara oladigan mexanizm sifatida tushuntirib berish mutlaqo mumkin emas edi. Ikkinchidan, endi bunday holatda, ya’ni AQShda ishsizlik darajasi 25%ni tashkil etgan vaqtida resurslarning cheklanganligi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi.

“Buyuk Depressiya”ning sabablari, undan mumkin bo‘lgan chiqish yo‘llari va kelgusida bunday iqtisodiy halokat (katastrofa)larga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha tavsiyalar buyuk ingliz iqtisodchisi D.M. Keynsning 1936 yilda yozilgan kitobi (“Bandlikning umumiy nazariyasi, foiz stavkasi va pul”) da tahlil qilinib, asoslab berildi. Ushbu kitobning chiqishi oqibatida makroiqtisodiyot iqtisodiyot nazariyasining o‘z predmeti va tahlil metodiga ega bo‘lgan mustaqil bo‘limiga aylandi. Keynsning iqtisodiyot nazariyasiga qo‘shgan hissasi shu qadar buyuk ediki, keynsian makroiqtisodiy model iqtisodiy tahlillar jarayoniga keynsiancha yondoshuvning paydo bo‘lishi “Keynsian inqilobi” nomini oldi.

Ammo shuni nazarda tutmoq kerakki, klassik maktab vakillarining mag‘lubiyati iqtisodiy jarayonlar tahliliga noto‘g‘ri yondoshib, noto‘g‘ri xulosalar chiqarganliklarda emas, balki bu modelning asosiy xulosalari XIX asrda ishlab chiqilgan va o‘sha sof raqobat sharoitidagi davrning iqtisodiy ahvolini aks ettiradi. Ammo bu xulosalar XX asrning boshlariga, nomukammal raqobat mayjud bo‘lgan sharoitga mutlaqo to‘g‘ri kelmas edi. Keyns klassik maktabning qilgan asosiy xulosalarini rad etdi va o‘zining makroiqtisodiy modelini yaratdi.

## **2. Keynsian makroiqtisodiy model: asosiy qonun va xulosalar**

Modelning asosiy qoidalari:

- real va pul sektorlari o‘zarlo bir-birlari bilan bog‘liq. Klassik modelga xarakterli bo‘lgan pullarning neytrallik tamoyili endi “pul-lar ahamiyatga ega” (“money matters”) tamoyili bilan almashtirilib, bu esa pullarning real ko‘rsatkichlarga ta’sir etishini bildiradi. Pul bozori qimmatli qog‘ozlar bozori singari moliya bozorining bir qismi (segmenti) ga aylanib, makroiqtisodiy bozorni tashkil etadi;
- barcha bozorlarda nomukammal raqobat hukm suradi;
- barcha bozorlarda nomukammal raqobat hukm surganligi sababli, narxlar noelastik, qattiq (rigid) yoki Keyns so‘zi bilan aytganda, «yopishqoq» (sticky), ya’ni ma’lum darajada yopishib qoluvchi va ma’lum bir vaqt ichida o‘zgarmasdir. Masalan, mehnat bozorida mehnat narxi bo‘lgan nominal ish haqi stavkasining qattiqligi (yopishqoqligi) ni quyidagicha tushuntirish mumkin:


a) bitim asosidagi tizim amal qiladi: bitim bir yildan uch yilgacha bo‘lgan davrga imzolanadi va bu vaqt ichida bitim bo‘yicha kelishilgan nominal ish haqi stavkasini o‘zgartirib bo‘lmaydi;

b) kasaba uyushmalari faoliyat yuritadi, ular tadbirkorlar bilan kollektiv bitimlarni nominal ish haqining ma'lum bir miqdorida bo'lishini kelishadilar, tadbirkorlar esa bu miqdordan past bo'lgan ish haqi miqdorida ishchilarni yollashmaydi (shuning uchun ish haqi stavkasi kollektiv bitim qayta ko'rilib chiqilmagunga qadar o'zgartirilmaydi);


v) davlat minimal ish haqini o'rnatadi, tadbirkorlar shu minimal ish haqi stavkasidan past bo'lgan stavkada ishchilarni yollash huquqiga ega emaslar. Shuning uchun grafikda mehnat bozori (3-a rasm) mehnatga talab pasayganda ( $L_1^D, L_2^D$  gacha siljiganda) mehnat narxi (nominal ish haqi stavkasi)  $W_2$  gacha pasaymaydi, u  $W_1$  darajada qoladi ("yopishadi").

Tovar bozorida narxlarning qattiqligini shu bilan tushuntirish mumkinki, unda monopoliyalar, oligopoliyalar yoki monopolistik raqobatli firmalar harakat qilib, ular esa narxlarni bir xil darajada ushlab turish imkoniyatiga egalar (price-makers) (eindi ular soʻf raqobat sharoitidek price-takers boʻlmaydilar). Shuning uchun tovar bozori grafigida (3-v rasm) tovarlarga talab pasayganda, narx darajasi  $P_2$  ga pasaymaydi, balki  $P_1$  darajada saqlanib qoladi.

Keyns fikricha, foiz stavkasi investisiyalar va jamg'armalar nisbati natijasida kapital bozorida shakllanmay, balki pul bozorida – pulga bo'lgan talab va taklif nisbati natijasida o'rnatiladi. Shuning uchun pul bozori to'liq makroiqtisodiy bozor bo'lib qoladi, undagi sharoitning o'zgarishi tovar bozoridagi sharoitning o'zgarishiga ta'sir etadi.



#### **4-rasm. Pul bozori**



### **5-rasm. Keynsian modelidagi investisiya va jamg'armalar**

Keyns bu talqinni quyidagicha asosladi: bir xil darajadagi foiz stavkasida amaldagi investisiyalar jamg‘armalar bilan mos tushmasligi mumkin, chunki investisiyalar va jamg‘armalar turli iqtisodiy agentlar

orqali amalga oshiriladi, bu agentlar esa (firmalar, uy xo'jaliklari) turli maqsadlarni ko'zlaydilar. Investisiyalarni firmalar, jamg'armalarni esa uy xo'jaliklari amalga oshiradilar. Investisiya hajmini belgilab beruvchi asosiy omil Keyns fikricha foiz stavkasi darajasi emas, balki investisiya dan kutilayotgan sof foyda normasidir. Keyns buni kapitalning chekli samaradorligi deb ataydi. Investor kapitalning chekli samaradorligi kataligini foiz stavkasi bilan taqqoslab investision qaror qabul qiladi. Agar birinchisi ikkinchisidan katta bo'lsa, u holda investor investisiya loyishasini moliyalashtiradi (agar investor tomonidan kapitalning chekli samaradorligi 100% deb baholansa, u holda kredit 90%ga teng foiz stavkasida ham olinadi, agarda u 9% deb baholansa, u holda investor 10%lik foiz stavkasini olmaydi). Jamg'armalar hajmini belgilab beruvchi omil ham foiz stavkasi bo'lmay, ixtiyoridagi daromad hajmi hisobladi ( $ID=S+S$ ). Agarda kishining ixtiyoridagi daromadi katta bo'lmasa va bu daromad kundalik harajatlarga ham arang yetsa, u holda juda yuqori foiz stavkasida ham kishilar jamg'arma qilolmaydilar (jamg'arish uchun hech bo'limganda jamg'ariladigan biror narsa bo'lishi lozim). Shuning uchun Keyns jamg'armalar foiz stavkasiga bog'liq emas deb hisobladi va XIX asr fransuz iqtisodchisi Sarganning iqtisodiy adabiyotlarda "Sargan samarasasi" deb nom olgan dalil (argument) idan foydalaniib shunday ta'kidlaydi: agar kishilar ma'lum vaqt ichida qayd qilingan mablag'ni yig'ib olmoqchi bo'lsalar, bunda jamg'armalar va foiz stavkasi o'rtaida teskari bog'liqlik bo'ladi. Agar biror kishi pensiya-gacha 10000\$ga ega bo'lmoqchi bo'lsa, u foiz stavkasi 10%ga teng bo'lganda yiliga 1000\$dan, foiz stavkasi 20% bo'lganda esa 5000\$dan jamg'arishi kerak bo'ladi. Keynsian modelidagi investisiyalar va jamg'armalarning o'zaro nisbati grafik ko'rinishda 5-rasmda berilgan. Jamg'armalar foiz stavkasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lganligi sababli, ularning grafik ko'rinishi vartial chiziqdan, investisiyalar esa foiz stavkasiga nisbatan kamroq bog'liq bo'lganligi uchun qiya, pastga egiluvchan ko'rinishga ega. Agar jamg'armalar  $S_2$  gacha ortsa, u holda muvozanat foiz stavkasini aniqlab bo'lmaydi, chunki investisiya egri chizig'i va yangi jamg'arma egrisi  $S_2$  kesishadigan nuqta mavjud emas. Demak, muvozanat foiz stavkasi  $R_e$  ni boshqa bozorda, ya'ni pul bozoridan topish lozim (pulga bo'lgan talab va taklif nisbati orqali) (4-rasm).

- barcha bozorlarda pullar noelastik (qattiq) ekan, bozorlar muvozanati to'liq bandlik sharoitida o'rnatilmaydi. Mehnat bozorida (3-a rasm) nominal foiz stavkasi  $W_1$  darajada, firmalar ishchilarga  $L_2$  miqdorda talab bildirganda o'rmatiladi.  $L_F$  va  $L_2$  o'rta sidagi farq-

ishsizlar. Bu holda ishsizlik ishchilar berilgan nominal ish haqi stavkasini rad etgani uchun emas, ushbu stavkaning qattiqligi sababli sodir bo'ladi. Ishsizlik ixtiyoriy holatdan majburiy holatga aylanadi. Ishchilar pastroq stavkada ishlashga rozi bo'ladilar, ammo tadbirdikorlar bunday ish haqi stavkasini pasaytirishga haqli emaslar. Ishsizlik jiddiy iqtisodiy muammoga aylanadi.

Tovar bozorida ham narxlar ma'lum  $P_1$  darajada "yopishib" qoladi (3-v rasm). Yalpi talabning yalpi daromadlar pasayishi nati-jasida kamayishi ishsizlik tufayli (eslatib o'tamiz, ishsizlik bo'yicha nafaqalar to'lanmaydi), shuning uchun iste'mol xarajatlarning pasayishi barcha ishlab chiqarilgan mahsulatlarni sotish mumkin emasligiga olib keladi ( $Y_2 < Y^*$ ) va resessiya (ishlab chiqarishning tushib ketishi) sodir bo'ladi. Iqtisodning pasayishi investorlar kayfiyatiga ta'sir etadi va natijada investision xarajatlarning pasayishiga olib keladi. Yalpi talab yanada tushib ketadi.

xususiy sektorning xarajatlari (uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari va firmalarning investision xarajatlari) yalpi talabning potensial ishlab chiqarish hajmiga to'g'ri keladigan, ya'ni resurslarning to'liq bandlik sharoitida ishlab chiqarilgan hajmiga teng bo'lган yalpi talab hajmini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun iqtisodda yoki tovar va xizmatlarga o'zining talabini bildiruvchi, yohud xususiy sektor talabini rag'batlantirib, yalpi talabni ko'paytiradigan qo'shimcha makroiqtisodiy agent paydo bo'lishi lozim. Bunday agent davlatdir. Shu tariqa Keyns davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi va iqtisodni davlat tomonidan tartibga solish (davlat aktivligi) ni asosdab berdi.

- asosiy iqtisodiy muammo (resurslar bandligi to'liq bo'lмаган sharoitda) yalpi taklif muammosi bo'lmay, endi yalpi talab muammosi hisoblandi. Keynsian modeli iqtisodni yalpi talab tomonidan o'r ganuvchi "demand-side" modelidir.

davlatning barqarorlik siyosati, ya'ni yalpi talabni tartibga soluvchi siyosat iqtisodga qisqa muddatda ta'sir etar ekan, u holda Keynsian modeli iqtisodni qisqa muddatda ("short-run" modeli) tasvirlovchi modelidir. Keyns uzoq davrga nazar solishni, iqtisodni uzoq muddatda o'r ganishni lozim deb hisoblamagan. U: "Uzoq davrda biz barchamiz murdalarmiz", -deydi ("In long run we are all dead").

Iqtisodiyotni yalpi talabga ta'sir etish yo'li bilan (birinchi navbatda fiskal siyosat choralarini bilan) tartibga solish, davlatning

yuqori darajada iqtisodga aralashuvini nazarda tutgan Keynsian uslubi II-Jahon urushidan keyin rivojlangan mamlakatlarga xarakterli edi. Ammo iqtisodda inflyatsion jarayonlarning kuchayishi va ayniqsa 70-yillar neft “shok”i oqibatlari birinchi navbatga yalpi talabni rag’batlantirishni emas (chunki bu inflyatsiyani yanada kuchraytirib yuborar edi) yalpi taklif muammosini hal etishni qo’ydi. “Keynsian inqilobi” o’rniga “neoklassik kontrrevolyusiya” keldi. Iqtisodiy nazariyada neoklassik yo’nalishning asosiy oqimlari bular:

- 1) Monetarizm (“monetarist theory”);
- 2) “Taklif iqtisodi” nazariysi (“supply-side economics”);
- 3) Rasional kutishlar nazariysi (“rational expectations theory”).

Neoklassik konsepsiyalarda asosiy e’tibor makroiqtisodiyotning mikroiqtisodiy asoslari tahliliga qaratiladi. Neoklassik oqim vakillari qarashlarining “klassik maktab” namoyandalari g’oyalaridan farqi shundaki, ular klassik model qoidalarini zamonaviy iqtisodiy sharoitga mos holda qo’llashadi va iqtisodni qisqa muddatda yalpi taklif tomonidan tahlil etishadi. Neokeynsian yo’nalish vakillari o’zlarining konsepsialarida shuningdek zamonaviy iqtisodning inflyatsion xarakterini hisobga oladilar. Shuning uchun zamonaviy makroiqtisodiy nazariyada neoklassik va neokeynsian qarashlarning o’zaro qarama-qarshiligi emas, balki zamonaviy iqtisodiy jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirib beradigan nazariy konsepsiyanı ishlab chiqish haqida so’z boradi. Bunday yo’l tutish esa “main stream” nomini olgan.

### Mavzu №3 bo‘yicha savollar:

1. Klassik model asoschilarini.
2. Klassik modelning asosiy qoidalarini.
3. Klassik modelda nima sababdan pul bozori mavjud emas?
4. Klassik bozorda narxlar egiluvchanligini tushuntiring.
5. Nima sababdan klassik modelda yalpi taklif iqtisodiyotning asosiy muammosi hisoblanadi?
6. Klassik modelda bozorlar nechta? Ularni grafik tarzda tushuntiring.
7. Keynsian makroiqtisodiy modelning asosiy qoidalarini tushuntiring.
8. Keynsian modelda nima sababdan narxlar egiluvchan emasligini tushuntiring.
9. Asosiy iqtisodiy muammo – bu yalpi talab ekanligini tushuntiring.
10. Neoklassik yo’nalishning asosiy oqimlari.

**Iqtisodiy o'sish**

**Mavzuda ko'rib chiqiladigan savollar:**

1. *Iqtisodiy o'sish va uning ko'rsatkichlari*
2. *Iqtisodiy o'sish turlari va omillari*
3. *Davlat siyosati va iqtisodiy o'sish.*
4. *Iqtisodiy o'sishning afzalliklari va kamchiliklari*

**Tayanch iboralar**

Iqtisodiy o'sish, real YALM, kishi boshiga to'g'ri keladigan real YALM, ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish, iqtisodiy o'sish omillari, mehnat unumдорligi, jismoniy kapital, mehnat kapitali, tabiiy resurslar, texnologik bilimlar, davlat siyosati, ichki va tashqi investisiyalarni rag'batlantirish, ta'limni rag'batlantirish, ilmiy va tadqiqot ishlarini rag'batlantirish, erkin savdoni rag'batlantirish, farovonlik darajasini oshirish, muqobil harajatlar, investisiyalardan keladigan daromadni kamayishi bilan bog'liq harajatlar, atrof-muhitning ifloslanishi bilan bog'liq xarajatlar.

**Adabiyotlar**

1. Karimov I. A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida", Toshkent, "O'zbekiston", 1995y.
2. Yo'ldoshev Z. Qosimov M. "Makroiqtisodiyot asoslari" Toshkent, "O'qituvchi", 1994y.
3. Hakimova M. "Makroiqtisodiyot", Toshkent "Mehnat", 1997y.
4. Agapova T. A. Seregina S. F. "Makroekonomika", Moskva-Ufa, 1995y.
5. Abdullaev Yo. "Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob" – Toshkent "Mehnat", 1997y.
6. Makkonnell K., Bryu S. "Ekonomiks" t 1-2, Moskva "Respublika", 1992y.
7. Grigori N. Menkyu. "Makroekonomika" Moskva, MGU., 1994y.
8. Burdo M., Viplosh Ch. "Makroekonomika" (Yevropeyskiy tekst), S. Peterburg.
9. Kostyak V. N. "Makroekonomika"-M., 1998
10. David N. Hyman: Economics. Richard D. IRWIN, INC. 1995.

Iqtisodiy o'sish muammosini o'rganish juda muhim ahamiyatga ega, chunki iqtisodiy o'sish farovonlikni oshiradi, uni belgilab beruvchi omillar tahlili esa turli mamlakatlarda bir vaqtning o'zida, bir mam-

lakatning o‘zida, ammo uning turli davrlarida iqtisodiy rivojlanish darajasi va uning sur’atlaridagi farqni tushuntirib berish imkonini yaratadi.

Iqtisodiy o‘sishning makroiqtisodiy nazariyasi bir qator muhim masalalarni hal etishga qaratilgan. Bular ichida eng asosiyлари:

iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;  
iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar;  
nima uchun ba’zi mamlakatlar tez, boshqalari sekin rivojlanadi;  
yuqori darajadagi farovonlikka erishgandan so‘ng, uni saqlab qolish uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rish masalasi;  
iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishga erishishda qanday yo‘l tutmog‘i kerakligi muammosi;  
iqtisodiy o‘sishning kamchiliklari.

Bu va shu kabi bir qancha masalalar iqtisodiy o‘sishning makroiqtisodiy nazariyasida hal etiladi.

### **1. Iqtisodiy o‘sish va uning ko‘rsatkichlari**

Real YaIMni uzoq vaqt oralig‘ida o‘sib borish tendensiyasi iqtisodiy o‘sishni bildiradi. Bu ta’rifning kalit so‘zлari quyidagi ma’noni anglatadi:


a) tendensiya so‘zi real YaIM yiliga ko‘payishi majburiy emasligini, faqatgina “trend” deb ataluvchi iqtisodning yo‘nalishinigina ko‘rsatadi;

b) uzoq vaqt oralig‘ida, chunki iqtisodiy o‘sish uzoq muddatni xarakterlovchi ko‘rsatkichdir va shuning uchun so‘z YaIMning potensial hajmi ya’ni, resurslarning to‘liq bandlik sharoitidagi YaIM, iqtisodning ishlab chiqarish imkoniyatlari o‘sishi haqida boradi;


v) real YaIM, nominal YaIM emas, chunki oxirgisi narxlar darajasi o‘sishi hisobiga ortishi mumkin, bunda ishlab chiqarishning real hajmi qisqarishi ham kuzatilishi mumkin. Shuning uchun iqtisodiy o‘sishning asosiy ko‘rsatkichi real YaIM kattaligi hisoblanadi.

Grafik ko‘rinishda iqtisodiy o‘sishni uch xil usulda tasvirlash mumkin:


real YaIM egri chizig‘i orqali  
ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i orqali  
yalpi talab-yalpi taklif modeli orqali (AD-AS modeli)



a) rasm



b) rasm



v) rasm

### 6-rasm. Iqtisodiy o'siahning grafik tasvirlari

**6 (a)**-rasmidagi trend (egri) chizig'i real YalMni uzoq muddatda o'sib borish tendensiyasini ko'rsatadi.

**6 (b)**-rasmda iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i orqali tasvirlab berilgan. Iqtisodiyotda ishlab chiqariladigan tovarlarning asosiy turi bu investision tovarlar (ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan) va iste'mol tovarlaridir. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizigi iqtisodiyotda resurslarning ma'lum bir vaqtida cheklanganligini ko'rsatadi. Egri chiziqdagi har bir nuqta mavjud iqtisodiy resurslar yordamida ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan iste'mol va investision tovarlarning ma'lum bir miqdordagi kombinatsiyasini ko'rsatadi. Masalan, ishlab chiqarish egri chizig'i-dagi A nuqtaga to'g'ri keluvchi resurslar miqdorida iste'mol tovarlarini  $S_1$  va investision tovarlarini  $I_1$  miqdorda ishlab chiqarish mumkin. Agar xuddi shu ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ida iste'mol tovarlarini  $S_2$  miqdorga oshirishni maqsad qilib qo'yilsa (A nuqtadan V nuqtaga o'tish), u holda bu muammoni hal etish faqatgina investision tovarlarni  $I_2$  gacha kamaytirish, ya'ni alternativ harajatlar hisobiga amalga oshirish mumkin. Agar iqtisod yangi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'iga, ya'ni A nuqtadan D nuqtaga o'tsa, u holda ham iste'mol ( $S_3$ ) ham investision tovarlar ( $I_3$ )ni ishlab chiqarish alternativ (muqobil) harajatlersiz ortadi. Bu esa iqtisodiy o'sish bo'lib, ishlab chiqarish imkoniyatlarini yangi darajaga ko'tarilishi, resurslar cheklanganligi va alternativ harajatlar muammosining hal etilishidir. Shunday qilib, iqtisodiy o'sish ishlab

chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘ida o‘ngga siljigan (parallel siljishi shart emas) holatda tasvirlanishi mumkin.

**6 (v)** -rasmida iqtisodiy o‘sish AD-AS modeli yordamida tasvirlangan. Iqtisodiy o‘sish potensial YaIM, ya’ni real YaIMni uzoq muddatda o‘sishini bildirar ekan, uni grafikda uzoq muddatdagi yalpi taklifni (LRAS) siljishi va ishlab chiqarish hajmini  $Y_1$  dan  $Y_2$  gacha ortishi ko‘rinishida tasavvur etish mumkin.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini, uning iqtisodiy potensialini baholashda **real YaIM kattaligi** ko‘rsatkichidan keng foydalanilsada, bu absolyut ko‘rsatkich turmush darajasini to‘liq aks ettira olmaydi. Mamlakat rivojini, farovonlik darajasini nisbatan aniq ko‘rsata oladigan ko‘rsatkich **kishi boshiga to‘g‘ri keladigan real YaIM kattaligi** hisoblanadi, ya’ni bunday nisbiy ko‘rsatkich umuman iqtisodda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar miqdori narxiningina emas, balki uning o‘rtacha bir kishiga qancha to‘g‘ri kelishini ko‘rsatib beradi. Gap shundaki, kishilar turmush darajasi ko‘p darajada aholi sonining o‘sish sur’atlariga bog‘liqdir. Bir tomondan mamlakat aholisining soni ishchi kuchi, ya’ni mehnat resurslari miqdorini belgilab beradi. Tabiiyki, aholi soni ko‘p mamlakatlarning, ya’ni masalan AQSh, Yaponiyaning yalpi ichki mahsulot (YaIM) i Lyuksemburg, Niderlandiyaga nisbatan ancha yuqori. Ammo, ikkinchi tomondan, aholi sonining o‘sishi kishi boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM miqdorini kamaytiradi, ya’ni turmush darajasini pasaytiradi. Iqtisodiy o‘sish haqida faqatgina aholi turmush darajasi (farovonligi) oshsagina, ya’ni iqtisodiy rivojlanish aholi soni o‘sishiga nisbatan real YaIMning ko‘proq o‘sishi bilan birgalikda kechgan bo‘lsa gapirish mumkin bo‘ladi. Kishi boshiga to‘g‘ri keluvchi real YaIM darajasi bo‘yicha mamlakatlar o‘rtasida juda katta farq mavjud. Masalan, hozirgi vaqtida AQShda kishi boshiga to‘g‘ri keluvchi real YaIM Bangladeshga solishtirganda 50 marta, Hindistonga nisbatan 30 marta, Xitoyga nisbatan 10 marta ortiq, Kanada va Yaponiya bilan solishtirganda esa deyarli farq qilmaydi. Kishi boshiga to‘g‘ri keluvchi YaIM ko‘rsatkichining oshishi mamlakatda yashovchi bir kishiga tovar va xizmatlar endi borgan sari ko‘proq to‘g‘ri kelishini, farovonlik ortayotganligini bildiradi.

Ammo vaqt o‘tishi bilan kishi boshiga to‘g‘ri keluvchi real YaIM darajasi nisbatli (ranjirlanishi) o‘zgaradi. Sabab, turli mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish tezligi turlich. Iqtisodiy o‘sish tezligi ko‘rsatkichi

iqtisodiy o'sish dinamikasi ko'rsatkichidir, u esa o'z o'rnila qaysi mamlakat tezroq rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish tezligi ma'lum vaqt oralig'ida YaIMning yillik o'rtacha o'sish sur'atlarida yoki kishi boshiga to'g'ri keluvchi yillik o'rtacha YaIM o'sish sur'atlarida ifodalanadi (bunisi aniqroq ko'rsatkich). Real YaIMni kishi boshiga o'sish sur'atlari o'rtasidagi farq juda kattadir. O'rtacha iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqori bo'lishiga erishgan Yaponiya oxirgi 100 yilda oldingi saflarga chiqib olib, o'sishning past sur'atlari tufayli esa Buyuk Britaniya va Argentina o'z mavqe-larini yo'qtdilar.

## **2.Iqtisodiy o'sish turlari va omillari**

Nima uchun ba'zi mamlakatlar boshqalarga nisbatan tezroq rivojlanishini, iqtisodiy o'sishni qanday tezlashtiish mumkinligini, ya'ni davlatlararo va ma'lum vaqt oralig'ida real YaIM (va kishi boshiga to'g'ri keluvchi real YaIM) darajasi va uning o'sish sur'atlarini orasidagi farqni tushunish uchun iqtisodiy o'sishning turlari va omillarini tahlil qilish kerak bo'ladi. Ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshishi va potensial YaIM hajmini o'sishi resurslarning hajmi yoki ular sifati o'zgarishi bilan bog'liq.

Tegishlicha iqtisodiy o'sishni ikki turiga ajratadilar: **ekstensiv** va **intensiv**. Resurslarning o'sishi yoki iqtisodiy omillarni oddiy qo'shish hisobiga bo'ladigan o'sish iqtisodiy o'sishning ekstensiv turiga tegishlidir. Resurslarni sifat jixatidan takomillashishi bilan, ilmiy –texnik taraqqiyot (progress) ning eng yangi yutuqlarini qo'llash bilan bog'liq o'sish esa iqtisodiy o'sishning intensiv turidir.

Bundan kelib chiqib, iqtisodiy o'sishning ikki turiga ikki gurux omillarni ajratadilar:

1) resurslarning soniga ta'sir etuvchi omillar: yer, mehnat, kapital va tadbirkorlik faoliyati. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv turi omillariga quyidagi omillar kiradi: ishchi kuchi miqdorini ko'paytirish; yangi korxonalar qurish; ishlab chiqarish vositalari hajmini oshirish; xo'jalikka qo'shimcha yerlarni jalb etish; yangi yerkarni ochish va foydali qazilmalar qazib chiqarishni ko'paytirish; resurslar miqdorini oshirish imkonini beradigan tashqi savdoni rivojlantirish va bosh-qalar. Ammo bunda ishchilar malakasi va ular mehnati unumtdorligi, ishlab chiqarish vositalari sifati va texnologiya o'zgarmasdan qoladi.

Shuning uchun mehnat va kapital birligiga to‘g‘ri keladigan mahsulotdan olinadigan daromad o‘zgarmasdan qoladi.

2) sifatga ta’sir etuvchi omillar. Iqtisodiy o‘sishning intensiv turi omillari quyidagilar: ishchi kuchi malakasi va kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish; ishlab chiqarishga ishlab chiqarish vositalarini nisbatan takomillashganini qo‘llash; yangi texnologiyalar (birinchi navbatda resurslarni tejaydigan)ni qo‘llash; mehnatni ilmiy tashkil etish; iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishda nisbatan samarali usullarni qo‘llash.

Iqtisodiy o‘sishning intensiv turi omillari ichida jamiyat a’zolaring mavjud bilimlarini oshirish va to‘plashga, yangi bilimlar natijasida erishiladigan ilmiy yangiliklar va kashfiyotlarga, bunday kashfiyotlarni amalga oshirishga asoslangan ilmiy-texnik taraqqiyot (NTP) omili muhim ahamiyatga ega. Aynan ana shu ilmiy -texnik taraqqiyot resurslar sifatini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Resurslar sifatining asosiy iqtisodiy xarakteristikasi ularning unumidorligi hisoblanadi. Mamlakatda aholi turmush darajasini belgilab beruvchi eng asosiy omil-bu mehnat unumidorligidir. Mehnat unumidorligi deb, ishchining bir soat ichida yaratgan tovar va xizmatlar miqdoriga aytildi.

#### **Ishlab chiqarish hajmi**

**Mehnat unumidorligi =** \_\_\_\_\_  
**Ish vaqtি, soatlarda**

Ishchi bir soatda qanchalik ko‘p tovar va xizmatlar ishlab chiqarsa, mehnat unumidorligi shuncha yuqori va real YaIM hajmi katta bo‘ladi. Aholi turmush darajasi mamlakatda yaratilgan tovar va xizmatlar miqdori bilan belgilanadi, yalpi daromad yalpi ishlab chiqarish hajmiga teng, shuning uchun real YaIM qanchalik katta bo‘lsa, turmush, farovonlik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Mehnat unumidorligiga, undan kelib chiqib iqtisodiy o‘sish va uning sur’atlariga quyidagi omillar ta’sir etadi:

**jismoni kapital** (yoki kapital) -bu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun ishlataladigan bino, inshoot, asbob-uskuna va hako-zolar zahirasidir. Shuni aytish kerakki, jismoni kapitalning o‘zi ishlab chiqarish jarayonining mahsulidir. U qanchalik takomillashgan va zamonaviy bo‘lsa, shunchalik ko‘p tovarlar (jumladan investision

tovarlar, ya’ni yangi asbob-uskunalar) va xizmatlar uning yordamida ishlab chiqarish mumkin bo‘ladi.

**mehnat kapitali (insoniy kapital)** – bu o‘qish jarayoni (maktab, kollej, universitet, kasbga tayyorlash va malaka oshirish kurslari) va mehnat faoliyati jarayonida (learning by doing) ishchilarning olgan bilim va mehnat mahoratlardir. Aytish kerakki, inson kapitali jismoniy kapital kabi ishlab chiqarish jarayoni natijasidir va u ham jamiyatning yangi tovar va xizmatlar yaratishdagi imkoniyatini oshiradi.

**tabiiy resurslar** – bu tabiat ato etib ta’minlab beradigan omillar, ya’ni yer, daryolar, foydali qazilmalar va hakozo. Tabiiy resurslar tiklanadigan va qayta tiklanmaydiganga bo‘linadi. Qayta tiklanadiganga o‘rmon resurslari misol bo‘ladi (kesilgan daraxtlar o‘rniga yangilarini ekish mumkin). Tiklanmaydiganlar: neft, ko‘mir, temir rudasi va boshqalar. Ularning tiklanishi uchun ming yoki millionlab yillar kerak bo‘ladi. Tabiiy omillar zahirasi iqtisodiy rivojlanishning juda muhim omili hisoblansada, ularning mavjudligi iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlari va iqtisodiyotning yuqori darajada samarador bo‘lishi uchun asosiy shart hisoblanmaydi. Haqiqatdan ham AQSh iqtisodiy rivojining tez sur’atlari dastavval bo‘sh yerlarning, qishloq xo‘jaligiga yaroqli bo‘lgan yerlarning ko‘pligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Quvayt va Saudiya Arabistonni ko‘plab neft quvurlarini izlab topish va qazib chiqarish evaziga dunyoning eng boy mamlakatlari aylandilar. Ammo, masalan, Yaponiya tabiiy omillarga boy bo‘lmasada, dunyoning yetuk, rivojlangan mamlakatlari qatoridan joy oldi. Janubiy Osiyo mamlakatlari (“Osiyo ajdarholari” deb atalmish davlatlar, ya’ni Gongkong, Tayvan, Janubiy Quriya va Singapur) iqtisodiy o‘sishi sur’atlarining tezligi tabiiy resurslarning ko‘pligi hisobiga sodir bo‘limgan. Tabiiy omillar inson tomonidan ishlab chiqarilmaydigan yagona omildir. Qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar cheklanganligi tufayli jahon iqtisodiyoti o‘sishining chegarasi mavjud degan g‘oyalar keng tarqalgan. Ammo bunday chegarani kengaytirish massalasini texnologik yutuqlar yordamida hal etish mumkin bo‘ladi.

**texnologik bilimlar** – bu ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan eng yaxshi usullarni tushunib yetishdir. Texnologik bilimlarning inson kapitalidan farqi shundaki, texnologik bi-limlar bu usullarni ishlab chiqish va tushunishni ifodalaydi (qanday ishlab chiqarish kerak degan savolga javob beradi), inson kapitalida esa bu usullarni in-

sonlar (ishchi kuchi) tomonidan egallay olish darajasi, bilimlarni mehnat ko'nikmalariga aylantirish tushuniladi. Yangi texnologiyalar mehnatni samaraliroq bo'lishiga, tovar va xizmatlarni ko'proq ishlab chiqarishga imkon yaratadi.

Texnologik bilimlar juda katta ahamiyatga ega, chunki ular:

a) resurslarning cheklanganligi muammosini hal etishga imkon beradi;

b) iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashishining asosiy omili hisoblanadi.

100 yil avvalgi turmushdan hozirgi hayot darajasining yuqoriligi aynan ana shu texnologik bilimlarning mavjudligi sabablidir. Telefon, kompyuter, ichki yonish dvigateli, konveyerlar – tovar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatini oshirgan minglab texnik yangiliklar tarkibiga kiradi.

Shunday qilib, mamlakatda hayot darajasi iqtisodning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish qobiliyati bilan aniqlansa, mehnat unumdarligi jismoniy va inson kapitali, tabiiy resurslar va texnologik bilimlar kattaligiga bog'liqdir.

### **3. Davlat siyosati va iqtisodiy o'sish**

Aholi turmush darajasi va mehnat unumdarligi oshishiga davlatning iqtisodiy siyosati sezilarli darajada ta'sir etadi. Eng avvalo iqtisodiy siyosat orqali davlat jismoniy va inson kapitali kattaliklariga ta'sir etishi mumkin. Agar iqtisodda kapital zahiralar ortib borsa, mamlakatning iqtisodiy potensiali ortadi va kelgusida iqtisod ko'proq tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun agar hukumat unumdarlikni, iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasini oshirishni maqsad qilib qo'ysa, u holda quyidagicha siyosat yuritishi lozim:

**ichki investisiyalar va jamg'armalarni rag'batlantirish.** Iqtisodda kapital zahiralarining o'sishi investisiyalar yordamida amalga oshiriladi. Iqtisodda investisiyalar salmog'i qanchalik yuqori bo'lsa (masalan, Yaponiya, Janubiy Quriyada), iqtisodiy o'sish sur'ati shunchalik yuqori bo'ladi. Kapital zahiralarining o'sishi mehnat unumdarligiga ta'sir etar ekan, u holda iqtisodiy o'sishning asosiy sharti – investisiyalar oshirishdir. Investisiyalar asosini jamg'armalar tashkil etadi. Agar jamiyat kamroq iste'mol qilib, ko'proq jamg'arsa, u holda investisiya uchun ko'proq resursga ega bo'ladi.

**investisiyalarni chet eldan kirib kelishini rag‘batlantirish** (mamlakat kapitaliga aylantirish uchun turli xil cheklashlarni yo‘qotish orqali). Kapital miqdorini ko‘paytirishni faqatgina ichki emas, balki chet el investisiyalari hisobiga amalga oshirish mumkin. Chet el investisiyalarini ikki xili mavjud:

- a) to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar;
- b) portfel investisiyalar.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar-bu chet elliklar boshqaradigan va ular ega bo‘lgan investisiyalardir. Chet el portfel investisiyalar – bu xorijliklar yordamida moliyalashtiriladigan kapital investisiyalardir, masalan ushbu mamlakat firmalari tomonidan ularga tegishli bo‘lgan aksiya va obligatsiyalarni xorijliklarga sotishdan tushgan daromad-portfel investisiyalardir, ammo ular shu mamlakat ishlab chiqaruvchilari (rezidentlari) boshqaruvi ostidadir. Firmalarda xorij kapitali ishtirokida yaratilgan daromadning (xorij firmalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri qilgan investisiyalardan oлган foydasi va portfel investisiyalarning qimmatli qoq‘ozlaridan olingan dividend va foizlari) bir qismi chet elga ketsada, chet el investisiyalar mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta‘minlab beradi, xorijiy moliya manbaalari mamlakatning iqtisodiy salohiyatini, mehnat unumdarligi va ish haqi darajasini oshiradi. Bundan tashqari chet el investisiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarga rivojlangan davlatlarda ishlab chiqilgan va ishlatiladigan eng yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish imkonini beradi.

**ta‘limni rag‘batlantirish.** Ta‘lim berish-bu inson kapitaliga investisiya qilish demakdir. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, AQShda ta‘lim (o‘qish) ga sarflangan har bir yil ishchining o‘rtacha 10% ish haqini oshiradi. Ta‘lim faqat resipient (ya’ni ta‘lim oлган kishi) ning mehnat unumdarligini oshiribgina qolmay, balki musbat tashqi samara (eksternaliya) ni ham ta‘minlab beradi. Tashqi samara biror kishining harakati boshqa bir kishining farovonligiga ta‘sir etishida namoyon bo‘ladi. Ma‘lumotli kishi shunday g‘oyalarni ilgari surishi mumkinki, natijada ular boshqalar uchun foydali bo‘ladi va ta‘limning musbat tashqi samarasini harakat doirasiga tushib qolgan har qanday inson undan foydalanish imkoniga ega bo‘ladi. Bu davlat ta‘limiga tegishli bo‘lgan argumentdir. Buning salbiy tomoni haqida gapirilsa, “aqllarning oqib ketishi” deb nom oлган hodisaga tegishli bo‘lgan oqibatlarni hisobga olsak, u holda kambag‘al, o‘tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlardan nisbatan ma‘lumotli va

malakali mutaxassislarining boy, turmush darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarga emigratsiyasi achinarli hol hisoblanadi.

**tadqiqot va ishlanmalarni rag‘batlantirish.** Yashash darajasining yuqori bo‘lishi asosan texnologik bilimlar tufayli sodir bo‘ladi, ular esa o‘z o‘rnida tadqiqot va ishlanmalardan iboratdir. Vaqt o‘tishi bilan bilimlar umumjamiyat ne’mat bo‘lib qoladi, shuning uchun biz ularni bir vaqtida boshqalar turmush darajasini kamaytirmasdan turib ishlatishimiz mumkin bo‘ladi. Tadqiqot va ishlanmalar grantlar, soliqlarni pasaytirish va patentlar (vaqtinchalik kashfiyotlar uchun huquq berish) orqali rag‘batlantirilishi mumkin.

**xususiy mulkni himoya qilish va siyosiy barqarorlikni ta‘minlash.** Xususiy mulk huquqi deganda, kishilarning o‘zlariga tegishli bo‘lgan resurslarga erkin egalik qilishini tushunmoq lozim. Kishilar ishlashni hoxlashlari, jamg‘arishlari, investisiya qilishlari, savdo bilan shug‘ullanishlari, kashfiyotlar yaratishlari uchun ular o‘zlarini egalik qiladigan mehnat natijalarini o‘g‘irlanmasligiga va barcha kelishilgan bitimlar bajarilishiga ishonishlari kerak. Oz darajada bo‘lsada siyosiy beqarorlik xususiy mulkka bo‘lgan ishonchni kamaytiradi (so‘ndiradi), chunki revolyusion hukumat xususiy mulkni, ayniqsa kapitalni musodara qilishi mumkin bo‘lib qoladi. Iqtisodiy siyosatni barqaror bo‘lishi:

- a) ichki va tashqi investisiyani jalb etish;
- b) intellektual huquqni himoya qilish (u o‘z o‘rnida texnologik taraqqiyot rivojini rag‘batlantiradi) uchun katta ahamiyatga ega.

**erkin savdoni rag‘batlantirish.** Erkin savdo texnologik yangilanishlarga o‘xshashdir. U mamlakatda hamma mahsulotlarni emas, balki boshqa mamlakatlardan o‘scha mamlakatlarda samaraliroq ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan mahsulotlarni sotib olish imkonini yaratadi. Ko‘pincha rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoating yangi tarmoqlarini chet el raqobatchilaridan himoya qilish uchun proteksionistik siyosat, xalqaro savdoni cheklash yoki ta‘qilovchi siyosat yuritish zaruriyatini tug‘iladi. Bunday harakatlar asossizdir, chunki rivojlangan davlatlar bilan savdoni kengaytirish nafaqat rivojlanayotgan davlatlarga mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlab chiqarish harajatlarini iqtisod qilish va ishlab chiqarilishi samarasiz bo‘lganlarini ishlab chiqarmaslik, balki jahonning eng yangi texnik va texnologik yutuqlaridan foydalanish imkonini beradi.

**aholi soni o'sishini nazorat qilish.** Farovonlik oshishi uchun ishlab chiqarish o'sish sur'atlari aholi soni o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lishi kerak. Aholining o'sish sur'atlari boshqa ishlab chiqarish omillarini "nisbatan ingichka" (ya'ni bir ishchiga to'g'ri keladigan) lashtirib, iqtisodning o'sish imkonini kamaytiradi. Aholi sonining keskin o'sishi bir kishiga to'g'ri keladigan kapital sonini pasaytiradi, buning natijasida mehnat unumdarligi va farovonlik darajasi pasayadi. Ayniqsa, aholi sonining o'sishi muammosi insoniy kapitalni tahlil qilganda yuzaga keladi. Aholi sonining tez sur'atlar bilan oshishi, ya'ni unda bolalar, yoshlар hissasining ko'payishi ta'lim tizimida jiddiy qinchiliklarni tug'diradi (ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda).

#### **4. Iqtisodiy o'sishning afzalliklari va kamchiliklari**

Iqtisodiy o'sishning ahamiyati shundaki, u farovonlik darajasini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Uning asosida ijtimoiy dasturlar, kambag'allikni yo'qotish, fan va ta'limni rivojlantirishni amalga oshirish va ekologik muammolarni hal etish bo'yicha shart-sharoitlar yaratiladi. Iqtisodiy o'sish iqtisodning ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshiradi, resurslarning cheklanganligi muammosini hal etish imkonini beradi. Iqtisodiy o'sish tufayli yangi resurslar, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish xilma-xilligi va ko'pligini ta'minlovchi, yashashni sifat jihatidan yaxshilovchi ishlab chiqarish jarayonining yangi samarali texnologiyalari yaratiladi. Ammo uning o'zi ko'pgina iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa ko'pgina muammolarni hal etishga qodir emas.

Bundan tashqari iqtisodiy o'sishning sezilarli **kamchiliklari** mavjud:

**alternativ (muqobil) harajatlar**, ya'ni iqtisodiy o'sishni ta'minlash va kelgusida iste'molni (farovonlikni) oshirish imkoniga ega bo'lish uchun hozirda iste'molning bir qismidan voz kechish zarurligi. Iqtisodiy o'sishning asosi investisiyalar hisoblanadi, bu esa kapital zahiralarini ko'paytirishni ta'minlaydi. Investisiya muammosi-bu vaqtlararo tanlov muammosidir (hozir va kelajak o'rtasida). Bir tomondan, investisiyalarni investision tovarlar (bino, inshoot, asbob-uskunalar) ga qarata ko'paytirish iqtisodni rivojlanishiga, hozirda esa ishlatiladigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishiga yo'naltiriladigan resurslarni kamayishiga olib keladi. Ikkinci tomondan, investisiyalar asosini jamg'armalar tashkil etadi, oxirgisi esa ixtiyordagi daromadning bir qismini tashkil etadi (ID=C+S). Ix-

tiyordagi daromadning mavjud miqdorida investisiyalarni oshirish uchun jamg‘armani ko‘paytirish kelgusida iste’molni ko‘paytiradi, hozirgi kunda esa iste’molni qisqartirishni talab etadi.

**investisiyalar (kapital) dan keladigan daromadni kamayishi bilan bog‘liq harajatlar.** Kapital zahiralarining oshishi bilan qo‘srimcha birlik kapital yordamida ishlab chiqarilgan qo‘srimcha mahsulot kamayadi, ya’ni qo’shimicha kapital kamayadi. Kapital unumdorligining pasayishi tufayli jamg‘arma va investisiyalarning nisbatan yuqoriligi boshlang‘ich davrda iqtisodiy o‘sishga olib keladi, lekin bu o‘sish iqtisod kapital zahiralarini to‘plashni ko‘paytirgan sari asta-sekin tusha boshlaydi. Shunday qilib, jamg‘arma normasi o‘sishi faqatgina iqtisodiy o‘sishni tezlashtirishda vaqtinchalik sara beradi. Bundan kelib chiqib uzoq muddatda jamg‘arma normasining nisbatan yuqori bo‘lishi mehnat unumdorligi va daromadning yuqori bo‘lishiga olib keladi, ammo aslo bu ko‘rsatgichlarning juda tez sur’atlarda o‘sishiga emas. Bu ko‘rsatkichlarning tez sur’atlarda o‘sishini faqat texnologik jarayon yordamida amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, kapital unumdorligining pasayishini nazarda tutadigan bo‘lsak yana bir xulosaga kelish mumkin: kambag‘al mamlakatda kapitalning ma’lum miqdorda ko‘payishi boy davlatda xuddi shunday ko‘payganga qaraganda iqtisodiy o‘sishni ko‘proq darajada oshiradi, ya’ni past darajada rivojlangan mamlakat tezroq iqtisodiy o‘sishga moyil bo‘ladi. Bu hodisa yuqorida ta’kidlanganidek, “tez start effekti” (catch-up-effekt) nomini olgan. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishning texnik ta’minlanganlik darajasi juda yuqori. Shuning oqibatida, ya’ni bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kaptalning oz bo‘lsada o‘sishi mehnat unumdorligining juda oz miqdorda oshishiga olib keladi. Shuning uchun bir xil hajmdagi YaIMni investisiyaga yo‘naltirilganda, kambag‘al mamlakatlar boy mamlakatlarga qaraganda yuqoriroq rivojlanish sur’atlariga erishadilar. Masalan, oxirgi 30 yil ichida AQSh va Janubiy Quriya YaIMni deyarli bir xil qismini investisiya qilganlar. Ammo YaIM AQSh da o‘rtacha 2%ga, Janubiy Quriyada esa 6%ga oshdi.

**atrof-muhitni ifloslanishi bilan bog‘liq harajatlar.** Iqtisodiy o‘sishning doimiy yuqori darajadagi sur’atlarini faqatgina kashfiyot va ilmiy yangiliklarga asoslangan texnologik taraqqiyot tufayli amalga oshirish mumkin. Ammo ko‘pgina kashfiyotlar va yangiliklar (ichki yonuv dvigateli, reaktiv dvigatel, plastmassa, sintetik tolalar,

kimyoviy o‘g‘itlarni ishlab chiqarish, atom energiyasi) ni amalda qo‘llash bir tomondan iqtisodiy o‘sishni, farovonlikni oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan atrof-muhitni ifloslanishiga, shuningdek ekologik halokat tahdidiga olib keldi (bunda paradoks shundaki, eko-logik muammolarni hal etish faqatgina texnologik taraqqiyotni rivo-jlantirish tufayli hal etilishi mumkin).

#### **Mavzu №4 bo‘yicha savollar:**

1. *Iqtisodiy o‘sish deganda nimani tushunmoq lozim?*
2. *Iqtisodiy o‘sishning makroiqtisodiy nazariyasi qanday masala-larni hal etishga qaratilgan?*
3. *Grafik ko‘rinishda iqtisodiy o‘sishni uch xil usulda tasvirlab tu-shuntiring.*
4. *Qanday iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarini bilasiz?*
5. *Iqtisodiy o‘sishning ekstensiv va intensiv turlarini tushuntiring.*
6. *Qanday iqtisodiy o‘sish omillari mavjud?*
7. *Iqtisodiy o‘sishga erishish uchun davlat qanday siyosat yuritishi lozim?*
8. *Iqtisodiy o‘sishning afzalliklari va kamchiliklarini tushuntiring.*

## Iqtisodning davriy tebranishi

### Mavzuda ko‘rib chiqiladigan savollar:

1. *Iqtisodning davriy tebranishi va uning fazalari*
2. *Iqtisodiy tebranishlar sabablari*
3. *Iqtisodiy tebranishlar ko‘rsatkichlari*
4. *Iqtisodiy tebranishlar turlari*

### Tayanch iboralar

Iqtisodning davriy tebranishi, yuksalish, pasayish, cho‘qqi, tub (eng quyi) nuqta, iqtisodiy faollik, resessiya, depressiya, trend, iqtisodiy inqiroz, stagnatsiya, yalpi talab, yalpi taklif, ishsizlik, infliyatsiya, yalpi daromadlar, yalpi harajatlar, qisqa muddatli foiz stavkasi, uzoq muddatli foiz stavkasi, iste’mol harajatlari, investisiya harajatlari, davlat transfert to‘lovlari, umumiy narx darajasi, soliq tushumlari, davlat byudjeti defisiti, davlat byudjeti profisiti, ishlab chiqarishning qisqarishi, iqtisodiy o’sish sur’ati ko‘rsatkichi, real YalM, potensial YaIM, iqtisodiy tebranish turlari, Kondratev to‘lqinlari, nosiklik tebranishlar.

### Adabiyotlar

1. Karimov I. A. *O’zbekiston islohatlarni chuqurlashtirish yo’lida. T. «O’zbekiston», 1995 y.*
2. Karimov I. A. *O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li» T., «O’zbekiston», 1992 y.*
3. *Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. Akad. Vidyanina V. I. i dr. Gl. redaksiya IPK «Shark» 1992 g.*
4. Agapova T. A., Seregina S. F. *Makroekonomika. Moskva – Ufa, 1995 g.*
5. Makkonell K. Bryu S. *Ekonomiks t. 1-2 M.: «Respublika» 1992 g.*
6. 3. M. Hakimova. *«Makroiqtisodiyot», Toshkent – «Mehnat» – 1997 y.*
7. N. Tuxliev. *O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti Davlat ilmiy nashriyoti, 1998 y.*

### 1. Iqtisodning davriy tebranishi va uning fazalari

Amalda iqtisodiyot iqtisodiy o’sishni xarakterlovchi to‘g’ri chiziq (trend) bo‘yicha rivojlanmaydi. Aksincha, trenddan doimiy uzilishlar, pasayishlar va yuksalishlar kuzatiladi. Iqtisod siklik (davriy) ravishda rivojlanadi. (7-rasm). Iqtisodiy (yoki biznes) sikl

(business cycle) iqtisodda vaqtı-vaqtı bilan bo‘ladigan pasayishlar va yuksalishlarni ya’ni, iqtisodiy faollik tebranishlarini namoyon etadi. Bu tebranishlar bir maromda kechmaydi va ularni oldindan bashorat qilib bo‘lmaydi, shuning uchun ham “sikl” iborasi shartlidir. Siklning odatda 2 ekstrimum nuqtasi ajratiladi (7-a rasm):


cho‘qqi (yoki eng yuqori) nuqta (peak), u iqtisodiy faollikning maksimumiga to‘g‘ri keladi.

tub (yoki eng quyi) nuqta, u iqtisodiy faollikning minimumiga to‘g‘ri keladi. (maksimal pasayishiga).


Sikl, odatda, 2 fazaga ajratiladi:

1) pasayish fazasi va resessiya (recession), u cho‘qqidan eng quyi nuqtagacha davom etadi. Uzoq davom etadigan va chuqur pasayish depressiya (depression) deyiladi. Shuning uchun ham 1929-1933 yillardagi krizis “Buyuk depressiya” nomini oldi.

2) o’sish yoki jonlanish fazasi (recovery), u quyi nuqtadan cho‘qqigacha davom etadi.



a) rasm



b) rasm

#### 7-rasm Iqtisodiy siklning ko‘rinishlari

Boshqa bir qarashga ko‘ra, iqtisodiy siklda 4 faza ajratiladi (7-b rasm), lekin bunda ekstrimum nuqtalar ajratilmaydi. Unda taxmin qilinishicha, iqtisod iqtisodiy aktivlikning maksimum yoki minimumiga erishganda, u ma’lum bir muddat (ba’zida uzoq vaqt davomida) shu holatda turadi:

1) I-faza – bum (boom), bunda iqtisod maksimal faollikka erishadi. Bu yuqori darajada bandlilik (iqtisod potensial ishlab chiqarish hajmidan, ya’ni trend darajasidan yuqorida bo‘ladi) va yuqori darajadagi inflyatsiya davridir. Chunki iqtisodda haqiqiy YalM potensial YalMdan yuqori bo‘lsa, bu inflyatsion uzilishga to‘g‘ri keladi. Iqtisod bu holatda “qizib ketgan” (“overheated”) nomini oladi.

2) II-faza pasayish (recession yoki slump). Iqtisod asta-sekin trend darajasi (potensial YaIM) ga qaytadi, iqtisodiy faollik darajasi pasayadi, haqiqiy YaIM o'zining potensial darajasiga yetadi, undan keyin trenndan pastga tusha boshlaydi va bu keyingi faza – inqirozga olib keladi.

3) III-faza – inqiroz (crisis) yoki stagnatsiya (stagnation). Haqiqiy YaIM potensial YaIMdan past bo'lgani uchun iqtisod resession uzilish holatiga keladi. Bu iqtisodiy resurslardan to'laligicha foydalanmaslik, ya'ni yuqori darajadagi ishsizlik davri.

4) IV-faza – jonlanish va o'sish. Iqtisod asta-sekin inqirozdan chiqa boshlaydi, haqiqiy YaIM o'zining potensial darajasiga yaqinlasha boshlaydi, keyin esa o'z maksimumiga erishguncha oshib boradi va bu yana bum fazasiga olib keladi.

## **2.Iqtisodiy tebranishlar sabablari**

Iqtisodiy nazariyada iqtisodiy tebranishlarning bir qancha sabablar ko'rsatiladi:

Quyoshdagi dog'lar va quyosh aktivligi darajasi, urushlar, inqiloblar va harbiy to'ntarishlar; prezident saylovlari; iste'molning yetarlicha bo'lmaganligi; aholi o'sishining yuqori sur'atlari; investorlarning optimistik yoki pessimistik kayfiyatları; pul taklifining o'zgarishi; texnik va texnologik yangiliklarning hayotga tadbiq etilishi; narx shoklari va boshqalar.

Amalda esa yuqoridagi barcha sabablarni bitta asosiy sabab sifatida, ya'ni yalpi talab va yalpi taklif, yalpi harajatlar va yalpi ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi nomutanosiblik deb qarash mumkin.

Iqtisod rivojlanishining siklik xarakteri quyidagicha tushuntiriladi: yoki yalpi taklif o'zgarmagan holda yalpi talabning o'zgarishi (yalpi harajatlarning o'sishi yuksalishga, ularning pasayishi resessiyaaga olib keladi) yoki yalpi talab o'zgarmagan holda yalpi taklifning o'zgarishi (yalpi taklifning kamayishi iqtisodiy pasayishni, uning ortishi esa yuksalishni nazarda tutadi).


L'avriy tebranishning sababchisi yalpi talab (yalpi harajatlar) bo'lganda, siklning turli fazalarida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini ko'rib chiqamiz 8 (a) -rasm.

Bum fazasida shunday vaqt keladiki, bunda ishlab chiqarish hajming hammasi ham sotilmay qoladi, ya'ni yalpi harajatlar ishlab chiqarishdan kam bo'ladi. Bunda zahiradagi tovarlar soni oshib ketadi va bu ishlab chiqarish qisqarishiga olib keladi. Ishlab chiqar-

ishning qisqarishi natijasida firmalar ishchilarni ishdan bo'shatishga majbur bo'ladilar va bu ishsizlik darajasini oshishini bildiradi. Natijada yalpi daromadlar kamayadi (iste'mol daromadi – ishsizlik natijasida, investisiya daromadlari – yalpi talab tushishi sharoitida ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadga muvofiq emasligi natijasida) va o'z o'mida, yalpi harajatlar ham kamayadi. Uy xo'jaliklari, birinchi o'rinda, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga talabni kamaytiрадilar. Firmalarning investisiyalarga va uy xo'jaliklarining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga talablari tushishi natijasida qisqa muddatli foiz stavkasi pasayadi (investision va iste'mol kreditining narxi). Uzoq muddatli foiz stavkasi odatda o'sadi (daromadlar pasayishi va naqd pul yetishmasligi sharoitida odamlar obligatsiyalarini sota boshlaydilar, obligatsiya taklifi o'sadi, ularning narxi qancha past bo'lsa, foiz stavkasi shuncha yuqori bo'ladi). Yalpi daromadlarning kamayishi (soliq solinuvchi baza) natijasida davlat byudjetiga soliq tushumlari kamayadi. Davlat transfert to'lovlari miqdori oshadi (ishsizlik va kambag'allik bo'yicha nafaqalar). Davlat byudjeti defisiti oshadi. O'z mahsulotini sotishga harakat qilib, firmalar uning narxini tushirishi mumkin, bu umumiylar narx darajasini tushishiga olib kelishi mumkin, ya'ni deflyatsiyaga, 8 (a) -rasm, bunda ishlab chiqarish qisqaradi, narxlar darajasi  $P_0$  dan  $P_1$  ga tushadi.

O'z mahsulotlarini hatto pastroq narxlarda ham sota ololmaslikka duchor bo'lgan firmalar (rasional harakat qiluvchi iqtisodiy agentlar sifatida) yo ishlab chiqarish unumdorligi yuqoriqoq bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini sotib oladilar va xuddi shu tovarning ishlab chiqarilishini (faqat ozroq harajatlar bilan) davom ettiradilar, bu mahsulotning narxini foydani kamaytirmay turib pasaytirish imkonini beradi (bunday yo'lni tutish ishlab chiqarilayotgan tovarlarga talab to'yinmaganda maqsadga muvofiq bo'ladi va kam daromadlar sharoitida narxlar pasayishi ishlab chiqarish hajmlari o'sishiga imkoniyat yaratadi) yoki (agar ishlab chiqarilayotgan tovarlarga talab to'liq to'yingan bo'lsa va hatto narxlar tushishi ishlab chiqarish hajmlari oshishiga olib kelmasa) yangi tovar turini ishlab chiqarishga o'tish, bu esa texnik jihatdan ishlab chiqarishni yangilanishini, ya'ni eski asbob-uskunalarini prinsipial boshqa yangi asbob-uskunalar bilan almashtirilishini nazarda tutadi. Ikkala holda ham investision tovarlarga talab oshadi va bu investision tovarlarni ishlab chiqaradigan sohalardagi ishlab chiqarishning kengayishiga rag'bat bo'ladi. U sohalarda jonlanish boshlanib, bandlik oshadi, firmalar foydalari oshadi, yalpi daromadlar ko'payadi. Daromadlarning oshi-

shi iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sohalarda talabni oshiradi va u sohalarda ishlab chiqarish kengayishiga olib keladi. Jonlanish, bandlikning oshishi (ishsizlikning kamayishi) va daromadlar ortishi butun iqtisodni qamrab oladi. Iqtisodda yuksalish boshlanadi. Investisiyalarga va uzoq muddat foydalilaniladigan tovarlarga talabning oshishi kreditning qimmatlashuvi, ya'ni qisqa muddatli foiz stavkasi oshishiga olib keladi. Uzoq muddatli foiz stavkasi pasayadi, chunki obligatsiyalarga talab oshadi va natijada qimmatbaho qog'ozlar (bozor kursi) narxining oshishi yuz beradi. Narxlar ko'rsatkichi o'sib boradi. Soliq tushumlari ortadi. Transfert to'lovlari qisqaradi. Davlat byudjeti defisiti kamayadi va profisit paydo bo'lishi ham mumkin. Iqtisodda ko'tarilish, iqtisodiy faollikning o'sishi bum, yoki iqtisodiyotning qizib ketishiga aylanib ketadi ( $Y_2$  8 (a) - rasmda) va bundan keyin navbatdagi tushish boshlanadi. Shunday qilib, iqtisodiy sikl asosini investision harajatlarning o'zgarishi tashkil etadi. Investisiyalar yalpi talabning (yalpi harajatlarning) eng bar-qaror bo'limgan qismi hisoblanadi.



(a) rasm  
8-rasm Siklining AD – AS modeli orqali tasvirlanishi  
(b) rasm

8-rasmda sikl AD-AS modeli yordamida grafik tarzda ko'rsatilgan. 8 (a) - rasmda yalpi talab (yalpi harajatlar) ning o'zgarishi bilan bog'liq iqtisodiy sikllar ko'rsatilgan, 8 (b) -rasmda yalpi taklif (yalpi ishlab chiqarish) ning o'zgarishi bilan bog'liq iqtisodiy sikllar ko'rsatilgan.

Iqtisodda tushish yalpi talab (yalpi harajatlar) qisqarishi bilan emas, balki yalpi taklifning kamayishi bilan bog'liq bo'lsa, aksariyat ko'rsatkichlar xuddi 1-holatdagidek bo'ladi (real YAM, ishsizlik darajasi, yalpi daromadlar kattaligi, firmalar zahirasi, ishlab chiqarish hajmi, soliq tushumlari, transfert to'lovlari hajmi va boshqalar). Umumiy narx ko'rsatkichigina bundan mustasno, u tushish chuqr-

ligi bilan o'sib boradi (8 (b) -rasm). Bu «stagflyatsiya» holati – bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqarish ( $Y_0$  dan  $Y_1$  ga) ning tushishi va narx darajasi ( $P_0$  dan  $P_1$  ga) ortishi. Bunday tushishdan chiqishning asosini ham investisiyalar tashkil etadi, chunki ular iqtisodda kapital zahirasini ko'paytiradilar va yalpi taklif o'sishiga sharoit yaratadilar (SRAS<sub>1</sub>, egri chizig'i SRAS<sub>0</sub> gacha o'ngga suriladi).

### 3. Iqtisodiy tebranishlar ko'rsatkichlari

Sikl fazalarining asosiy indikatori bo'lib iqtisodiy o'sish sur'ati ko'rsatkichi (rate of growth-g) sanaladi, u protsentlarda ifodalanadi va

$$g = [Y_t - Y_{t-1}] / Y_{t-1} * 100\%$$

formula yordamida hisoblanadi,

bu yerda:

$Y_t$  – joriy yil real YaIM;

$Y_{t-1}$  – o'tgan yilning real YaIM.

Shunday qilib, bu ko'rsatkich real YaMMning har bir keyingi yili oldingisiga nisbatan foizdagi o'zgarishini xarakterlaydi, ya'ni aslida o'sish (growth) sur'atini emas, balki YaMMning oshib borish (qo'shilish) sur'ati. Agar bu miqdor musbat bo'lsa, bu iqtisod o'sish fazasida ekanligini anglatadi, agar u manfly bo'lsa, tushish fazasini bildiradi. Bu ko'rsatkich bir yil muddatga hisoblanadi va iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini xarakterlaydi, ya'ni qisqa muddatli (har yilgi) amal-dagi YaIMning tebranishlarini ifodalaydi. U yilning o'rtacha o'sish sur'atlari, ya'ni iqtisodiy o'sish tezligi uchun hisoblanadigan potensial YaIM o'shining uzoq muddatli tendensiyasidan farq qiladi.

Turli fazalarda iqtisodiy miqdorlar harakatiga bog'liq ravishda quyidagi ko'rsatkichlar ajratib ko'rsatiladi:

prosiklik, ular ko'tarilish fazasida oshib, tushish fazasida kamayadi (real YaIM, yalpi daromadlar miqdori, sotuv hajmi, firmalar daromadi, soliq tushumlari miqdori, transfert to'lovlar hajmi, import hajmi);

kontrsiklik, ular tushish fazasida oshib, ko'tarilish fazasida kamayadilar (ishsizlik darajasi, firma zahiralari miqdori);

asiklik, ular siklik xarakterga ega emas va ularning miqdori sikl fazalariga bog'liq emas (eksport hajmi, soliq stavkasi, amortizatsiya normasi).

#### **4. Iqtisodiy tebranishlar turlari**

Iqtisodiy tebranish davomiyligiga ko'ra, bir nechta turlarga bo'linadi:

yuz yillik iqtisodiy tebranishlar, yuz va undan ko'p yil davom etadi;

"Kontdratev" iqtisodiy tebranishlari, 50-70 yil davom etadi. U buyuk rus iqtisodchisi N. D. Kontdratev sharafiga nomlangan. U "iqtisodiy kon'yukturaning uzun to'lqinlari" nazariyasini ishlab chiqdi. (Kontdratev eng buzg'unchi inqirozlar "uzun to'lqinli sikl" va klassik sikl iqtisodiy aktivliklarning maksimal tushish nuqtalari mos kelganda sodir bo'ladi deb hisoblagan; masalan, 1873 yil inqirozi, 1929-1933 yillar Buyuk Depressiya, 1974-1975 yillar stagflyatsiyasi).

Klassik iqtisodiy tebranishlari, 1-“klassik” inqiroz (ishlab chiqarish inqirozi) 1825 yil Angliyada sodir bo'lgan, 1856 yildan esa bunday inqirozlar jahon miqyosigacha ko'tarildi), ular 10-12 yil davom etadi va asosiy kapital, ya'ni asbob-uskunalarining yoppasiga yangilanishi bilan bog'liq (asosiy kapitalning ma'naviy eskirishining o'sib borishi ma'nosida bugungi kunda bunday iqtisodiy tebranish-laning davomiyligi qisqardi).

Kitchin iqtisodiy tebranishlari, davomiyligi 2-3 yil.

Iqtisodiy tebranishlarning bir necha turlarga ajralishi iqtisodda fizik kapitalning turli xillari amalga oshishi davomiyligiga asoslanadi. Shunday ravishda yuz yillik iqtisodiy tebranishlar ilmiy kashfi-yotlar va yangiliklar yuzaga kelishi bilan bog'liq, ular ishlab chiqarish texnologiyasida haqiqiy to'ntarishni amalga oshiradilar. (masalan, "bug'asri" "elektr asri"ga, so'ngra esa "elektronika avtomatika" asriga o'tganligini eslaylik). Kontdratev uzun to'lqinli iqtisodiy tebranishlari asosida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish bino va inshootlarining xizmat davri davomiyligi (fizik kapitalning passiv qismi) yotadi. Taxminan 10-12 yildan so'ng asbob-uskunalarining fizik yemirilishi amalga oshadi (fizik kapitalning aktiv qismi) va bu "klassik" iqtisodiy tebranishlarning davomiyligini tushuntirib beradi.

Hozirgi sharoitda asbob-uskunalarining almashtirilishi uchun uning fizik emas, ma'naviy yemirilishi birlamchi ahamiyatga ega. Ma'naviy eskirish ishlab chiqarish quvvati yuqoriroq, mukammalroq asbob-uskunalarining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Yangi texnika va texnologiya hozirda 4-6 yil muddatda paydo bo'layotganligi uchun iqtiso-

diy tebranish davomiyligi qisqaroq bo'lmoqda. Bundan tashqari, ko'pgina iqtisodchilar iqtisodiy tebranish davomiyligini uzoq muddat foydalaniладigan tovarlar iste'molchilar tomonidan keng miqyosda, har 2-3 yil muddatda yangilanishi bilan bog'laydilar.

Zamonaviy iqtisodiyotda iqtisodiy tebranish fazalari davomiyligi va tebranishlar amplitudasi turli xil bo'lishi mumkin. Bu, birinchi o'rinda inqiroz sababiga bog'liq, shu bilan birga turli mammakatlardagi iqtisod hususiyatlari: davlat aralashuvi darajasi, iqtisodni tartibga solish xarakteri, xizmat sohasining ulushi va rivojlanish darajasi (noishlab chiqarish sohasining), ilmiy-tehnik inqilobning rivojlanish sharoitlari va qo'llanishiga bog'liq.

Siklik tebranishlarni notsiklik tebranishlardan ajrata bilish muhim. Iqtisodiy tebranish uchun barcha ko'rsatkichlarning o'zgarishi, siklning barcha sohalarini qamrab olishi xarakterli. Nosiklik tebranishlar quyidagilarda aks etadi:

ishi mavsumiy xarakterga ega ba'zi sohalardagina iqtisodiy aktivlikning o'zgarishi (iqtisodiy faollikning o'sishi, masalan, kuzda hosil terimi paytida qishloq ho'jaligida, bahor va yozda qurilishda; shu sohalarda iqtisodiy tebranishlarning tushishi)

faqat ba'zi iqtisodiy agentlarninggina o'zgarishida (masalan, bayram oldida chakana savdoda savdo hajmlarining keskin o'sishi va mos sohalarda iqtisodiy faollikning o'sishi).

### **Mayzu № 5 bo'yicha savollar:**

1. Iqtisodiy sikel nima va uning qanday fazalarini bilasiz?
2. Iqtisodiy sikel fazalarini grafik ko'rinishini tushuntiring.
3. Iqtisodiy tebranishlar sabablari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?
4. Davriy tebranishning sababchisi yalpi talab (yalpi harajatlar) bo'lganda, siklning turli fazalarida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini tushuntirib bering.
5. Davriy tebranishning sababchisi yalpi taklif (yalpi harajatlar) bo'lganda, siklning turli fazalarida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini tushuntirib bering.
6. Iqtisodiy tebranishlar ko'rsatkichlari.
7. Iqtisodiy tebranishlar turlari.
8. Siklik tebranishlarni nosiklik tebranishlardan farqini tushuntirib bering.

## **Makroiqtisodiy beqarorlik: ishsizlik va inflyatsiya**

### **Mavzuda ko‘riladigan savollar**

1. *Ishchi kuchi va undan foydalananish darajasini ifodalaydigan ko‘rsatkichlar.*
2. *Ishsizlik ko‘rinishlari.*
3. *Ishsizlikning tabiiy darajasi (to‘la bandlik) va iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensiali.*
4. *Ouken qonuni.*
5. *O‘zbekistonda mehnat bozorini tashkil etish va tartibga solish asoslari.*
6. *Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari. Talab va taklif inflyatsiyasi.*
7. *Inflyatsiya turlari.*
8. *Inflyatsiyaning o‘lchanishi.*
9. *Inflyatsiyaning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlariga ta’siri.*
10. *Inflyatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlig. Fillips egri chizig‘i.*

### **Tayanch iboralar**

Ishchi kuchi, ishsizlik, bandlik, ishsizlikning tabiiy darajasi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensiali, mehnat bozori, inflyatsiya, giperinflyatsiya, stagflyatsiya, friksion ishsizlik, davriy ishsizlik, strukturaviy ishsizlik, YaMMning potensial hajmi, YaMMning haqiqiy hajmi, Ouken qonuni, inflyatsiya, 70 miqdor qonuni, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi va boshqalar.

### **Adabiyotlar**

1. *Karimov I. A. O‘zbekiston islohatlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T., «O‘zbekiston», 1995 y.*
2. *Karimov I. A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» T., «O‘zbekiston», 1992 y.*
3. *Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. Akad. Vidyanina V. I. i dr. Gl. redaksiya IPK «Shark» 1992 g.*
4. *Agapova T. A., Seregina S. F. Makroekonomika. Moskva – Ufa, 1995 g.*
5. *Alimov A., Hamedov I. O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T.: «O‘AJBNT» Markazi, 2004y., 491 bet.*
6. *Makkonell K. Bryu S. Ekonomiks t. 1-2 M.: «Respublika» 1992 g.*
7. *M. Hakimova. «Makroiqtisodiyot», Toshkent – «Mehnat» – 1997 y.*

## **1. Ishchi kuchi va undan foydalanish darajasini ifodalaydigan ko'rsatkichlar**

Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda aholining mehnatga layoqatli yoshdagi, uni tarkibiga kiruvchi ishlayotgan va ishsizlarning umumiy soni tushuniladi.

Ishchi kuchlarining miqdori va sifati, uni jinsiy, yosh va kasb tarkibi mamlakatning iqtisodiy imkoniyatiga va undan samarali foydalanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Boshka tomondan, ularning o'zi ham ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojalanish darjasni va xususiyati ta'siri ostida buladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi ham boshqa mehnat mahsullari kabi tovar shakliga ega bo'lib, tovar – pul munosabatlariiga faol jalb qilinadi. Uning bu xususiyati mehnat ko'rsatkichlari tizimida o'z aksini topadi. Ular orasida ish bilan **bandlik** va **ishsizlik** ko'rsatkichlari muhim o'rinnajratiladi. Bu ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, barcha aholi uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga – 16 yoshgacha bo'lgan bolalar hamda maxsus muassasalarda saqlanayotgan shaxslar kiradi. Masalan, ruhiy kasalliklar shifoxonasida, ahloq tuzatish muassasalarida bo'lganlar. Aholining bu qismi daromad keltiruvchi ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullana olmaydi.

### **Ishchi kuchi, bandlik, ishsizlik**

4-jadval (shartli raqamlarda)

Mln. kishi

A. Aholi – jami	30
Shu jumladan:	
1. 16 yoshga to'imaganlar va maxsus mussasalardagi shaxslar	10
2. Ishchi kuchi tarkibidan chiqib ketganlar	8
3. Ishchi kuchi (A-1-2)	12
Ulardan: ishlayotganlar yoki band bo'lganlar	11, 4
Ishsizlar	0, 6

Ikkinchi guruhga ishlashi mumkin, lekin bir qator sabablarga ko'ra ishlay olmaydigan va ishlashni istamaydigan aholi kiradi, ularga o'quvchilarni, nafaqaxo'rlarni, uyda ishlovchilarni kiritish mumkin.

Uchinchi guruh yoki qolgan barcha aholi ishchi kuchlarini tashkil etib, o'z navbatida ishlayotganlar va ishsizlarga bo'linadi.

**Ishlayotgan yoki band bo‘lgan aholi deb, mehnatga layoqatli yoshdagi ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan aholiga aytildi. Shartli ravishda ularning tarkibiga to‘liqsiz ish kuni bilan band bo‘lganlar ham kiritiladi.**

**Ishsizlar** – bu ishchi kuchlarining bir qismi bo‘lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lmagan, lekin ishlashni xohlovchi va ish qidirayotganlardir.

Har bir mamlakat ishlayotganlarni va ishsizlarni o‘zining qonunchiligida belgilab qo‘yilgan me’yorlarga muvofiq hisobga oladi.

**Ishsizlik darajasi** iqtisodiyotda ishchi kuchlaridan foydalanish darajasini ifodalab quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{Ishsizlar soni}}{\text{Ishchi kuchi}} \times 100\% \text{ yoki } \frac{0,6}{12} \times 100\% = 5\%$$

## **2. Ishsizlik ko‘rinishlari**

Ishsizlik yoki ishchi kuchlarini ish bilan band bo‘lmasligi ishlovchini ish joyiga majburan biriktirib qo‘yilmagan har qanday mamlakatda yuzaga keladi. Mehnat yoshidagi insonni eski ish joyidan mahrum bo‘lishiga va yangi ish joyi izlashiga ko‘plab sabablar mavjud. Ishsizlikni bir necha turlarga: **friksion, strukturaviy va davriy ishsizlikka ajratiladi.**

**Friksion ishsizlik** - ish qidirish yoki kutish bilan bog‘liq bo‘lib, bunda xodimlar ish axtaradilar yoki orada ish bilan band bo‘lmaslik bo‘lib, ish va turar joyini o‘zgarishi natijasida, shuningdek, o‘quv yurtlarini yoki mavsumiy ishlarni tugallanishi sababli yuzaga keladi. U doimo mavjud bo‘lib, ma’lum bir darajada kerakli deb hisoblanadi. Chunki ko‘pchilik ishchilar keyinroq yanada daromadli va unumli yumushni topadilar. Boshqacha aytganda, friksion ishsizlik ishchi kuchlarini samarali taqsimlanishiga va shu yo‘l bilan iqtisodiy o‘sishiga ko‘maklashgan bo‘ladi.

**Strukturaviy ishsizlik** ishchi kuchlari talabi tarkibidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, majburiylik xususiyatiga ega. Inson ehtiyojlarini doimiy o‘sib borishi va fan-texnika taraqqiyoti eski tarmoqlarni yo‘qolib borishiga, hamda yangilar paydo bo‘lishiga, natijada iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, ishchi kuchlariga bo‘lgan talabning tarkibini o‘zgartiradi,

xodimlar ixtisosini va malakasini o‘zgarishini talab qiladi. Bunga esa ma’lum vaqt kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham mehnat bozoridagi muvozanatning bunday buzilishi uzoqroq davom etadi va strukturaviy ishsizlik jiddiy muammo hisoblanadi. Ammo u friksion ishsizlik kabi har qanday rivojlanayotgan iqtisodiyotda muqarrardir.

**Davriy ishsizlik** ishlab chiqarishning tushib ketishi va ishchi kuchlariga talab yetarli emasligi natijasida kelib chiqadi. Davriy pasayish tovar va xizmatlarga bo‘lgan yalpi talabni pasayishini, shunga muvofiq yalpi taklifning kamayishini, oqibatda aholini ish bilan bandligini qisqarishini va ishsizlikning o‘sishini bildiradi.

Modomiki, jamiyatda friksion va strukturaviy ishsizlik muqarrar ekan, to‘liq bandlik ishsizlikni mutlaq yo‘qligini bildirmaydi va domo ishchi kuchini 100% dan kam deb hisob qilib kelinadi.

Boshqa o‘tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari kabi, O‘zbekistoniga ham, ishsizlikning yuqorida sanab o‘tilgan ko‘rinishlari taalluqlidir. Ayniqsa, strukturaviy ishsizlik o‘ta muhim muammoga ayланмоқда. Chunki respublika iqtisodiyotida ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishga yo‘naltirilgan yirik tarkibiy siljishlar amalga oshirilmoqda, hamda umumittifoq mehnat taqsimoti natijasida haddan ziyod keng tarqalgan tarmoqlar yoki eskilar qisqartirilmoqda.

### **3. Ishsizlikning tabiiy darajasi (to‘la bandlik) va iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensiali**

**Ishsizlikning tabiiy yoki me’yordagi darajasi** - bu aholini ish bilan to‘liq bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasidir. U sodir bo‘lishi mumkin, qachonki ishchi kuchi bozori muvozanatlashgan bo‘lsa, ya’ni ish qidiruvchilar soni bo‘sh ish joylari soniga muvofiq kelsa. Bunday holatda mavjud bo‘lgan barcha ishlab chiqarish quvvatlari to‘liq harakatga keladi.

Iqtisodiyotda ishchi kuchining tabiiy darajasi ijobiy hodisa sifatida qabul qilingan, chunki friksion va strukturaviy ishsizlikda ishdan mahrum bo‘lgan shaxslarga maqbul keladigan yangi ish joyini topish uchun ma’lum vaqt kerak bo‘ladi. Bu davrda ular mehnat bozoriga taz’iyq ko‘rsatmaydi. Faqat ishchi kuchi taklifida bozor talabini yanada to‘liqroq hisobga olishga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlar bo‘ladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi yoki to‘liq bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasi friksion va strukturaviy ishsizlik darajalarining yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

Odatda ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan yuqori va ishlab chiqarish quvvatlari to‘liq ishlatalmaydi. Ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiy resurslardan to‘liq foydalanmaslik holatlari mavjud. Ammo, kamdan – kam paytlarda, masalan urush harakatlari ketayotgan davrda, iqtisodiy resurslar, shu jumladan ishchi kuchiga talabning keskin o‘sib ketish natijasida ular ishlab chiqarishga to‘liq safarbar qilinadilar va natijada ishsizlikning tabiiy darajasidan past bo‘lgan ishsizlik holati paydo bo‘ladi.

Ihsizlikning tabiiy darajasi doimiy miqdor deb hisoblanmaydi. Har bir mamlakatda friksion va strukturaviy ishsizlik ko‘lami iqtisodiy vaziyatning me’yoriy - huquqiy asoslarning aholi turmush tarzining o‘zgarishiga bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Hozirgi vaqtida ishsizlikning tabiiy darajasi 6-7% atorofida qabul qilingan bo‘lsada, biroq, bu foizlar turli mamlakatlar bo‘yicha tebranib turishi mumkin.

Barcha mavjud resurslardan to‘liq foydalanish yoki ishsizlikning tabiiy darajasi holatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo‘lgan mahsulot hajmini **iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensiali** deb ataladi. Odatda mahsulotni haqiqiy ishlab chiqarilishi hajmi potensial ishlab chiqarilishi bilan teng bo‘lmaydi: iqtisodiy pasayish davrida u potensial hajmdan past, iqtisodiy ko‘tarilishlar davrida, aksincha, barcha ishlab chiqarish omillaridan maksimal foydalanish natijasida yuqori bo‘ladi.

Mahsulotni potensial va haqiqiy ishlab chiqarilishi o‘rtasidagi farq **YaMM hajmining uzilishi** yoki orqada qolishi deb ataladi. U potensial ishlab chiqarishga nisbatan foizda aks etadi.

$$\text{YaMM uzilishi} = \frac{\text{Maxsulotning potensial ishlab chiqarilishi}}{\text{Maxsulotni potensial ishlab chiqarilishi}} \times 100\%$$

#### 4. Ouken qonuni

Milliy mahsulotning haqiqiy va potensial hajmi teng bo‘lganligi ishsizlikning tabiiy darajasi muqobil hisoblanadi. Shu darajadan har qanday oshib ketish jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy yo‘qotishlar bilan bog‘langan, chunki mamlakatdagi mavjud ishchi kuchlaridan to‘liq foydalanmaslik YaMM uzilishini yoki uning hajmini potensial hajmdan ortda qolayotganini bildiradi. Ihsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan qanchalik yuqori bo‘lsa, YaMM uzilishi shuncha ko‘p bo‘ladi.

Ihsizlik darajasi va YaMM uzilishi o‘rtasidagi miqdoriy nisbat makroiqtisodiy sohadagi taniqli tadqiqotchi Artur Ouken tomonidan aniqlangan va iqtisodiy adabiyotlarda Ouken qonuni sifatida keng tarqalgan. Bu qonun mohiyati shundan iboratki, agarda ihsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 1%ga oshsa, YaMM hajmini orqada qolishi 2, 5%-ni tashkil etadi. Ushbu nisbat ihsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo‘qotishlarini aniqlash imkonini beradi:

$$\text{YaMM uzilishi} = -2,5x \left( \frac{\text{Ihsizlikning tabiiy darajasi}}{\text{Ihsizlikning haqiqiy darajasi}} - 1 \right)$$

Masalan, agarda t yilda mamlakatda ihsizlikning tabiiy darajasi 6,5% deb qabul qilingan bo‘lsa, haqiqiy darajasi esa 8, 5%ga yetgan bo‘lsa, u holda YaMM farqi 5% tashkil etadi (-2, 5 x (6, 5 – 8, 5)). Bu shuni bildiradiki, shu yilda ihsizlikning tabiiy darajasi ta’minlangan bo‘lganda, YaMM hajmi amaldagidan 5%ga oshiq bo‘lardi. YaMM-ning pastroq darajasi, o‘z navbatida, ishlab chiqarishda qatnashuvchilar daromadlarining nisbatan kamroq bo‘lishini va iqtisodiyotni kelgusi taraqqiyoti investisiyalash imkoniyatlarini qisqarishini bildiradi. Ihsizlik nafaqat iqtisodiy yuqotishlarga olib keladi, balki jamiyatga katta ijtimoiy zarar ham keltiradi, ayniqsa aholi zaif qatlamlari (ayollar, keksalar va boshqalar) ga. Uzoq muddat davomida ihsiz yurish oilaning, shaxsning moddiy faravonligini va ijtimoiy mavqeining pasa-yishiga sabab bo‘ladi.

## 5. O‘zbekistonda mehnat bozorini tashkil etish va tartibga solish asoslari

O‘zbekistonda mehnat bozoriga aholining quyidagi guruhlari kiradi:

- *O‘qishni bitirib birinchi marotaba ish qidirib yurgan yoshlar.*
- *Tarmoq korxonalaridagi strukturaviy o‘zgarishlar natijasida ihsiz bo‘lib qolgan xodimlar. Shuningdek davlat sektorini xususiylashtirish va boshqa mulkchilikka o‘tishdan kelib chiqqan ihsizlar.*
- *Raqobatda singan va past rentabelli, zarar ko‘rib ishlayotgan korxona va tashkilotlarning xodimlari.*
- *Qamoqxonalardan ozod etilgan shaxslar.*
- *Vaqtincha ihsiz yurgan va mehnat birjalarini ko‘magida yangi ish joyi qidirib yurgan shaxslar.*


Mehnat birjalarida ihsizlarni aniqlash, ishga joylash, qayta tayyorlash va shu kabi bir qancha masalalar hal qilinadi. Mehnat birjalarini hozirgi paytda jumhuriyatimizning viloyatlari va uning tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

## 6. Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablar Talab va taklif inflyatsiyasi


Narxlarning o'sishi va u bilan bog'liq pul birligi xarid quvvatining tushib ketishi **inflyatsiya** deb ataladi.

Bunday holat makroiqtisodiy beqarorlikni aks ettirib, barcha mamlakatlar uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar uchun bu xavflidir. Chunki bu davr narxlarni erkinlashuvi va shunga muvofiq ularning umumiy darajasini keskin oshib ketishi bilan muqarrar ravishda bog'langan. Shu bilan birga narxlarni doimo o'sib borish an'anasi qulay iqtisodiy ahvoldagi boshqa mamlakatlarda ham kuzatlimoqda.

Inflyatsiya – talab va taklifning narxlar o'sishida namoyon bo'ladigan nomutanosibligi, iqtisodiyotda narxlarning umumiy darajasi o'sadi va pul muomalasi kanallari to'lib ketadi. Inflyatsiya bu muomalada keragidan ortiqcha pul paydo bo'lib, narx-navo o'sib, pul qadr-qiymati, ya'ni xarid qobiliyatining pasayishidir.



**9-rasm Talab inflyatsiyasi**



**10-rasm Taklif inflyatsiyasi**

Odatda inflyatsiyani ikki xilga:

- **talab inflyatsiyasi**
- **taklif inflyatsiyasiga ajratadilar.**

Iqtisodiyotda talabning keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarish real hajmi bilan qondirilishi mumkin emasligi paytida **talab inflyatsiyasi (9-rasm)** holati ro'y beradi. U vaqtida ortiqcha talab tu'fayli narxlarning oshishi kuzatiladi. Talab inflyatsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar bo'lib aholini ish bilan to'liq bandligi, ish haqini oshib borishi hisoblanadi.

Agarda, iqtisodiyotda tovar va xizmatlar taklifi kamayib borsa va uning oqibatida narxlar ko'tarilsa, **taklif inflyatsiyasi (10-rasm)** paydo bo'ladi. Jami taklif qisqarishining asosiy sababi bo'lib mahsulot birligiga sarflangan harajatlarning o'sishi sanaladi, ya'ni nominal ish haqi, xom ashyo va yoqilg'i narxlarining oshishi natijasida uning tannarxi o'sishi tushuniladi.

## 7. Inflyatsiya turlari

Narx oshishi darajasiga ko'ra inflyatsiya quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Normal inflyatsiya – 3-3, 5% yilliga
2. Suzib yuruvchi inflyatsiya – 10% gacha yilliga
3. Sakrab chopuvchi inflyatsiya – 20-200% yilliga
4. Yuguruvchi inflyatsiya yoki giperinflyatsiya – 50% oyiga va undan ortiq 6 oy mobaynida

Giperinflyatsiya (o'ta inflyatsiya) – narxlar va muomaladagi pul massasining g'oyatda tez o'sishi bilan ta'riflanadigan inflyatsiya turi. Giperinflyatsiya davrida narxlar o'sishining yillik sur'atlari 10 ming foizdan ham oshib ketishi kuzatiladi.

Giperinflyatsiyada pul narxi shunday tez tushib ketadiki, natijada ular o'zlarining asosiy funksiyasini bajarmay qo'yadilar, ya'ni barter usuliga o'tiladi.

Inflyatsiyaning yengil turlari iqtisodiy o'sish sharoitda yuz bersa, og'ir turlari iqtisodiy turg'unlik yoki tanglik sharoitida sodir bo'ladi. Inflyatsiyaning iqtisodiy tanglik bilan birgalikda yuz berishi **stagflyatsiya** deb ataladi.

**Deflyatsiya** (lot.deflato – puflamoq) – inflyatsiya davrida chiqarilgan muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul-kredit tadbirlarini qo'llash bilan amalga oshiriladi. Unga quyidagilar kiradi: soliqlarni oshirish, byudjet harajatlarini qisqartirish, tovar narxlari darajasini pasaytirish, banklar hisob stavkasini oshirish, kreditga talabni va omonotlar o'sishini kamaytirish.

## 8. Inflyatsiyaning o'chanishi

Inflyatsiya narxlar umumiy indeksi – deflyator va iste'mol narxlar indeksi (INI) yordamida o'rganiladi. Aynan shu ko'rsatkichlar iqtisodiyotda narxlar umumiy darajasini o'zgarishini ifodalaydi.

$$\text{Inflyatsiya o'sish sur'ati} = \frac{I_t - I_{t-1}}{I_{t-1}} \times 100\%$$

$I_t$  – joriy yilning narxlar indeksi;

$I_{t-1}$  – o'tgan yilning (bazis) narxlar indeksi

Masalan  $I_t = 121$  (1998 y. narxlar indeksi);  $I_{t-1} = 110$  (1997 y. narxlar indeksi)

$$\text{Inflyatsiya o'sish sur'ati} = \frac{121 - 110}{110} \times 100 = 10\%$$

Inflyatsiyani miqdoran o'lchash uchun «70 kattaligi qoidasi» usulidan ham foydalilanadi. Bu usul narxlarni barqaror o'sish sharoitida inflyatsiya darajasi necha yilda 2 baravariga oshishini aniqlash imkonini beradi.

<b>Inflyatsiya sur'ati 2 his-saga kupayishi uchun =</b>	<b>70</b>
<b>zarur bo'lgan yil</b>	<b>narxlarni yillik o'sish darajasi (%)</b>

Narxlarni doimiy o'sib borishi sharoitida aholi va korxonalar pul-larga bo'lgan ishonchlarini yo'qtadilar va ixtiyorlaridagi mablag'ni tezroq iste'mol va investisiya tovarlariga almashtirishga harakat qiladilar. Natijada, inflyatsiyani o'sish sur'atlari yanada jadallahadi va giperinflyatsiya holati boshlanadi.

## 9. Inflyatsiyaning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlariga ta'siri


Inflyatsiya barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga, ayniqsa ishlab chiqarish va daromadlarni ifoda etuvchi ko'rsatkichlarga kuchli ta'sir etadi. Narxlarni ko'tarilishida milliy ishlab chiqarish va daromadlarning nominal hajmi amalda mahsulot va xizmatlarni hech qanday qo'shimcha ishlab chiqarilishi bo'lmasa ham o'sib boradi. Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi qisqarishi bilan bir vaqtida, uning nominal hajmining ortib borishi kabi vaziyat sodir bo'lishi - murkin. Daromadlarni ishlab chiqarish tomonidan ta'minlanmagan o'sishi shunday holga olib keladiki, aholi qo'lidagi pul, taklif qilinayotgan tovar va xizmatlardan ortiq bo'lib qoladi. Pul birligining xarid quvvati yanada tushib ketadi: bir miqdordagi pulga joriy yilda o'tgan yilda giga nisbatan aholi kamroq ne'matlar sotib oladi, ya'ni uning real

daromadlari kamayadi: Misol uchun, joriy yilda aholini nominal daromadi 30%ga ko‘paygan, narxlar darajasi 50%ga oshgan bo‘lsa, unda aholining real daromadlari 20%ga kamayadi. Chunki narxlarning o‘sishi aholi pul daromadlari o’sishidan ilgarilab ketadi.

## 10. Inflyatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik. Fillips egri chizig‘i

Ish haqi mehnat bozorida muvozanatni o‘matuvchi vosita hisoblanadi va uning darajasini o‘zgarishi ishsizlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ingliz iqtisodchisi A. V. Fillips tomonidan, Buyuk Britaniyaning 1862-1957 yillar ma’lumotlari asosida taddiqot qilingan hamda grafikda Fillips egri chizig‘i deb aks ettirilgan.

Modomiki, ish haqi va narxlar o‘zgarishining sur’atlari o‘rtasida bir xil nisbat mavjud ekan, u xolda Fillips egri chizig‘i o‘z mohiyatiga ko‘ra inflyatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqliknini aks ettiradi, ya’ni inflyatsiyaning o‘sishi sur’atida ishsizlikning past darajasi kuzatiladi va aksincha. Muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida barqaror va oldindan ko‘rish mumkin bo‘lgan bog‘liqliknini o‘rnativish g‘arb mamlakatlarining milliy iqtisodiyotini tartibga solish va istiqbolini belgilash imkonini beradi.



11-rasm Filips egri chizig‘i

Lekin, 70 yillardan boshlab bunday bog‘liqlik buzildi va Filips egri chizig‘i zamonaviylashtirildi – endi u o‘ng tomonga siljib, g‘arb mam-

lakatlarida vujudga kelgan real makroiqtisodiy vaziyatni aks ettira boshladi. Ya’ni, ishlab chiqarishni qisqarishi va ishsizlikni ko‘payishi narxlarni oshishi bilan kuzatiladi. Bu hodisa **stagflyatsiya** deb atalib, ham ishsizlikni, ham inflyatsiyani o‘sishi bilan ifodalanadi.

### **Mavzu № 6 bo‘yicha savollar:**

1. Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aloli deganda nimani tushunasiz?
2. Ishlayotgan yoki band bo‘lgan aholi deganda kimlar tushuniladi?
3. Ishchi kuchi tarkibiga kiruvchi ishsizlar tushunchasiga ta’rif berining.
4. Ishsizlik darajasi va u qanday aniqlanadi?
5. Ishsizlikning qanday ko‘rinishlarini bilasiz?
6. Friksion ishsizlik deganda qanday ishsizlik tushuniladi?
7. Strukturaviy ishsizlik turini tushuntirib bering.
8. Davriy ishsizlik deganda qanday ishsizlikni tushunasiz?
9. Ishsizlikning tabiiy yoki me’yordagi darajasi deganda nimani tushunasiz?
10. Ishsizlikning haqiqiy darajasi deganda nimani tushunmoq lozim?
11. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensiali nima?
12. Ouken qonuni.
13. O‘zbekistonda mehnat bozoriga aholining qaysi guruhlari kiradi?
14. Inflyatsiya nima?
15. Grafik yordamida talab va taklif inflyatsiyasini tushuntiring.

## **Yalpi talab va yalpi taklif**

### **Mavzuda ko‘rib chiqiladigan savollar:**

1. *Yalpi talab va yalpi taklif tushunchasi.*
2. *Yalpi talab egrisi va unga ta’sir etuvchi omillar: narxga bog‘liq va bog‘liq bo‘lмаган omillar.*
3. *Yalpi taklif egrisi va unga ta’sir qiluvchi narxga bog‘liq va bog‘liq bo‘lмаган omillar. Yalpi taklif kesimlari va ularning mohiyati.*
4. *Narxlarning muvozanatli darajasi va ishlab chiqarishning muvozanatli real hajmiga yalpi talab o‘zgarishining ta’siri.*
5. *Narxlarning muvozanatli darajasi va ishlab chiqarishning muvozanatli real hajmiga yalpi taklif o‘zgarishining ta’siri.*
6. *Xrapovik samarasi.*

### **Tayanch iboralar**

AD va AS modellari, foiz stavkasi samarasi, boylik samarasi, import xaridlar samarasi, AD va ASga ta’sir etuvchi narxga bog‘liq va bog‘liq bo‘lмаган omillar, makroiqtisodiy muvozanat tushunchasi, AD va AS o‘zgarishining real YaMM va narxlар darajasiga ta’siri, ASning oraliq kesimi, ASning klassik kesimi, ASning keynsian kesimi.

### **Adabiyotlar**

1. *Karimov I. A. O‘zbekiston islohatlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T., «O‘zbekiston», 1995 y.*
2. *Karimov I. A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» T., «O‘zbekiston», 1992 y.*
3. *Ekonomicheskaya teoriya. Pod nauchnoy redaksiey akad. V. I. Vidyanina i dr. Gl. red IPP «Sharq», 1999 g.*
4. *Kempbell R., Makkonell, Stenli L. Bryu «Ekonomiks» 1-2 t Moskva. Izd. «Respublika» 1992 g.*
5. *M. Hakimova «Makroiqtisodiyot» Toshkent - «Mehnat» nashriyoti - 1997 y*
6. *R. O‘lmasov M. Sharifxo‘jaev Iqtisodiyot nazariyasи T. -«Mehnat» -1995 y.*

### **1. Yalpi talab va yalpi taklif tushunchasi**

Har qanday bozordagi vaziyat talab va taklifga, ya’ni ular hajmining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi. Ular o‘rtasida yuzaga kelgan nisbat o‘z ketidan narxlarning o‘zgarishiga va aksincha, narxlarning


(u yoki bu tomonga) tebranib turishi talab va taklif hajmiga bevosita ta'sir qiladi. Bunday ta'kidlash faqat qandaydir bir alohida mahsulot yoki xizmatga oid bo'lmay, balki umuman milliy bozorga ham taal-luqlidir. Bunday bozordagi talab alohida xaridorlar istagi va sotib olish qobiliyati ko'rinishida bo'lmasdan, barcha xaridorlarning bir-lashtirilgan talabi sifatida amal qiladi va makrodarajadagi iste'mol qobiliyatini aks ettiradi. Taklif esa milliy ishlab chiqarish yalpi hajmi (real YALM) ning taklifi sifatida bozorga chiqadi.

Shunday qilib, **yalpi talab** uy xo'jaligi, korxonalar, hukumat hamda xorijiy xaridorlarning milliy ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga bo'lgan talabidir.

Qaysiki muayyan narxlar darajasidagi **yalpi taklif** - bu muayyan narxlar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo'lgan iste'mol hamda investisiya tovarlari va xizmatlarning umumi miqdoridir.

**Narxlar darajasi** deganda, turli xil tovar va xizmatlarning alohida narxlarini umumlashtiruvchi jami narx tushuniladi.

Narxlarni narxlar darajasiga, jami iste'molchilarning to'lov qobiliyatli talabini jami talabga, barcha tovar va xizmatlarni esa milliy ishlab chiqarishning real hajmiga bunday birlashtirish **yiriklashtirish** deb ataladi. Ko'rsatkichlarni yiriklashtirishning bu usulidan makroiqtisodiy tadqiqotlarda tez-tez foydalanilib turiladi. Makrodarajada iqtisodiyotni usiz tahlil qilib bo'lmaydi. Yalpi talab va yalpi taklif, hamda narxlar darajasi barcha makroiqtisodiy modellar tuzilishining asosi hisoblandi. Oddiy ko'rinishda ko'rsatkichlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi grafik yordamida aks ettiriladi (12-rasm).



12-rasm AD va AS egri chizig'i


Chizmadan ko‘rinib turibdiki, narxlarning o‘zgarishi yalpi talabga aks ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni, narxlar darajasining o‘sishi o‘z ortidan yalpi talabning qisqarishini keltirib chiqaradi va aksincha. Vaholanki, yalpi taklif narx darajasi qancha yuqori bo‘lsa, shuncha ko‘p bo‘ladi.

## 2. Yalpi talab egrisi va unga ta’sir etuvchi omillar: narxga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan omillar

Narxlar darajasi va yalpi talab o‘rtasida teskari bog‘liqliq mavjud bo‘lib, narxlarning o‘sib borishi bilan yalpi talab qisqarib boradi va aksincha, narxlar darajasi qanchalik past bo‘lsa xaridorlar ko‘proq tovar va xizmatlarni sotib olishni istab qolishadi. Ushbu bog‘liqlikni chizma ko‘rinishida ifodalash mumkin (13-rasm). Narxlar darajasi va talab qilningan milliy mahsulot hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifoda etuvchi chiziq yalpi **talab egri chizig‘i** deb ataladi. U alohida tovarga bo‘lgan talab egri chizig‘iga o‘xshash ko‘rinishga ega, ammo endi unga talab egri chizig‘i yo‘nalishini belgilab beruvchi daromad samarasi yoki o‘ribbosar tovarlar samarasi kabi narx omillari ta’sir ko‘rsatmaydi. Yalpi talab egri chizig‘i yo‘nalishiga qanday omillar ta’sir qiladi?

Bular avvalo quyidagi narx omillaridir:

1. *Foiz stavkasi samarasi;*
2. *Boylit samarasi;*
3. *Import xaridlar samarasi*



13-rasm Yalpi talab egri chizig‘i

**Foiz stavkasi samarasi** shuni bildiradiki, agarda mamlakatda pul massasi hajmi doimiy deb faraz qilinsa, narxlar o‘sib borayotgan bo‘lsa, bunday holatda aholi va korxonalarining harajatlari uchun

ko'proq pul kerak bo'ladi. Bu esa pulga bo'lgan talabni oshiradi, demak uning narxi, ya'ni foiz stavkasi ko'tariladi.

O'z navbatida, yuqori darajadagi foiz stavkasida, aholi va tadbirkorlar o'z harajatlarini qisqartirib, jamg'armalarini bankka qo'yishni afzal ko'rishadi. Shunday qilib, narxlarning o'sishi pulga bo'lgan talabni ko'paytirib foiz stavkasini ko'tarilishiga olib keladi va shu tufayli milliy mahsulotning real hajmiga bo'lgan talabni qisqartiradi.

**Boylit samarasi** shuni bildiradiki, narxlar darajasini o'sishi bilan jamg'arilgan pul aktivlarining (hisoblardagi omonotlar, obligasiyalar) real xarid qobiliyati tushib ketadi. Ya'ni aholi tobora kambag'allashib boradi va tabiiyki u o'zining tovar va xizmatlarni sotib olishga ketadigan harajatini qisqartiradi. Natijada yalpi talab ham kamayadi.

**Import xaridlari samarasi** deganda shuni tushunish lozimki, qachonki narxlar darajasi xorijiy narxlarga nisbatan oshib borsa, mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan talab kamyadi, import mahsulotlariga esa talab esa o'sadi, ya'ni, milliy mahsulotga bo'lgan ehtiyoj qisqaradi. Va aksincha, mamlakatda narxlar darajasining pasayishi importning kamayishiga va eksportning kengayishiga sabab bo'ladi yoki boshqacha aytganda milliy mahsulotga bo'lgan talabni oshiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar yalpi talabning narx omillari deb ataladi, chunki milliy ishlab chiqarish real hajmining o'zgarishi bunday hollarda narxlarning pasayishi yoki o'sishi bilan bog'liq, hamda yalpi talab egri chizig'ining faqat bir yo'nalishidagi harakatini keltirib chiqaradi. U egiluvchan narx modeli deb ataladi.

Yalpi talabning o'zgarishiga nafaqat narxlar darajasining tebranishi, balki bir qator boshqa sharoitlar ham ta'sir ko'rsatadi.

**Narxga bog'liq bo'lman omillar** yalpi talab egri chizig'ini o'ngga yoki chapga siljitadi. Bu omillar narx darajasi (P) ning o'zgarishiga bog'liq bo'lmaydi.

ADning siljishi sabablari qanday?

Yalpi talab (AD) ni asosiy makroiqtisodiy tenglama orqali tasavvur etish mumkin:


$$Y=C+I+G+X_n$$

Ushbu komponentlarlardan birortasining o'zgarishi Yni o'zgarishiga olib keladi.


Shunday qilib, yalpi talabning narxlarga bog'liq bo'lman omillari qatoriga quyidagilar kiradi:

*iste 'mol harajatlaridagi o'zgarishlar ( $\Delta S$ )  
 investisiya harajatlaridagi o'zgarishlar ( $\Delta I$ )  
 davlat harajatlaridagi o'zgarishlar ( $\Delta G$ )  
 eksport soj hajmiga xarajatlaridagi o'zgarishlar ( $\Delta X$ )*

Qisqa muddatda yalpi talabning o'sishi ishlab chiqarish hajmini va bandlikni oshiradi va narxlar darajasiga ta'sir etmaydi. Bunday vaziyat 30-yillarda kuzatildi. O'sha davrda davlat siyosati yalpi talabni rag'batlantirgan edi. Ammo agar iqtisodiyot to'la bandlik sharoitida bo'lsa, uzoq muddatda yalpi talabning oshishi mahsulot hajmini ko'paytirmsadan balki narxlar darajasiga ta'sir ko'rsatib, inflayatsiyani keltirib chiqaradi. Chunki bu vaziyatda imkoniyatlardan to'liq foydalilanilgan bo'ladi.



14-rasm. Qisqa muddatda yalpi talab oshishining oqibatlari




15-rasm. Uzoq muddatda yalpi talab oshishining oqibatlari

### 3. Yalpi taklif egrisi va unga ta'sir qiluvchi narxga bog'liq va bog'liq bo'limgan omillar.

#### Yalpi taklif kesimlari va ularning mohiyati

Yalpi taklif deganda, ishlab chiqarilishi va muayyan narx darajasida bozordan sotib olinishi mumkin bo'lgan barcha tovar va xizmatlarning real hajmiga tushuniladi. Jami taklif ishlab chiqarish darajasi va narxlar darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi egri chiziq ko'rinishiga ega.



16-rasm. Yalpi taklif egri chizig'i.


**Keynsian kesma** iqtisodiyot pasayish holatida ekanligidan dalolat beradi, qachonki katta miqdordagi mehnat va moddiy resurslar foydalanimayotgan bo'lsa. Ingliz iqtisodchisi J.M. Keynsning ta'kidlashicha, agarda shu kesmada ishlab chiqarish hajmi o'sa boshlasa yoki tusha boshlasa, bunday holat o'zidan keyin narx va ish haqi darajalarining o'zgarishiga olib kelmaydi.

**Vertikal yoki klassik kesma** - iqtisodiyotni «to'liq bandlik» sharoitidagi yoki ishsizlikning tabiiy darajasi nuqtasidagi holatini ifodalaydi, qachonki ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanimayotgan va narxlarning har qanday darajasida ham ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish imkoniyati bo'lmasa.

**Oraliq kesma** ishlab chiqarish real hajmining o'sishi bilan narxlar ham o'sayotgan vaziyatni ko'rsatadi. Buni shunday tushuntirish mumkin: iqtisodiyotning barcha sektorlarida iqtisodiy pasayish holatidan to'liq bandlikka o'tish notekis va turli vaqtida yuz beradi. Ayrim tarmoqlarda resurslarning yetishmovchiligiga duch kelinishi mumkin, ular ishlab chiqarishni kengaytirishlari uchun eski asbob-uskunalardan, hamda malakasiz kadrlardan foydalishlariga to'g'ri

keladi. Bu esa mahsulot birligiga ketadigan harajatlarning o'sishiga va natijada narx oshishiga sabab bo'ladi.

Yalpi taklif egri chizig'ini siljitim turuvchi omillar:  
resurslarga bo'lgan narxlarning o'zgarishi;  
unumdarlikdagi o'zgarishlar;  
xuquqiy me'yolarning o'zgarishi.




17- rasm. Narxga bog'liq bo'lmagan omillar hisobiga yalpi taklif egri chizig'ining siljishi

Masalan, ichki bozorda yer, mehnat resurslari, kapital va tad-birkorlik qobiliyatlarining taklifi oshib borayotgan bo'lsa, ularning narxi pasayib mahsulot birligiga ketgan harajatlar kamayadi. Bu harajatlar yana iqtisodiy resurslardan unumli va samarali foydalanish hisobiga ham o'zgarishi mumkin. Ya'ni, ishlab chiqarishga yangi texnologiyani joriy etish, xodimlar malakasini oshirish qo'shimcha harajatlarsiz ko'proq mahsulot olish imkonini beradi. Huquqiy me'yolr soliq va subsidiya miqdorlarining o'zgarishi ham ishlab chiqarish harajatlariga ta'sir qilishi mumkin. Agarda, xukumat ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadigan soliq stavkalarini oshirsa va ularga beriladigan subsidiyalarni qisqartirsa, bunday holatda mahsulot birligiga ketgan harajat o'sadi va narxlarning berilgan muayyan darajasida foya kamayadi. Shu tufayli ishlab chiqarishga bo'lgan rag'bat tushib ketib, yalpi taklif qisqaradi, uning egri chizig'i chapga suriladi.

#### 4. Narxlarning muvozanatli darajasi va ishlab chiqarishning muvozanatli real hajmiga yalpi talab o'zgarishining ta'siri

Narxlarning muvozanatli darajasi deb shunday narx darajasi tushuniladiki, unda yalpi talab va yalpi taklif bir-biriga mos kelishi yoki bir-biriga teng bo'lishi kerak. Narxlarni muvozanatli darajasida ma'lum

miqdordagi mahsulotni xaridorlar sotib olishga, ishlab chiqaruvchilar esa sotishga rozi bo‘ladilar. Buni **milliy ishlab chiqarishning muvozanatlari real hajmi** deb ataydilar. Chizmada bu 2 ko‘rsatkich yalpi talab va yalpi taklif egri chiziqlarining kesishgan nuqtalari bilan aniqlanadi.



**18-rasm Yalpi talab o‘zgargandagi ishlab chiqarishning muvozanatlari hajmi o‘zgarishi**


Chizmadan ko‘rinib turibdiki,  $I_1$  - yalpi talab egri chizig‘i yalpi taklif egri chizig‘i bilan uning keynsian kesmasidagi kesishgan nuqtasi. Talab egri chizig‘ining bu kesma bo‘ylab harakati, narx darajasining o‘zgarishi bilan kuzatilmaydi.

Bunday holatda  $P^*_1$  - miqdor muvozanatlari narx,  $Q^*_1$  esa milliy mahsulotning muvozanatlari real xajmi. Yalpi talabning oshishi egri chiziqlari o‘ngga suradi va muvozanat nuqtasi ( $I_2$ ) oraliq kesmada o‘rnataladi. Bu kesmada yalpi talabning kengayishi narxlar darajasi hamda ishlab chiqarish hajmini  $P^*_2$  va  $Q^*_2$  nuqtalarga o‘zgarishiga olib keladi. Yalpi talabning keyingi o‘sishi egri chiziqlari yanada yuqoriga surilishiga olib keladi. Endi u  $AD_3$  holatini egallaydi va taklif egri chizig‘ini klassik yoki vertikal kesmada kesib o‘tadi. Bu yerda muvozanatlari narx  $P^*_3$  darajada ishlab chiqarishning muvozanatlari hajmi  $O^*_3$  nuqtada o‘rnataladi. Yalpi taklifning bu kesmasida talabning har qanday o‘zgarishi faqat narxlar darajasini o‘zgarishiga olib keladi, ishlab chiqarish hajmlari esa bunda o‘zgarishsiz qoladi. Oraliq va vertikal kesmalarda narxlar o‘sib borishi bilan kuzatilgan yalpi talabning ko‘payishi talab inflyatsiyasi mavjudligini ko‘rsatadi.

## **5. Narxlarning muvozanatlari darajasi va ishlab chiqarishning muvozanatlari real hajmiga yalpi taklif o‘zgarishining ta’siri**

Yalpi taklif yoki muayyan, narx darajasida bozorda taklif qilinishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlarning real hajmi narx-navoga

bog'liq bo'limgan bir qator omillar ta'siri ostida bo'ladi. Bu omillar yalpi taklifning goh kamayishini, goh ko'payishini keltirib chiqarishi mumkin. Birinchi holatda yalpi taklif egri chizig'i chapga, ikkinchisida o'ngga suriladi.



**19-rasm Yalpi taklif o'zgarganda ishlab chiqarish muvozanatlari hajmining o'zgarishi.**

Shunga muvofiq  $I_1$ , muvozanat nuqtasi  $I_2$  va  $I_3$ , holatiga suriladi, narxlarning muvozanatlari darajasi va ishlab chiqarishning muvozanatlari miqdori ham o'zgaradi. Faraz qilaylik, iqtisodiyotda ma'lum bir narxlar darajasida ish haqi oshgan va xodimlarning ijtimoiy sug'urtasiga ajratmalar ko'paygan bo'lsin. Iqtisodiyotdagi bunday vaziyat, mahsulot birligiga sarflanadigan harajatlar o'sishiga, foydanning, demakki, yalpi taklifning ham qisqarishiga olib keladi.  $AS_1$  egri chizig'i chapga  $AS_2$  gacha suriladi. Ushbu berilgan yalpi talabda egri chiziqlar  $I_2$  nuqtasida kesishadi, narxlar darajasi  $P^*_1$  dan  $P^*_2$  gacha o'sadi, ishlab chiqarish esa  $Q^*_1$  dan  $Q^*_2$  gacha qisqaradi. Ya'ni bu yerda ishlab chiqarish harajatlarining o'sishi bilan yuzaga kelgan inflyatsiya mavjud bo'ladi. O'z navbatida ishlab chiqarishning qisqarishi ishsizlikning o'sishiga olib keladi. Bunday vaziyatni, ya'ni qachonki, narxlarning o'sishi (inflyatsiya) ishsizlikning o'sishi bilan kuzatilayotgan bo'lsa **stagflyatsiya** deb ataladi. Agarda, narxga bog'liq bo'limgan omillar yalpi taklifni kengaytirish tomon ta'sir etsa, masalan, yerning bahosi pasaysa, korxonalardan olinadigan soliqlar kamaysa va buning oqibatida mahsulot birligiga ketadigan surf-harajatlar qisqarsa, unda yalpi taklif egri chizig'i o'ngga suriladi va yalpi talab egri chizig'ini  $I_3$  nuqtada kesib o'tadi. Bunda narxlarining muvozanatlari darajasi  $P^*_1$  dan  $P^*_3$  gacha pasayadi, ishlab chiqarishning muvozanatlari, hajmi  $Q^*_1$  dan  $Q^*_3$  oshadi, ya'ni **iqtisodiy o'sish** holati mavjud bo'ladi.

## 6. Xrapovik samarasi


Agar yalpi talab kamaysa, unda nima ro'y beradi?

Bizning modelda keynsian kesmada ishlab chiqarish real hajmi ning kamayishini va narxlar darajasi o'zgarmasligini ko'rish mumkin. Klassik kesmada narxlar darajasi tushadi (kamayadi), ishlab chiqarishning real hajmi to'liq bandlik holati darajasida qoladi. Oralilq kesmada model ko'rsatadiki, ham ishlab chiqarishning real hajmi, ham narxlar darajasi kamayadi.

Ammo bu yerda bitta muhim faktorni inobatga olish lozim (klassik va oralik kesmada). Bu faktor ushbu kesmalarning yalpi talab kamaygandagi beradigan oqibatlarining bashoratini to'g'riliqiga shubha tug'diradi. Agar  $AD_2$  va  $AD_3$  orqaga -  $AD_1$  ga qaytsa oldingi muvozanatni ololmasligi mumkin. Nega? Gap shundaki tovarlar narxi egiluvchan emas, shu jumladan resurslar narxi ham. Ular ayniqsa qisqa vaqt ichida pasaymaydi. Bir marta oshgan iqtisodiy ko'satkichlar tushmasligi ham mumkin, hech bo'limganda birinchi darajadagidan yuqori bo'ladi.

Shuning uchun iqtisodchilar bunday holatni **xrapovik samarasi** deb qaraydilar. Xrapovik - bu mexanizm. U g'ildirakni orqaga emas faqat oldinga suradi.

Xrapovik samarasining harakati quyida berilgan grafikda ko'rsatilgan. Soddaroq bo'lishi uchun oralik kesmani tushurib qoldiramiz. Agar  $AD_1$  dan  $AD_2$ gacha yalpi talab ortsa, iqtisodiyot  $P_1$ ,  $Q_1$  va  $e_1$  nuqta muvozanatdan keynsian kesmada  $P_2$ ,  $Q_2$ ,  $e_2$  muvozanatga klassik kesmaga qarab siljiydi. Ammo narxlarning kamayishi ularning oshishi kabi oson kechmaydi. Shuning uchun agar yalpi talab  $AD_2$ dan  $AD_1$  ga kamaysa qisqa vaqt ichida iqtisodiyot oldingi holatiga ( $e_1$ ) ga qayta olmaydi.



20-rasm. Xrapovik samarasi

Buning o‘rniga yangi narx darajasi ( $P_2$ ) saqlanib qoladi (narxlar  $P_1$ dan  $P_2$ ga ko‘tarilib bo‘lgan), yangi muvozanat  $e^*_2$  ga suriladi.

Boshqacha aytganda narx pasaygandagi narxlarning noelas-tikligi tufayli yalpi taklif keynsian kesmada narx darajasi  $P_1$  dan  $P_2$ ga surildi. Narxlarning yalpi talab kamayganda tushmasligi tufayli yalpi taklif keynsian kesmada shu darajada yuqoriga qarab siljiydi, nati-jada yalpi taklif  $P_1$  a AS dan  $P_2$  e<sub>2</sub> ASga siljiydi. Qisqa qilib ayt-ganda, yalpi taklifning assimmetriyasi mavjud. Bu degani agar yalpi talab oshsa, keynsian kesma oson va tez yuqoriga siljiydi, agarda yalpi talab kamaysa, pastga qarab sekin yoki umuman siljimaydi.

Nima uchun narxlar pasaymaydi? (yalpi talab kamayganda?)

Bu savolga javob topish mushkul. Birinchidan ish haqi firmalar harajatlarining 75%ini tashkil etadi. Nima uchun ish haqi noelastik? Chunki ko‘p ishchilar bitim orqali ishga joylashishgan. Bu bitimlar Amerikada masalan, 3 yilgacha tuziladi. Kasaba uyushmalariga kir-maganlar uchun esa ish haqi odatda 1 yildan keyin o‘zgarishi mum-kin (oyda, kvartalda o‘zgarmaydi).

### Mavzu № 7 bo‘yicha savollar:

1. *Yalpi talab. Uni grafik yordamida tushuntiring.*
2. *Yalpi taklif. Uni grafik yordamida tushuntiring.*
3. *Yalpi talab egri chizig‘i yo‘nalishiga ta’sir etuvchi narx omillari.*
4. *Yalpi talabga ta’sir etuvchi narxga bog‘liq bo‘lmagan omillar. Ularni tushuntirib bering.*
5. *Qisqa va uzoq muddatda yalpi talab oshishining oqibatlari.*
6. *Yalpi taklifga ta’sir qiluvchi narxga bog‘liq bo‘lmagan omillar.*
7. *Yalpi taklif kesimlari v ularning mohiyati.*
8. *Narxlarning muvozanaili darajasi va ishlab chiqarishning muvo-zanatli real hajmiga yalpi talab o‘zgarishining ta’siri.*
9. *Narxlarning muvozanaili darajasi va ishlab chiqarishning muvo-zanatli real hajmiga yalpi taklif o‘zgarishining ta’siri.*
10. *Xrapovik samarasi deganda nimani tushunasiz? Uni grafik orqali tushuntiring.*

## Iste'mol va jamg'armalar.

### Investisiyalar

#### Mavzuda ko'rib chiqiladigan savollar:

1. *Daromad - iste'mol va daromad - jamg'arma o'rtasidagi bog'liqlik.*
2. *Iste'mol, jamg'arish grafiklari.*
3. *Iste'mol va jamg'arishning o'rtacha hamda cheklangan miqdori.*
4. *Investisiyalar. Investisiya darajasiga ta'sir etuvchi omillar. Investisiyalarga talab egri chizig'i.*
5. *O'zbekiston Respublikasida chet el investisiyalarini tartibga solish mexanizmini rivojlantirishning mantiqiy asoslari.*

#### Tayanch iboralar

Iste'mol funksiyasi, jamg'arma funksiyasi, jamg'arma va iste'molga o'rtacha va chegaraviy moyillik, jamg'arma va iste'mol grafiklari, qarz hisobiga hayot kechirish, iste'moldagi o'zgarish, jamg'armadagi o'zgarish, ichki investisiya, yalpi investisiya, kapital qo'yilmalar, real foiz stavkasi va boshqalar.


#### Adabiyotlar

1. *Agapova T. A., Seregina S. F. «Makroekonomika». Moskva - Ufa, 1995 y.*
2. *Makkonell K. Bryu S. «Ekonomiks» t. 1-2 M.: «Respublika» 1992 y.*
3. *Z. Yuldoshev, M. Qosimov «Makroiqtisodiyot asoslari» Toshkent «O'qituvchi», 1994 y.*
4. *M. Hakimova «Makroiqtisodiyot» T. - «Mehnat» 1997 y.*
5. *Alimov A., Hamedov I. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T.: «O'AJBNT» Markazi, 2004y., 491 bet.*

#### **1. Daromad - iste'mol va daromad - jamg'arma o'rtasidagi bog'liqlik**

Iste'mol harajatlari darajasiga ta'sir etuvchi omillar ko'p bo'lib, ulardan eng asosiysi soliq to'langandan keyin kishilar qo'lida qolgan daromad hisoblanadi. Jamg'arma ham daromadning iste'mol qilinmaydigan qismi hisoblanar ekan, o'z navbatida daromad jamg'armaga ham ta'sir etuvchi asosiy omildir. Amerika iqtisodiyotiga tegishli ma'lumotga murojaat qilaylik. Quyida berilgan rasmdagi har bir nuqta iste'mol bilan soliq to'lagandan keyin qolgan daromad ora-

sidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Nuqtalarda yillar ko'rsatilgan. Nuqtalalar birlashtirilgandan so'ng iste'mol traektoriyasi C hosil bo'ldi.



Ko'rinish turibdiki, kishilar qo'llaridagi daromadning asosiy qismini asosan iste'mol uchun sarflashar ekan. Daromad bilan iste'mol o'rtasidagi farq jamg'armani tashkil etadi. Masalan, 1988 y. da iste'mol 3226 mlrd doll. ni, soliq to'langandan keyin qolgan daromad 3473 mlrd. doll. ni tashkil etgan, demak 1988 y. jamg'armasi - 247 mlrd doll. bo'lgan. Rasmdan yana shuni ham kuzatish mumkinki, soliq to'langandan keyin qolgan daromadning o'sishi bilan jamg'arma ham unga mos ravishda ortib bormoqda. Rasmda faqat iqtisodiyot tinch ahvolga tushgandagi holat ko'rsatilgan. Masalan, «Buyuk depressiya» davrida iste'mol daromaddan ortib ketgan. Bunday holatda iste'mol chizig'i nuqtalari bissektrisa chizig'idan yuqorida joylashadi, ya'ni bunday holatda kishilar qarzga botadilar.

Xulosa:

- 1) Kishilar soliq to'langandan keyin qolgan daromadning asosiy qismini iste'mol qiladilar.
- 2) Iste'mol ham, jamg'arma ham soliq to'langandan keyin qolgan daromadning darajasiga bevosita bog'liq ekan.

## 2. Iste'mol, jamg'arish grafiklari

Ixtiyoridagi daromad iste'mol va jamg'arish uchun ishlatalidi, ya'ni qancha ko'p iste'mol qilinsa, shuncha kam jamg'ariladi va aksincha. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik har xil daromadga ega bo'lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo'lganlar odatda ko'proq iste'mol qilib kamroq jamg'aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg'arish ulushining

o'sishi tomonga o'zgaradi. Ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik jadval ko'rinishida quyidagicha ifodalangan (jadvalga qarang).


### Daromad, iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlari

5-jadval

Yillar	Y Daromad	C Iste'mol	S Jamg'arish
1	370	375	-5
2	390	390	0
3	410	405	5
4	430	420	10
5	450	435	15
6	470	450	20
7	490	465	25


Iste'mol grafigi ikki to'g'ri chiziq ko'rinishida berilgan.

Birinchisi - bu bissektrisa, u shunday shartli vaziyatni ifodalaydiki, qachonki har qanday yilda iste'mol ixtiyoridagi daromadga teng bo'ladi, ya'ni jamg'arish butunlay mavjud bo'lmaydi. Algebraik bu o'zaro bog'liqlik  $Y=S$  tengligi ko'rinishida ifodalangan. Ikkinci to'g'ri chiziq - bu haqiqatdagi iste'mol grafigi bo'lib, haqiqiy iste'mol daromadga teng bo'lgan nuqtada (390) bissektrisa bilan kesishadi.



22- rasm Iste'mol grafigi

Bundan quyi nuqtada haqiqiy iste'mol daromaddan ortiq. Bu vaziyat insonlarni qarz hisobiga hayot kechirishlarini bildiradi. Ikki to'g'ri chiziq kesishish nuqtasidan yuqorida haqiqiy iste'molning barcha miqdorlari daromaddan kam hamda ular o'rtasidagi farq jamg'arishni tashkil tashkil etadi.



23- raum. Jamg'arma grafigi

**Jamg'arish grafigi** daromad bilan jamg'arish o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Vertikal o'qdagi har bir nuqta jamg'arma miqdorini bildiradi va daromad bilan unga muvofiq keladigan iste'mol hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi ( $S = Y - S$ ).

### 3. Iste'mol va jamg'arishning o'rtacha hamda cheklangan miqdori

O'rtacha miqdor yoki iste'molga o'rtacha moyilik deganda o'z ixtiyordagi daromaddan iste'mol harajatlarining ulushi tushuniladi, ya'ni

$$APC = (C/Y) \times 100\% \text{ yoki } APC = C/Y$$

Ixtiyordagi daromaddan jamg'arish ulushini **jamg'arishga o'rtacha moyillik** deb ataladi, ya'ni

$$APS = (S/Y) \times 100\% \text{ yoki } APS = S/Y$$

$$\text{Masalan, } APS = (405/410) \times 100\% = 98,78\% \text{ yoki } 0,98.$$

$$APS = (420/430) \times 100\% = 97,67\% \text{ yoki } 0,97.$$

Demak, bu misollardan ko'rinish turibdiki, daromadlar miqdori ko'payib borishi bilan iste'mol kamayib boradi va aksincha jamg'arma ko'payib boradi. Soliqlar to'langandan keyin qolgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi, ikkinchi qismi esa jamg'ariladi, yoki buni matematik holda ifodallasak:

$$APC + APS = 1$$

Iste'mol qilinadigan daromadning o'sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog'i) **chegaralangan iste'molga moyillik** deyiladi va quyidagicha aniqlanadi.

$$MPC = \Delta C / \Delta Y$$

$$MPC = \text{Iste'moldagi o'zgarish (+, -)} / \text{Daromaddagi o'zgarish (+, -)}$$

Ya’ni:

Masalan, 1)  $\Delta C = 420 - 405 = 15$   $\Delta Y = 430 - 410 = 20$   $MPC = 15/20 = 0,75$

Daromadning o’sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog‘i) agarda jamg‘armaga qo‘yilsa, bunday daromad **chegejalangan jamg‘armaga moyillik** deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$MPS = \Delta S / \Delta Y$$

**MPS = Jamg‘armaning o‘zgarishi (+, -) / Daromadning o‘zgarishi (+, -)**

$$MPS_1 = 5/20 = 0,25$$

Shunday qilib chegejalangan iste’molga moyillik 0,75ni tashkil etgan bo‘lsa, chegejalangan jamg‘armaga moyillik esa qolgan 0,25ni tashkil etadi. Chegejalangan iste’molga moyillik chegejalangan jamg‘armaga moyillik bilan birgalikda soliqlarni to‘lagandan keyingi daromadga tengdir. Xulosa qilib aytganda, daromadning o’sgan qismi iste’molga yoki jamg‘armaga ketadi. Agar daromadning o’sgan qismi iste’mol qilinmasa, u jamg‘armaga qo‘yilgan bo‘ladi.

$$MPC + MPS = 1$$

#### **4. Investisiyalar. Investisiya darajasiga ta’sir etuvchi omillar. Investisiyalarga talab egri chizig‘i**

Investisiya ( nem.investition, lot. Investere – kiyintirmoq) – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kirgizish. Uning moliyaviy va real turlari mavjud. Moliyaviy investisiya – ak-siya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olish; real investisiya – mamlakat ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va b.)ga kapital qo‘yish, shuningdek, boshqa davlatlarga qarz va ssuda berish shakllarida amalga oshiriladi. Investisiyani davlat, banklar yoki xususiy tadbirkorlar amalga oshirishi mumkin. Davlat investisiyasi soliqlar, zayomlar, davlat daromadlari orqali moliyalashtiriladi. Investoring shaxsiy mal‘lag‘lari yoki uzoq muddatli qarz olish yo‘li bilan jalb qilingan vositalari va qimmatbaho qog‘ozlarni chiqarishi xususiy investisiyaning manbai bo‘lishi mumkin.

YaMMni harajatlar bo‘yicha aniqlashning ikkinchi qismi bo‘lgan investisiyalarga to‘xtalamiz.

Investisiya - bu yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob uskunalar sotib olishga, ya’ni kapital barpo etishga ketgan harajatlardir.

Sof harajatlarning investisiyaga bo‘lgan harajatining miqdori 2ta omilga bog‘liq:


*sof foydaning kutilayotgan me’yori;  
foiz stavkasi.*

Agarda kutilayotgan foyda me’yori foiz stavkasidan yuqori bo‘lsa, investisiyalash foydali va askincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda miqdoridan yuqori bo‘lsa, investisiyalash foydali bo‘lmay qoladi.

Investisiya harajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasini o‘zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darajasini ayirmasi ko‘rinishida aniqlanadi.

Masalan, nominal foiz stavkasi 16%ga teng bo‘lsa, inflyatsiya darajasi yiliga 12%ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4% (16%-12%) tashkil etadi.

**Investisiya talabining egri chizig‘i** istalgan investisiya hajmi ( $I$ ) va real foiz stavkasi miqdori ( $r$ ) o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatadi. Real foiz stavkasi, ya’ni pul kapitalini qarzga olish bahosi qanchalik yuqori bo‘lsa, investisiyalashni xohlovchilar shuncha kam bo‘ladi va aksincha real foiz stavkasi qanchalik past bo‘lsa, foyda keltiradigan investisiya loyihalari shuncha ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun ham investisiya funksiyasi grafigi quyiga qarab og‘ma bo‘ladi.



24-rasm. Investisiya va foiz stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlik grafigi

Makroiqtisodiy siyosatda foiz stavkasi bilan investisiya hajmi o‘rtasidagi mavjud bog‘liqlik hisobga olinadi va keng foydalilaniladi.

Foiz stavkasining miqdori pul-kredit siyosatining muhim quroli hisoblanadi: davlat uni o‘zgartirish orqali mamlakatdagi pul taklifini tartibga solib turadi.

Foiz stavkasining ko‘tarilishi pulning qimmatlashuvni va unga bo‘lgan talabning qisqarayotganini bildiradi. Demak, investisiya harajatlari ham qisqarib boradi. O‘z navbatida, investisiya harajatlarining qisqarishi kelajakda milliy ishlab chiqarish hajmining pasayishini bildiradi.

## **5. O‘zbekiston Respublikasida chet el investisiyalarini tartibga solish mexanizmini rivojlantirishning mantiqiylarini**

Islohotlar dasturi resurslar, yuqori malakali mutaxassislar va eng yangi texnologiyalarga g‘oyat katta ehtiyoj sezmoqda. Tub yangilanish, yirik investisiyalar talab qilinmaydigan tarmoqning o‘zi yo‘q. Mamlakatimiz oldida bugun ishlab chiqarishning zamonaviy texnika bazasini barpo etish, zamonaviy aloqa vositalari va ommaviy kompyuterlashtirishni amalga oshirish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash vazifasi turibdi. Yangi energiya manbalari va boshqa shoshilinch muammolar yechimini kutmoqda. Respublika rahbariyatining mamlakatimizda qulay investisiya muhitini shakllantirish, xorijiy investisiyalarni jalb etishga g‘oyat katta e’tibori, kuch-g‘ayrati ayni shu holat bilan izohlanadi.

Sarmoya joylashtirishning samarali bozori hisoblanuvchi O‘zbekiston Respublikasi mamlakat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligiga bosqichma-bosqich integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tashqi iqtisodiy siyosatni izchil amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining chet el investisiyalarini jalb qilish sohasidagi qonunchiligini faol shakllantirish va takomillashtirish amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarda respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishga qaratilgan, shu jumladan, chet El investorlarini jalb qilish va himoyalash, valyuta jihatidan tartibga solish, soliq, chet el investisiyasi bo‘lgan korxonalarini barpo etish va ro‘yxatga olish masalalariga doir bir qator qonunchilik va me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi chet el investisiyalarini himoyalashni nazarda tutuvchi va bu masalalar bo‘yicha bahslarni ko‘rib chiqish tartibini belgilab beruvchi xalqaro huquqiy shartnomalar va bitimlarga qo‘sildi.

O‘zbekiston Respublikasi AQSh, Germaniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Isroil va bir qator

boshqa mamlakatlar bilan investisiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoyalash to‘g‘risida bitimlar tuzdi.

Xorijiy investor o‘z investisiyalarining ob‘ektlari va natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqiga ega.

Chet el investorlari va ularning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi sheriklariga ishlab chiqarish xonalarini, binolarni, uskunalar va uy-joylarni tanlov asosida sotib olish, shuningdek, yer uchastkalarini uzoq muddatga ijaraga olish huquqi beriladi, chet el investorlarining xususiyashtirish jarayonlarida ishtirokini kengaytirish dasturi ham ishlab chiqilmoqda. Chet el investorlari xizmat ko‘rsatish sohasi ob‘ektlarini ularga ajratilgan yer uchastkalari bilan birga xususiy mulk qilib sotib olishlari mumkin.

Chet el investisiyalar bo‘lgan korxona amaldagi qonunlarga binoan o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni lisensiylasiz eksportga chiqarish va o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish huquqiga egadir. O‘z ishlab chiqarishining eksportga chiqarilayotgan mahsulotlar va o‘z ehtiyojlari uchun korxonalar tomonidan import qilinayotgan mahsulotlarning ro‘yxati (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi) tomonidan belgilanadi.

O‘zbekistonda chet el investisiyalar to‘g‘risidagi dastlabki qonun 1991 yil iyunidayoq qabul qilindi. Keyingi yilning iyulida esa mamlakat parlamenti bu qonunning yangi tahririni qabul qildi. 1994 yilning 5-mayida qonun chiqaruvchilar O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investisiyalar va chet el investorlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi yangi qonunni tasdiqlashdi. Bu qonun chet el investisiyalarini himoyalashning ilgarigi qonunda ko‘zda tutilgan kafolatlarini faqatgina mustahkamlamasdan, balki bir qator hollarda ularni kuchaytirdi.

1998-yili Oliy Majlis investisiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi uchta qonunni-1998 yil 30 aprelda O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investisiyalar to‘g‘risida» va «Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarini himoya qilish choralarini to‘g‘risida»gi hamda 1998 yil 24 dekabrda «Investisiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlarni bir yo‘la qabul qildi. Bu qonunlar mamlakatimizda investisiya muhitini yaxshilashga va uning iqtisodiyotiga sarmoya joylashtirish hajmlarini oshirishga yo‘naltirilgan edi.

Umuman olganda, aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi hududida investisiya faoliyatining umumiy huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari qonun jihatidan belgilangan. Ular

investisiya faoliyatining milliy va xorijiy sub'ektlari uchun qulay sharoitlarni yaratish, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, respublikaning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini samarali rivojlantirish maqsadlarida investisiya faoliyati sub'ektlarining huquqiy manfaatlari, mol-mulki va sanoat-intellektual mulki davlat tomonidan himoyalanishini ta'minlashga qaratilgandir.

### **Mavzu №8 buyicha savollar**

1. Daromad - iste'mol va daromad – jamg'arma o'rtasidagi bog'liqlik.
2. Iste'mol va jamg'arish grafiklari.
3. Iste'mol va jamg'arishning o'rtacha hamda cheklangan miqdori.
4. Investisiyalar. Investisiyalarga talab egri chizig'i.
5. Investisiya darajasiga ta'sir etuvchi omillar.
6. O'zbekiston Respublikasida chet el investisiyalarining mantiqiy asoslari.

## MAVZU № 9

### Fiskal siyosat

#### Mavzuda ko‘rib chiqiladigan savollar:

1. *Fiskal siyosat, uning maqsad va instrumentlari*
2. *Fiskal siyosat instrumentlarining yalpi talabga (AD) ga ta’siri*
3. *Fiskal siyosat ko‘rinishlari*
4. *Fiskal siyosat instrumentlarining yalpi taklif (AS) ga ta’siri*

#### Tayanch iboralar

Fiskal siyosat (soliq-byudjet siyosati), fiskal siyosat instrumentlari, soliqlar, transfertlar, iste’mol va investisiyalar, davlat byudjetining daromadlari, davlat byudjetining harajatlari, yalpi talab, yalpi taklif, barqaror iqtisodiy o’sish, resurslarning to’liq bandligi, barqaror narx darajasi, rag‘batlantiriluvchi fiskal siyosat, pasaytiriluvchi fiskal siyosat, diskresion fiskal siyosat, nodiskresion fiskal siyosat.

#### Adabiyotlar

1. Karimov I. A. “O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chugurlashtirish yo‘lida”, Toshkent, “O’zbekiston”, 1995y.
2. Yo’ldoshev Z. Qosimov M. “Makroiqtisodiyot asoslari” Toshkent, “O’qituvchi” 1994y.
3. Hakimova M. “Makroiqtisodiyot”, Toshkent “Mehnat”, 1997y.
4. Agapova T. A. Seregina S. F. “Makroekonomika”, Moskva-Ufa, 1995y.
5. Abdullaev Yo. “Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob” – Toshkent “Mehnat”, 1997y.
6. Makkonnell K., Bryu S. “Ekonomiks” t 1-2, Moskva “Respublika”, 1992y.
7. Grigori N. Menkyu. “Makroekonomika” Moskva, MGU., 1994y.
8. Burdo M., Viplosh Ch. “Makroekonomika” (Yevropeyskiy tekst), S. Peterburg.
9. Kostyak V. N. “Makroekonomika” -M., 1998
10. David N. Hyman: Economics. Richard D. IRWIN, INC. 1995.

#### 1. Fiskal siyosat, uning maqsad va instrumentlari

Fiskal siyosat davlat iqtisodiy siyosatining tayanchi hisoblanib, u davlat byudjeti daromadi yoki harajatlarini o‘zgartirish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuuni aks

ettiradi. Shuning uchun fiskal siyosat soliq-byudjet siyosati deb ham ataladi.

Davriy tebranishlarni oldini olishga, tekislashga (antisiklik choralar ko'rishga), ya'ni barqarorlikka qaratilgan har qanday siyosat kabi fiskal siyosatning maqsadlari quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

barqaror iqtisodiy o'sish;

resurslarning to'liq bandligi (eng avvalo davriy ishsizlik muammosini hal etishga);

barqaror narx darajasi (inflyatsiya muammosini hal etish).

Fiskal siyosat – bu eng avvalo hukumatning yalpi talabni ta'minlashga (tartibga solishga) qaratilgan siyosatidir. Iqtisodiyotni tartibga solish bunday sharoitda yalpi harajatlarga ta'sir etish orqali amalga oshiriladi. Ammo fiskal siyosatning ba'zi instrumentlari yalpi taklifga faollik darajasi orqali ta'sir etish uchun qo'llanilishi mumkin. Fiskal siyosatni hukumat olib boradi.

Fiskal siyosatning instrumentlari bo'lib davlat byudjetining daromad va harajatlari hisoblanadi:

davlat harajatlari;

soliqlar;

transfertlar.

## **2. Fiskal siyosat instrumentlarining yalpi talabga (AD) ga ta'siri**

Fiskal siyosat instrumentlarining yalpi talabga ta'siri turlichadir. Yalpi talab formulasidan:

$$AD = C + I + G + X_n$$

ma'lumki, davlat harajatlari (G) yalpi talabning tarkibiy qismidir, shuning uchun G ning o'zgarishi AD ga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, soliqlar va transfertlar esa ADga bilvosita ta'sir etadi (bunda ular ta'sirida iste'mol va investisiya harajatlari o'zgaradi, ya'ni C va I).

Davlat harajatlarining ortishi ADni oshirsa, ularning qisqarishi esa ADni kamayishiga olib keladi, chunki davlat harajatlari yalpi harajatlarining bir qismi hisoblanadi.

Transfertlarning ortishi ham ADni oshiradi. Bir tomonidan ijtimoiy transfert to'lovlarining ortishi uy xo'jaliklarining shaxsiy daromadlarini oshiradi, buning oqibatida esa iste'mol harajatlari or-

tadi. Ikkinchini bir tomondan, transfert to‘lovlari (subsidiya) ning fir-malarga berilishi firmalarning ichki moliyalash imkoniyatini oshiradi, bu esa investision harajatlarni oshishiga olib keladi. Sub-sidiyalarning qisqarishi esa AD ni kamayishiga olib keladi.

Soliqlarning ortishi teskari yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Soliqlarning oshirilishi ham iste’mol (chunki ixtiyordagi daromad kamayadi), ham investision (chunki sof investisiya manbai bo‘lgan taqsimlanmagan foyda kamayadi) harajatlarni, ya’ni C va I kamayishi, bundan esa ADni pasayishiga olib keladi. Tegishlichcha soliqlarning pasayishi AD ni oshiradi. Soliqlarning kamayishi AD egri chizig‘ini o‘ngga siljitadi va bunda real YaMM ham ortadi.


Shuning uchun fiskal siyosat instrumentlari iqtisodiy siklning turli fazalarida iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun ishlatalishi mumkin.

### 3. Fiskal siyosat ko‘rinishlari

Siklning fazasiga qarab, ya’ni iqtisodiyot hozirda qanday fazada ekanligiga ko‘ra, fiskal siyosat instrumentlari turlicha qo‘llaniladi. Fiskal siyosatning ikki turi mavjud:

- 1. Rag‘batlantiriluvchi fiskal siyosat.**
- 2. Pasaytiriluvchi fiskal siyosat.**

a) *Rag‘batlantiriluvchi fiskal siyosat.*      b) *Pasaytiriluvchi fiskal siyosat.*



25-rasm Fiskal siyosat turlari.

Rag‘batlantiriluvchi fiskal siyosat iqtisodiyotning tushkunlik davrida qo‘llaniladi (a-rasm), u ishlab chiqarish qisqarishini oldini olishga, ishsizlik darajasini kamaytirishga va AD ni oshirishga qaratilgan. Uning instrumentlari:

- a) davlat harajatlarini oshirish;
- b) soliqlarni pasaytirish;
- v) transfert to‘lovlarini ko‘paytirish.

Pasaytiriluvchi (ushlab turiluvchi) fiskal siyosat iqtisodiyot to‘liq bandlikka erishganda, ya’ni yuqori cho‘qqiga chiqqan (iqtisodiyot “qizigan”) davrda qo‘llaniladi, u ortiqcha ishlab chiqarishni kamaytirish, inflyatsiya sur’atlarini pasaytirish va AD (yalpi harajatlar) ni kamaytirishga qaratilgan. Uning instrumentlari:

- a) davlat harajatlarini kamaytirish;
- b) soliqlarni oshirish;
- v) transfert to‘lovlarini kamaytirish.

Bulardan tashqari fiskal siyosat:

**diskresion**

**nodiskresion (avtomatik)**

turlarga bo‘linadi.

Diskresion fiskal siyosat deganda, hukumatning qonuniy (rasmiy) ravishda iqtisodiyotni barqarorlashtirish maqsadida davlat harajatlarini, soliq va transferlarni o‘zgartirishini tushunmoq lozim.

Nodiskresion (avtomatik) fiskal siyosat avtomatik (o‘rnatilgan) stabilizatorlarning ta’sir etishi bilan bog‘liqdir. Avtomatik stabilizatorlar – bu kattaligi o‘zgartirilmaydigan instrumentlar hisoblanadi. Ammo ularning mavjudligi (iqtisodiy tizimga o‘rnatilganligi) ning o‘zi iqtisodiyotni avtomatik ravishda barqarorlashtiradi. Ular iqtisodiy tushkunlik davrida faollikni oshirib, iqtisodiyot «qizigan» paytda faollikni pasaytiradi. Avtomatik stabilizatorlarga quyidagilar kiradi:


- a) daromad solig‘i (u o‘ziga uy xo‘jaliklarining daromadlariga va korporatsiyalar foydalariga solinadigan soliqlarni oladi);
  - b) egri soliqlar (eng avvalo qo‘shilgan qiymat solig‘i);
  - v) ishsizlik bo‘yicha nafaqalar;
- va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

#### **4. Fiskal siyosat instrumentlarining yalpi taklif (AS) ga ta’siri**

Fiskal siyosat instrumentlari bo‘lgan soliqlar va transferlar faqatgina ADga emas, balki ular ASga ham ta’sir etadi. Soliqlarning kamaytirilishi va transfert to‘lovlaring oshirilishi iqtisodiyotni barqarorlashtirishda va tushkunlik davrida davriy ishsizlikka qarshi

kurashda, ya’ni yalpi harajatlarni oshirishda rag‘batlantiruvchi, faollikni va bandlikni oshiruvchi hisoblanadi. Shuni ham aytish joizki (keynsian modelda), soliqlarning pasayishi va transfertlarning oshirilishi bilan birga ishlab chiqarish hajmi oshsada, ammo bunda narx oshishi kuzatiladi (rasmida R1 dan R2 gacha), ya’ni inflyatsiyani keltirib chiqaradi.

## 26-rasm Laffer egri chizig‘i




o‘rgangan olim AQSh sobiq prezidenti R. Reyganning maslahatchisi, «taklif iqtisodiy nazariya»si konsepsiysi asoschilaridan biri bo‘lgan Artur Lafferdir. Laffer shunday bir gipotetik egrini yaratdiki, u orqali soliq stavkasi o‘zgarishi tufayli davlat byudjetiga tushadigan umumiyligi soliq tushumlari o‘zgarishini ko‘rish mumkin (bu egrini statistik deb atalishining sababi, Laffer unda o‘z xulosalarini statistik ma’lumotlar asosida emas, balki gipoteza orqali, ya’ni logik mulohaza orqali tushuntirib berdi).

Bu egrini chiziqdagi optimal soliq stavkasi ko‘rsatilgan bo‘lib (topt), bunday soliq stavkasida soliq tushumlari maksimal ( $T_{max}$ ) bo‘ladi. Agar soliq stavkasi oshirilsa (topt dan), u holda faollik darajasi pasayadi va soliq tushumlari qisqaradi, chunki soliq bazasi –  $Y$  kamayadi. Shuning uchun stagflyatsiyaga qarshi kurashda (ya’ni bir paytda ishlab chiqarishning tushib ketishi va inflyatsiyada) 80-yillarda Laffer soliq stavkasini tushirish chorasi taklif etdi (ham daromad solig‘lini, ham korporatsiyalar foydasiga soliqlarni).

Gap shundaki, soliqlarni pasaytirish yalpi talabni oshirib ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirsa va inflyatsiyaga olib kelsa, ASga u anti-inflyatsion chora sifatida ta’sir etadi, ya’ni ishlab chiqarish hajmining oshishi ( $Y_1$  dan  $Y^*$  gacha) narx darajasini pasayishi bilan kuzatiladi.

Shuning uchun iqtisod cho‘qqiga chiqqan davrda faollikni kamaytiruvchi, antiinflyatsion chora-tadbirlar bo‘lib soliqlarni oshirish va transfertlarni kamaytirish hisoblanadi. Ammo flrmalar uchun soliqlar harajat hisoblanadi va soliqlarning oshirilishi ASni qisqarishiga, soliqlarni kamaytirilishi ASni oshishiga (faollikni va ishlab chiqarish hajmini oshishiga) olib keladi. Soliqlarning ASga ta’sirini



**27-rasm Soliqlar pasayishining AS ga ta'siri**

**Mavzu №9 bo'yicha savollar:**

1. Davlatning fiskal siyosati deganda nimani tushunmoq lozim?
2. Fiskal siyosat instrumentlari.
3. Fiskal siyosat instrumentlarining AD ga ta'sirini tushuntiring.
4. Fiskal siyosat turlari.
5. Fiskal siyosat instrumentlarining AS ga ta'sirini tushuntiring.
6. Laffer egri chizig'ini tushuntiring.

## **Davlat byudjeti. Davlat byudjeti taqchilligi va davlat qarzları**

### **Mavzuda ko‘rib chiqiladigan savollar:**

1. *Davlat byudjeti: davlat byudjetining daromad va harajatlari*
2. *Davlat byudjeti holatining ko‘rinishlari*
3. *Davlat byudjeti kamomadi va uning ko‘rinishlari*
4. *Davlat byudjeti konsepsiyalari*
5. *Davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish yo‘llari*
6. *Davlat qarzi, uning turlari va oqibatlari.*

### **Tayanch iboralar**

Davlat byudjeti, davlat byudjetining daromadlari va harajatlari, tovar va xizmatlarning davlat xaridi, transfertlar, davlat obligatsiyalari bo‘yicha foiz to‘lovlari, soliqlar, davlat byudjeti ortiqchaligi (profisit), davlat byudjeti kamomadi (defisit), iqtisodiy sikl fazalari, byudjet kamomadining strukturaviy ko‘rinishi, byudjet kamomadining davriy ko‘rinishi, byudjet kamomadining amaldagi ko‘rinishi, senioraj, pul emissiyasi, ichki qarz, tashqi qarz, davlat obligatsiyalari, to‘lov balansi

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I. A. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chugurlashtirish yo‘lida”, Toshkent, “O‘zbekiston”, 1995y.
2. Yo‘ldoshev Z. Qosimov M. “Makroiqtisodiyot asoslari” Toshkent, “O‘qituvchi” 1994y.
3. Hakimova M. “Makroiqtisodiyot”, Toshkent “Mehnat”, 1997y.
4. Agapova T. A. Seregina S. F. “Makroekonomika”, Moskva-Ufa, 1995y.
5. Abdullaev Yo. “Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob” – Toshkent “Mehnat”, 1997y.
6. Makkonnell K., Bryu S. “Ekonomiks” t 1-2, Moskva “Respublika”, 1992y.
7. Grigori N. Menkyu. “Makroekonomika” Moskva, MGU., 1994y.
8. Burdo M., Viplosh Ch. “Makroekonomika” (Yevropeyskiy tekst), S. Peterburg.
9. Kostyak V. N. “Makroekonomika”-M., 1998
10. David N. Hyman: Economics. Richard D. IRWIN, INC. 1995.

## **1. Davlat byudjeti: davlat byudjetining daromad va harajatlari**

**Davlat byudjeti** deganda umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida hosil bo‘luvchi va sarflanuvchi moliyaviy resurslar tushuniladi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi vazifalarni hal qilishdir.

Davlat byudjeti – bu ma‘lum davr ichidagi (odatda 1 yil) davlat daromadlari va harajatlarining balanslashuvi hisoblanib, u mam-lakatning asosiy moliyaviy rejasini aks ettiradi va hukumatning qonun qabul qiluvchi organi hisoblangan Oliy Majlis (parlament, davlat dumasi, kongress) tomonidan qabul qilingandan so‘ng ijro uchun qonuniy va majburiy tus oladi.

O‘z funksiyalarini amalga oshirishda davlat juda ko‘p harajatlar qiladi. Qanday maqsadda ishlatalishiga ko‘ra davlat harajatlari quyidagilarga bo‘linadi:

**siyosiy maqsadlarni** amalga oshirish uchun: milliy himoya va havfsizlikni ta‘minlash harajatlari, ya’ni armiya, polisiya, sudlarni va boshqalarni ta‘minlashga ketadigan harajatlar, davlatning boshqaruв apparatini ta‘minlashga ketadigan harajatlar;

**iqtisodiy maqsadlarga** sarf-harajatlar: iqtisodiyotda davlat sektorining faoliyat yuritishini ta‘minlash uchun ketadigan harajatlar, iqtisodiyotning xususiy sektoriga yordam berish uchun (subsidiyalar) ketadigan harajatlar;

**ijtimoiy maqsadlarni** amalga oshirish uchun qilinadigan harajatlar: ijtimoiy ta‘minot harajatlari (pensiylar, stipendiyalar, nafaqalar), ta’lim, sog‘liqni saqlash, fundamental fanlar rivojiga, atrof-muhit muhofazasiga qilinadigan harajatlar.

Makroiqtisodiyot nuqtai nazaridan davlat harajatlari quyidagi-larga bo‘linadi:

tovar va xizmatlarning davlat xaridi (YalMga kiritiladi)

transfertlar (YalMga kiritilmaydi)

davlat obligatsiyalari bo‘yicha foiz to‘lovlari (davlat qarzi xizmati hisoblanadi).

Daromadlarning asosiy manbai bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

soliqlar (ijtimoiy sug‘urta badallarini ham o‘z ichiga oladi);

davlat korxonalaridan keladigan foyda;

senoraj (pul emissiyasidan tushadigan daromad);

xususiy lashtirishdan tushadigan daromad.

## **2. Davlat byudjeti holatining ko‘rinishlari**

Davlat harajatlari va daromadlari o‘rtasidagi farq davlat byudjeti saldosini tashkil etadi. Davlat byudjeti ko‘rinishi uch holatda bo‘lishi mumkin:

1. Daromadlar harajatlardan yuqori ( $T > G$ ), byudjet saldosi musbat, bunda davlat byudjeti ortiqchaligi (profisit) kuzatiladi.
2. Daromadlar harajatlarga teng ( $T = G$ ), byudjet saldosi 0 ga teng, ya’ni byudjet balanslashgan bo‘ladi.
3. Daromadlar harajatlardan kam ( $T < G$ ), byudjet saldosi manfiy, ya’ni davlat byudjeti taqchilligi (defisit) kuzatiladi.

Iqtisodiy siklning turli fazalarida davlat byudjeti holati turlicha bo‘ladi. Pasayish fazasida byudjet daromadi qisqaradi (chunki iqtisodiy faollik susayadi va oqibatda soliq bazasi kamayadi), shuning uchun davlat byudjeti taqchilligi (agar u avvaldan mavjud bo‘lgan bo‘lsa) ortadi, profisit (agar u mavjud bo‘lgan bo‘lsa) qisqaradi. Yuqori, ya’ni cho‘qqi deb atalmish fazada aksincha, byudjet defisiti kamayadi (chunki soliq tushumlari, ya’ni byudjet daromadi ortadi), profisit esa ortadi.

## **3. Davlat byudjeti kamomadi va uning ko‘rinishlari**

Har bir davlat byudjetning daromad qismi bilan harajat qismining teng bo‘lishini ta’minlashga harakat qiladi. Ammo amalda har doim harajat daromadga nisbatan ko‘proq bo‘ladi. Natijada byudjet taqchilligi hosil bo‘ladi. Uning paydo bo‘lishi qator sabablarga bog‘liq:

ishlab chiqarishning pasayishi;

ijtimoiy dasturlarga ko‘zlangan harajatlardan ko‘proq sarflab qo‘yish;

mudofaaga harajatning oshib ketishi;

- ko‘lankali (pinhoniy) iqtisodiyotning o‘sishi.

Byudjet kamomadining strukturaviy, davriy va amaldagi ko‘rinishlari mavjud.

Byudjet kamomadining strukturaviy ko‘rinishi resurslarning to‘liq bandligi sharoitida, mavjud bo‘lgan soliq tizimida davlat harajatlari va daromadlari o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

$$B = G - t Y^*$$

B - byudjetning strukturaviy kamomadi;

G - davlat xaridi;

t - coliq stavkasi;

Y\* - potensial YalM.

Davriy kamomad – bu amaldagi kamomad va strukturaviy kamomad o‘rtasidagi farq bilan aniqlanadi.

$$\mathbf{B}^c = \mathbf{B} - \mathbf{B}^s = (\mathbf{G} - t\mathbf{Y}) - (\mathbf{G} - t\mathbf{Y}^*) = t(\mathbf{Y}^* - \mathbf{Y})$$

$\mathbf{B}^c$  - byudjetning siklik (davriy) kamomadi;

$\mathbf{B}$  - amaldagi byudjet kamomadi;

$\mathbf{B}^s$  - byudjetning strukturaviy kamomadi;

G - davlat xaridlari

t - soliq stavkasi;

Y - amaldagi YalM;

$\mathbf{Y}^*$  - potensial YalM.

Pasayish davrida amaldagi kamomad strukturaviy kamomaddan katta bo‘ladi, chunki strukturaviy kamomadga davriy kamomad qo‘shiladi (resessiyada  $Y < Y^*$ ). Yuksalish davrida amaldagi kamomad strukturaviy kamomaddan davriy kamomadning absolyut kattaligiga kamdir, chunki cho‘qqi fazada  $Y > Y^*$ . Strukturaviy kamomad rag‘batlantiruvchi diskresion fiskal siyosatning, davriy kamomad esa – bu avtomatik fiskal siyosatning, ya’ni avtomatik stabilizatorlar ta’sirining natijasidir.

Shuningdek byudjetning joriy va birlamchi kamomadi mavjud. Joriy byudjet kamomadi (yoki byudjetning joriy kamomadi) davlat byudjetining umumiy kamomadini bildiradi. Byudjetning birlamchi kamomadi umumiy (joriy) kamomad va davlatning qarzlar xizmati bo‘yicha to‘lagan to‘lovlari o‘rtasidagi farq bilan aniqlanadi.

#### 4. Davlat byudjeti konsepsiyalari

Byudjet kamomadiga bo‘lgan munosabat salbiy hisoblanadi. Balanslashgan byudjet g‘oyasi eng mashhur hisoblanadi. Tarixan davlat byudjeti holatiga bo‘lgan munosabat uchta konsepsiya orqali ilgari surilgan:

1. Byudjetning yiliga balanslashuvi g‘oyasi
2. Byudjetning iqtisodiy sikl fazalari bo‘yicha balanslashuvi g‘oyasi (davriylik asosida)
3. Byudjetning balanslashuvi emas, balki iqtisodiyotning balanslashuvi g‘oyasi.

**Byudjetning yiliga balanslashuvi** konsepsiysi deganda iqtisodiy siklning har qanday fazasida har yili byudjet harajatlari daromadlariga teng bo‘lishi tushuniladi. Bu degani, masalan agar pasayish

davrida byudjet daromadlari (soliq tushumlari) minimal bo‘lganda davlat byudjetni balanslashtirish uchun davlat o‘z harajatlarini (davlat xaridi va transfertlarni) pasaytirishi kerak bo‘ladi. Davlat xaridlari va transfertlarni kamaytirish tadbiri esa yalpi talabni va ishlab chiqarish hajmini kamayishiga, yanada chuqurroq iqtisodiy pasa-yishga olib keladi. Va aksincha, agar iqtisod rivojlanishning cho‘qqisiga chiqqan, ya’ni soliq tushumlari maksimal bo‘lgan davrida bo‘lsa, davlat harajatlari va daromadlarini tenglashtirish uchun davlat harajatlarni oshirishi lozim, bunda endi iqtisod yanada qizib jonlanadi va inflaytsiyani kuchaytiradi. Xulosa qilib aytish kerakki, davlat byudjetini balanslashtirishning bunday yo‘lini nazariy jihatdan to‘g‘ri deb hisoblab bo‘lmaydi.

**Byudjetni iqtisodiy sikel fazalari asosida balanslashtirish konsepsiysi** esa har yili balanslashgan byudjet bo‘lishini zarur deb hisoblamaydi. Muhimi byudjet sikel davomida balanslashgan bo‘lishi lozim: iqtisod «qizigan» va cho‘qqiga chiqqanda (iqtisodiy faoliyk yu-qori bo‘lgan sharoit), byudjet daromadi maksimal bo‘lganda byudjet-dagi ortiqchalik resessiya (iqtisodiy faoliyk minimal bo‘lgan sharoit) davrida, byudjet daromadlari keskin kamaygan paytda byudjet taqchiligini moliyalashtirishda ishlatalishi mumkin. Bu konsepsiya ham kamchilikdan holi emas. Gap shundaki, iqtisodiy siklning yuqori (cho‘qqi) fazasi va resessiya davri davomiyligi va chuqurliligi bilan farqlanadi. Shuning uchun cho‘qqi davridagi byudjetdagagi ortiqchalik tushkunlik davridagi taqchillik (defisit) bilan mos kelmaydi, shuning uchun byudjet balanslashuvini ta’minalash mumkin bo‘lmay qoladi.

Eng keng tarqalgan konsepsiya bu **davlatning byudjetni balanslashtirishga qaratilgan emas, balki iqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishishni maqsad qilib qo‘yan konsepsiysi** hisoblanadi. Bu g‘oya Keynsning «Bandlikning, foiz va pullarning umumiylazariyasi» deb atalgan kitobida (1936 y.) ilgari surilgan va iqtisodi rivojlangan davatlarda 70-yillarning o‘rtalariga qadar faol qo‘llanilgan. Keyns fikricha, davlat byudjeti instrumentlari (davlat harajatlari, soliqlar va transfertlar) antisiklik, iqtisodiyotni barqarorlashtiruvchi regulyatorlar sifatida siklning turli fazalarida qo‘llanilishi kerak bo‘ladi. Agar iqtisodda pasayish bo‘lsa, u holda davlat iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va iqtisodiy o‘sishga erishish maqsadida o‘z harajatlarini (davlat xaridi va transfertlarni) oshirishi lozim va soliqlarni pasaytirishi kerak, buning oqibatida esa AD ortadi. Va ak-

sincha, agar iqtisod «qizigan» davrni boshdan kechirayotgan bo‘lsa, u holda davlat harajatlarni qisqartirib, soliqlarni oshirishi lozim, buning natijasida iqtisodiy faoliyat pasayadi va iqtisod «soviydi», bu esa barqarorlikni ta‘minlab beradi. Davlat byudjetining holati bunda hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Keyns nazariyasi resessiya, ya’ni iqtisodning pasayish davri bilan kurashishga yo‘naltirilgani va unda eng avvalo byudjetni tartibga solishda uning instrumentlari (davlat xaridi va transfertlarni, ya’ni byudjet harajatlarini oshirish va soliqlarni, ya’ni daromadlarni kamaytirish) dan foydalanishni tatbiq etish lozimligi sababli, bu nazariya «moliyaviy kamomad (defisit) » g‘oyasiga asoslangan. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda 50-60 yillarda bunday keynsian reseptining qo‘llanilishi 70-yillar o‘rtalariga kelib byudjet taqchilligining surunkali bo‘lib qolishiga va makroiqtisodiy muammolardan biri hisoblanib, inflyatsion jarayonlarni kuchayishiga olib keldi.

### **5. Davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish yo‘llari**

Davlat byudjeti kamomadi 3 usulda moliyalashtirilishi mumkin:

- pul emissiyasi hisobiga;
- o‘z mamlakati aholisidan qarz olish hisobiga (ichki qarz)
- boshka mamlakatlardan yoki xalqaro moliyaviy tashkilatlardan qarz olish hisobiga (tashqi qarz).

Birinchi usul davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirishning emission yoki pullik usuli hisoblanadi, ikkinchi va uchinchi usul esa majburiyatli usul hisoblanadi. Har bir usulning afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo‘lib, biz ularni quyida ko‘rib chiqamiz.

**Davlat byudjeti taqchillagini moliyalashtirishning emission usuli.** Bu usulda davlat (Markaziy bank) pul massasi hajmini oshiradi, ya’ni muomalaga qo‘srimcha pullarni chiqaradi, uning yordamida esa harajatlarni qoplaydi.

**Davlat byudjeti taqchillagini moliyalashtirishning emission usuli afzalliklari:**

pul massasi hajmining oshishi yalpi talabni oshiradi va buning natijasida ishlab chiqarish hajmi ortadi. Pul taklifi ortishi pul bozorida foiz stavkasini pasayishiga (kredit narxini arzon bo‘lishiga) olib keladi, bu esa investisiyalarni, yalpi harajatlar va ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Bu chora iqtisodga rag‘bat beruvchi va uni resesiyasi holatidan chiqib ketishiga xizmat qilishi mumkin;

bu chorani tez amalga oshirish mumkin. Bunda shuni aytib o'tish joizki, pul massasining ko'payishi yoki Markaziy bank ochiq bozorda operasiyalar o'tkazib davlatning qimmatbaho qog'ozlarini sotib olganda va sotuvchilarga (uy xo'jaliklari va firmalarga) bu qimmatbaho qog'ozlarning narxini to'lab muomalaga qo'shimcha pullarni chiqarganda (bunday sarfni u har qanday vaqtida va har qanday hajmda amalga oshirishi mumkin) yoki to'g'ridan-to'g'ri pul emissiyasi (har qanday zarur hajmda pulni muomalaga chiqarish) ni amalga oshirganda sodir bo'ladi.

**Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishning emission usuli kamchiliklari:**

eng asosiy kamchiligi uzoq muddatda pul massasining ortishi inflyatsiyaga olib keladi, ya'ni moliyalashtirishning inflyatsion usuli hisoblanadi;

bu usul iqtisod «qizigan», cho'qqiga chiqqan davrda beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Pul massasi hajmining ortishi oqibatida foiz stavkasining tushishi yalpi harajatlar (eng avvalo investision) ni oshishiga olib kelib, yanada ko'proq iqtisodiy faollikni, inflyatsiyani kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.

**Davlat byudjeti taqchilligini ichki qarz hisobiga moliyalashtirish usuli.** Bu usulda davlat qimmatbaho qog'ozlarni (davlat obligasiyalarini va veksellarni) chiqarib ularni aholiga (uy xo'jaligi va firmalarga) sotadi va olgan pul vositalarini byudjet kamomadini moliyalashtirishga sarflaydi.

**Bu usulning afzalliklari:**

u inflyatsiyani keltirib chiqarmaydi, chunki pul massasi o'zgarmaydi, ya'ni bu moliyalashtirishning noinflyatsion usuli hisoblanadi;

bu yetarli darajada tezkor usul, chunki davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish va sotishni tez amalga oshirishi mumkin. Rivojlangan davlatlar aholisi davlatning qimmatli qog'ozlarini juda yaxshi sotib oladilar, chunki ular yuqori likvidli hisoblanadi (ularni tez va oson sotish mumkin – bular «deyarli-pullar»), ularga ishonch katta (ishonchli bo'lgan davlat tomonidan kafolatlanadi) va yetarli darajada daromadli (ular bo'yicha foiz to'lanadi).

**Bu usulning kamchiliklari:**

qarzlarni to'lash kerak bo'ladi. Tabiiyki, aholi davlat obligasiyalarini daromad keltirmasa, ya'ni agar ular bo'yicha foiz

to‘lanmasa sotib olmaydi. Davlat obligatsiyalari bo‘yicha foiz to‘lash «davlatning qarz bo‘yicha xizmati» deb ataladi. Davlat qarzi qanchalik katta bo‘lsa (ya’ni davlat obligatsiyalari qanchalik ko‘p chiqarilgan bo‘lsa), qarz xizmatiga sarflanadigan pul shunchalik ko‘p bo‘ladi. Davlat obligatsiyalari bo‘yicha to‘lanadigan foizlar esa davlat byudjeti harajatlarining bir qismi hisoblanadi, u qanchalik ko‘p bo‘lsa, davlat byudjeti kamomadi shunchalik yuqori bo‘ladi. Nu-qsonli bir vaziyat tug‘iladi: davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish uchun davlat obligatsiyalar chiqaradi, bu obligatsiyalar bo‘yicha foizlar to‘lash esa o‘z ketidan byudjetning yanada ko‘proq taqchil bo‘lishiga olib keladi.

paradokski, bu usul uzoq muddatda noinflyatsion bo‘lmaydi. Amerikalik ikki iqtisodchi Tomas Sarjent (Nobel mukofoti laureati) va Neyl Uolles uzoq muddatda davlat byudjeti kamomadini qarz hisobiga moliyalashtirish emissiya usuliga qaraganda yanada yuqoriroq darajadagi inflyatsiyaga olib kelishini isbotlab berdilar. Iqtisodiy adabiyotlarda bu g‘oya «Sarjent-Uolles teoremasi» nomini olgan. Gap shundaki, davlat byudjet kamomadini ichki qarz hisobiga (davlat obligatsiyalarni chiqarish) moliyalashtirganda moliyaviy piramida quradi, ya’ni ilgarigi qarzlarini hozirda qarz olish bilan to‘laydi, hozirdagi qarzni esa kelgusida qaytarish kerak bo‘ladi, bunday qarzni to‘lash esa qarzni o‘zini va qarz bo‘yicha foiz to‘lashni talab etadi. Agar davlat byudjet kamomadini moliyalashtirishning faqat shu usulini qo‘llasa, kelgusida shunday vaqt kelishi mumkinki, kamomad shu darajada katta (ya’ni shunday miqdorda davlat obligatsiyalari chiqariladiki va davlat qarzlarini xizmati buyicha harajatlar shunchalik ko‘p) bo‘ladiki, uni bu usulda moliyalashtirish mumkin bo‘lmay qoladi va emission usuldan foydalanish kerak bo‘lib qoladi. Bunda endi har yili asta-sekin kichik miqdorlarda o‘tkaziladigan emissiya qaraganda ancha katta miqdordagi pul emissiyasini o‘tkazish lozim bo‘ladi. Bu esa inflyatsiya darajasi keskin ko‘tarilib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Sarjent va Uolle, ko‘rsatganlaridek, yuqori darajadagi inflyatsiyaga olib kelmasligi uchun moliyalashtirishning emission usulini rad etmasdan uni qarz usuli bilan birlgilikda olib borish kerak bo‘ladi;

byudjet kamomadini moliyalashtirishni ichki qarz hisobiga amalga oshirishda xususiy investisiyalar «siqib chiqaruvchi samara» kamchiligidan xoli emas. Bu samara shuni bildiradiki, davlat obligatsiyalarining qimmatli qog‘ozlar bozorida ko‘plab chiqarilishi uy

xo'jaliklari jamg'armalarining bir qismi xususiy firmalarning qimmatbaxo qog'ozlarini sotib olishga emas (aks holda ishlab chiqarish kengayadi va iqtisodiy o'sish yuz beradi), aynan davlat chiqargan qimmatbaxo qog'ozlarni sotib olish uchun sarflanishiga olib keladi (bu davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirishni taminlab beradi, ya'ni noishlab chiqarish maqsadida sarflanadi). Bunday xolat xususiy firmalar moliyaviy resurslarini va investisiyalarini qisqartiradi. Nati-jada ishlab chiqarish hajmi kamayadi. «Siqib chiqaruvchi samara»ning iqtisodiy mexanizmi quyidagicha: davlat obligatsiyalar miqdorining ko'payishi qimmatli qog'ozlar bozorida obligatsiyalar taklifini oshiradi. Obligatsiyalar taklifining oshishi ular bozor narxining tushishiga olib keladi, obligatsiyalar narxi foiz stavkasi bilan teskari bog'liqlikda, shuning uchun foiz stavkasi oshadi. Foiz stavkasining oshishi xususiy investisiyalar va ishlab chiqarish ha-jmini qisqarishiga sabab bo'ladi;

davlat byudjetini moliyalashtirishning ichki qarz usuli to'lov balansi taqchilligiga olib kelishi mumkin. Tasodif emaski, AQShda 80-yillarda «qo'shalok taqchillik» («twin-deficits») termini paydo bo'ldi.

Foiz stavkasini oshishi ichki siqib chiqarish bilan birga sof eksportni siqib chiqarishga olib kelishi, ya'ni to'lov balansi taqchillagini oshirishi mumkin. Tashqi siqib chiqarish mexanizmi quyidagicha: ichki foiz stavkasini jahondagiga nisbatan oshishi ushbu mamlakat qimmatli qog'ozlarini daromadliroq bo'lishiga sabab bo'ladi, bu esa ularga chet el investorlari tomonidan bo'ladigan talabni oshiradi, o'z o'rnila milliy valyutaga talab oshadi va milliy valyutaning almashuv kursi oshishiga olib kelib, ushbu mamlakat tovarlarini chet elliklar uchun nisbatan qimmatlashtiradi (chet elliklar o'z valyu-talarini ushbu mamlakat tovarlarini ilgarigi miqdorda sotib olish uchun endi ko'proq miqdorda almashtirishlari kerak bo'ladi), import tovarlari ushbu mamlakat iste'molchilari uchun nisbatan arzon bo'ladi (endi ular ilgarigi miqdorda tovarlar sotib olishlari uchun milliy valyutani kamroq almashtiradilar), bu esa eksportni pasayti-radi va importni oshiradi, o'z o'rnila sof eksport qisqaradi, ya'ni to'lov balansi taqchilligi yuzaga keladi.

## **Davlat byudjetini tashqi qarz orqali moliyalashtirish**

Byudjetni bunday moliyalashtirishda taqchillik muammosi boshqa mamlakatlardan yoki xalqaro moliyaviy tashkilotlardan qarz olish hisobiga amalga oshiriladi (Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon Banki, London klub, Parij klub va boshqalar). Ya’ni bu ham qarz hisobiga moliyalashtirish, ammo endi tashqi qarz hisobiga.

### **Bu usul afzalliklari:**

katta miqdorda mablag‘olish imkoniyati;  
noinflyatsion xarakterga ega ekanligi.

### **Bu usul kamchiliklari:**

qarzni qaytarish va unga xizmat qilish majburiyati (ya’ni qarz miqdorini ham, qarz bo‘yicha foizlarni ham qaytarish);  
tashqi qarzni to‘lashda moliyaviy piramida qurib bo‘lmasi; mamlakat iqtisodiyotidan tashqi qarz va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov majburiyatlarini jalb qilish zarurligi, bu ichki ishlab chiqarish hajmi kamayishiga va iqtisodiyot pasayishiga olib keladi;  
to‘lov balansi taqchilligida mamlakat oltin zahirasi kamayishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirishning har qanday usuli o‘z afzalliklari va kamchiliklariga ega.

## **6. Davlat qarzi, uning turlari va oqibatlari**

Davlat qarzini ikki turga ajratadilar:

1. Ichki qarz
2. Tashqi qarz.

Davlat qarzining bu ikki turi yuqorida ko‘rib o‘tildi.

Absolyut kattaligi bo‘yicha davlat qarzini iqtisodiyotga salbiy ta’sirini aniqlash mushkul. Buning uchun davlat qarzi kattaligini milliy daromad kattaligiga yoki YalMga nisbati olinadi, ya’ni d=D/Y. Agar qarzning o‘sish darajasi sur’atlari YalMning o‘sish darajasi sur’atlaridan past bo‘lsa, qarz unchalik xatarli hisoblanmaydi. Iqtisodiy o‘sishning past sur’atlarida davlat qarzlarini jiddiy makroiqtisodiy muammoga aylanadi.

Davlat qarzlarining jiddiy muammo ekanligi va salbiy oqibatlari quyidagilarda ko‘rish mumkin:

iqtisodiyotning samaradorligi pasayadi, chunki moliyaviy aktivlar ishlab chiqarish sektoridan qarzlarni to'lashga sarflanadi;

daromadlar xususiy sektordan davlat sektori tomonga qayta taqsimlanadi;

daromadlarning tengsizligi kuchayadi;

qarzlarni to'lamaslik oqibatida foiz stavkasi oshadi, oqibatda qisqa muddatda investisiyalar siqib chiqariladi, uzoq muddatda esa kapital zahiralari va mamlakat iqtisodiy salohiyatining qisqarishi ro'y beradi;

qarz bo'yicha foizlar to'lash zaruriyatni soliqlarni oshirishni talab qilishi iqtisodiy rag'batni susaytiradi;

uzoq muddatda yuqori darajadagi inflyatsiya xavfi tug'iladi; kelajak avlodga qarz yukining tushishi ularning farovon yashashiga to'sqinlik qiladi;

qarz bo'yicha foizlar yoki qarzning asosiy qismini xorijlik-larga to'lash YalM ma'lum qismini chetga chiqarishga sabab bo'ladi;

qarz va valyuta inqirozi tahdidi tug'ilishi mumkin.

#### **Mavzu №10 buyicha savollar:**

1. Davlat byudjeti deganda nimani tushunmoq lozim?
2. Davlatning funksiyalarini bajarish uchun qanday maqsadlarda davlat byudjetidan harajatlar qiladi?
3. Davlat byudjeti daromadining asosiy manbaalarini aytib bering.
4. Davlat byudjetining holati qanday ko'rinishlarda bo'ladi?
5. Davlat byudjeti kamomadi va uning qanday ko'rinishlari mavjud?
6. Davlat byudjetining konsepsiyanini tushuntiring.
7. Davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirishning qanday yo'llarini bilasiz?
8. Davlat qarzi turlari va davlat qarzining salbiy oqibatlari.

## Pullar va bank tizimi

### Mavzuda ko'rib chiqiladigan savollar:

1. *Pulning mohiyati va funksiyalari.*
2. *Pul massasini o'lchashning turli xil usullari*
3. *Pul muomalasi*
4. *Pul - kredit va bank tizimi.*
5. *Pulga talabning tarkibi.*
6. *Pul bozorining muvozanatli holati.*
7. *Banklar va ularning iqtisodda tutgan o'rni.*

### Tayanch iboralar

Pul, pul massasi, pulning funksiyalari, «tor ma'nodagi pullar», «keng ma'nodagi pullar», likvidli qimmatbaho qog'ozlar, depozit, pul agregati, sertifikatlar, obligatsiyalar, naqd pullar, naqd bo'lmagan pullar, pul muomalasi, pul-kredit siyosati, Markaziy Bank, zahira me'yori, pulga bo'lgan umumiy talab, pul bozoridagi muvozanat holat.

### Adabiyotlar

1. Agapova T. A., Seregina S. F. Makroekonomika. Moskva - Ufa, 1995y.
2. Makkonell K. Bryu S. Ekonomiks t. 1-2 M.: «Respublika» 1992 y.
3. Hakimova. M. «Makroiqtisodiyot», Toshkent - «Mehnat» - 1997y
4. Abdullaev. Yo «Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob». T.«Mehnat», 1997 y.
5. Alimov A., Hamedov I. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T.: «O'AJBNT» Markazi, 2004y., 491 bet.

### 1. Pulning mohiyati va funksiyalari

Bozor iqtisodiyoti pul bilan tirik. Pul bo'lmagan joyda bozor iqsidiyoti yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Bozor iqtisodi tovarlar va o'svarlashgan xizmatlarning ishlab chiqarishdan boshlab to iste'molgacha bo'lgan harakatidan iboratki, bu harakat pul vositasida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish resurslari bozorda pulga xarid qilinib, tovarlar yaratiladi, yaratilgan tovarlar pul daromadlariga ayir-boshlanib iste'molga o'tadi. Tovarlar shaxsiy iste'molgami yoki investisiya (ishlab chiqarish) uchun sarf etiladimi, baribir pul yordamida harakatga keladi.

Bozor uchun ishlab chiqarish bor joyda pul o'ta muhim iqtisodiy vosita bo'ladi. U ishlab chiqarishning takrorlanishiga xizmat qiladi, iqtisodiy o'sishga ko'maklashadi. Pul shaklidagi mablag'lar bozor orqali resursga aylanadi, resurslar ishtirokida tovarlar yaratiladi, tovarlar sotilib yana pul olinadi. Shunday harakatning qaytarilib turiishi iqtisodiy jarayon yuz berganini bildiradi.

Pulning iqtisoddagi ahamiyatini u bajaradigan funksiyalar belgilab beradi. Hozirgi nazariyalarda pullarning uchta funksiyasi tan olinadi.

**Qiymat o'lchovi** - pul umumiy ekvivalent bo'l mish tovar ekan o'zida mehnatni mujassamlashtiradi va shu sababli tovarlar qiymatini o'lchay oladi. Pulda ifodalangan qiymat - bu narx. Tovarning qancha turishini pul bilan belgilab, u 50 so'm, 10 dollar, 50 dinor, 50 ien turadi deb ataymiz, buyumlarning og'irligi, eni va bo'yiga qarab, kilogramm yoki metr bilan o'lchanganday, tovarlarning narxi pul bilan o'lchanadi. Har bir mamlakatning o'z o'lchami bor - bu uning milliy pulidir. O'lchov birligi narx mashtabi deyiladi. Birlik qilib AQShda dollar, Turkiyada lira, Suadiya Arabistonida riyol qabul qilingan va hakozo.

Milliy pul inflyatsiyaga uchrab tez qadrsizlanganda, tovar narxini boshqa qadri barqaror, obro'li pulda, masalan, dollarda o'lchaydilar.

**Muomala vositasi.** Pul oldi-sottida ishlatiladi. Pul yordamida tovarni xarid etish, pulga tovar ayriboshlash (P-T) yoki tovarni sotish, tovarni pulga ayriboshlash (T-P) yuz beradi. Pul ishtirok etganda tovar ayriboshlash tovar muomalasi shaklini oladi. Bundan farqliroq, barter -tovarni tovarga bevosita almashtirish bo'lib, ma'lum kelishilgan narxni taqozo etsada, pul ishtirokisiz yuz beradi. Barterda tovar olishni uni sotishdan ajratib bo'lmaydi. Barter pulsiz ayriboshlash bo'lganidan bozor iqtisodiyotiga to'g'ri kelmaydi, shu sababli pul qadrsizlangan, tovar topish mushkul bo'lgan sharoitda amalga oshiriladi. Pul xamma tovarga ayriboshlanganidan, hamma yerda qabul qilinadi. Agar pul bo'l maganda edi, kerakli tovar topib olish uchun o'z tovarini boshqa tovarga, boshkasini esa yana boshqa tovarga almashtirish ko'p marta yuz berib, nihoyat kerakli tovar uchraguncha davom etar edi. Pul bunday mushkullikni oson qiladi.

**Jamg'arma vositasi.** Bu pulning jamlangan boylik shakliga kirib, o'z egasi uchun kerak bo'lganida xarid etish vositasi bo'lib xizmat qila olishdir. Pul qog'oz yoki tanga bo'lgani uchun boylik emas, balki o'zida mehnatni mujassamlashtirgani, unga hamma narsani

xarid etish yoki uni jamlab saqlash mumkin bo‘lgani uchun boylik hisoblanadi. Pul boylikning maxsus shakli, uning bir ko‘rinishi, chunki undan boshqa shakl, ko‘rinishdagi boyliklar ham bor. Masalan, uy-joy, yer-suv, o‘rmonlar, konlar, oziq-ovqat, kiyim - kechak, mashina-uskuna, aksiya, obligatsiya va hakozo.

Pul boylik jamg‘arishning qulay usuli, chunki pulda likvidlik bor, ya’ni pulni to‘lov uchun hamma yerda unda belgilangan nominalga (yozib qo‘yilgan miqdori, ko‘rsatkich, masalan, 100 dollar deb yozilgan) qarab to‘lov uchun qabul qilinadi. Pul boshqa likvidlik vositalariga nisbatan aytaylik, yer, bino aksiya, obligatsiya, sertifikatlarga nisbatan barqaror vosita hisoblanadi, uning qadri bir xil saqlanadi (inflyatsiya bo‘lmasa), boshqa likvidlar narxi qadri o‘zgarib turadi.

Jamg‘arila borib xarid qobiliyatini saqlovchi barcha pul vositalari **pul agregati** deb ataladi. Bunga naqd pullar, ma’lum muddatga yoki muddatsiz bankka qo‘yilgan pullar, sertifikatlar va boshqalar kiradi.

## 2. Pul massasini o‘lchashning turli xil usullari

Pul massasi – muomalaga chiqarilgan metall tangalar va qog‘oz pullarning jami miqdori. Xo‘jalik muomalasidagi pul vositalarining umumiylajmiga naqd pullardan tashqari banklarning joriy hisobidagi pul vositalari ham kiradi. Keng ma’noda pul deganimizda nimalar tushuniladi, pul massasiga nimalar kiritiladi? Bu savolga javob berish juda muhim, chunki iqtisodiyotni barqarorlashtirish, uning o‘sishi ko‘p hollarda pul massasini samarali tartiblashga bog‘liq.

Hozirgi zamон bozor iqtisodiyotida pul massasining asosiy tashkil etuvchilar yoki agregatlari quyidagicha:

Pul M1 - «tor ma’nodagi pullar» yoki muomaladagi naqd pullar (Mo) + aholi va korxonalarining talab qilib oladigan omonatlari hamda joriy to‘lov aylanishiga xizmat qiluvchi cheklar.

Pul M2 - bu M1 + aholi va korxonalarining muddatli omonatlari.

Pul M3 - «keng ma’nodagi pullar» yoki jami pul massasi bo‘lib, o‘z ichiga M2 + likvidli qimmatbaxo qog‘ozlar (obligatsiyalar, sertifikatlar, xazina majburiyatları) va byudjet, jamoat tashkilotlari hisoblaridagi mablag‘lar hamda byudjet mablag‘lari va kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun mablag‘lar.

Pul M4 bu M3 + banklarda saqlanayotgan pul shaklida bo‘limgan likvid mablag‘lar.

Ayrim mamlakatlarda pullarning bunday bo'linishi boshqacharoq bo'lishi ham mumkin. Masalan, Rossiyada M0, M1, M2, M3 pul agregatlari ishlatalidi. M0 pul agregati bu muomaladagi naqd pullar; M1 = M0 + korxonalarining joriy hisoblaridagi mablag'lari, ularning depozitlari, aholining talab qilib olinadigan depozitlari va Davlat sug'urtasi mablaglari; M2 pul agregati - bu M1 + aholini jamg'arma banklardagi muddatli depozitlari, shu jumladan kompensasiyalar; M3 pul agregati bu-M2+ sertifikatlar va davlat zayomlari obligatsiyalar.

### 3. Pul muomalasi

Xo'jalik hayotida pulning doimo aylanishda bo'lishi, uning o'z vazifalarini uzlusiz bajarib turishi **pul muomalasi** deyiladi. Naqd va naqd bo'lmagan pullarning o'z vazifalarini bajarishdagi harakati pul muomalasini keltirib chiqaradi

$$PM = NPM + NBPM$$

Bu yerda:

PM - pul muomalasi

NPM - naqd pul muomalasi

NBPM - naqd bo'lmagan pul muomalasi.

Naqd pul bankdan chiqqach, korxona, tashkilotlar kassasiga va aholi qo'liga o'tadi. Oldi - sotdi va to'lov xarakatlari bajarilgach, yana bankka qaytadi.

Naqd bo'lmagan pul muomalasiga firma, korxona tashkilotlarning bankdagi hisobida turgan pul harakati kiradi va bunday muomala chek, kredit kartochkasi, veksel, obligatsiya, sertifikat va boshqa vositalar harakati shaklida olib boriladi.

Pul bilan muomala qilish ishlari qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik pul ko'p kerak bo'ladi. Agar pul qanchalik tez aylanib tursa, unga talab shunchalik qisqaradi. Pulga talab deganda pulning oldi - sotdi to'lovi ishlaridagina emas, balki jamg'arma sifatida ishlatalishi ehtiyojini tug'diradi, xususan, o'zbek xalqining naqd pulni yig'ishga bo'lgan ishtiyoqini ham nazarda tutish kerak. Bunga uni qisman zarrurat ham majbur qiladi.

O'rtacha oila a'zolari soni ko'p bo'lgani bois xonodon sohibi bir umr o'z farzandlarini uylash - joylash tashvishi bilan yashaydi. Shuning uchun shunga yarasha zarur miqdorda pul jamg'arib boradi.

#### **4. Pul - kredit siyosati**

Pul - kredit siyosati deganda to'la bandlik sharoitida jami mahsulotni ishlab chiqarishga inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirish yoki bataraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o'zgartirish tushuniladi.

Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasini hayotga tadbiq etadi.

Hozirda hamma mamlakatlarda pul miqdorini tartibga solishda ochiq bozorda operatsiyalarni, ya'ni davlat qimmatbaho qog'ozlarini taklif qilish usulidan keng foydalani moqda. Ushbu operatsiyalarni Markaziy Bank asosan nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi. Bozorda Markaziy bank xazina qimmatbaxo qog'ozlarini sotish yoki xarid qilish yo'li bilan pul taklifiga ta'sir etadi, ya'ni pul bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta'minlaydi.

Pul bozorida muomalada pul miqdori ortiqchaligi mavjud, deb faraz qilamiz. Tabiiyki Markaziy Bank ortiqcha pul massasini kamaytirish yoki yo'q qilishga harakat qiladi. Buning uchun u ochiq bozorda o'zining qimmatli qog'ozlarini aholi va banklarga taklif etadi, ular esa xarid qila boshlaydilar.

Davlat qimmatbaho qog'ozlarining taklifi oshib borgan-sari unga bo'lgan bozor bahosi pasayadi, o'z navbatida pulga bo'lgan foiz oshadi, bu esa unga bo'lgan talabni oshiradi. Banklar va aholi qimmatli qog'ozlarni ko'proq xarid qila boshlaydilar, pirovard natijada banklarning zahiralari qisqaradi, o'z navbatida bu hol pul taklifini bank multiplikatorini teng nisbatda qisqarishiga olib keladi. Bu bank zahira va pul taklifini ortishiga olib keladi.

Pul kredit siyosatining vositalaridan yana biri bu majburiy bank zahira me'yorini MB belgilaydi va uni o'zgartirib turadi. Agar MB majburiy bank zahirasini kamaytirsalar ortiqcha bank zaxiralari ortadi. Bu esa pul taklifining multiplikasion ortishiga olib keladi. Massalan ushbu me'yor 20% bo'lsa, unda qo'yilgan 10000 so'mdan 2000 so'm majburiy bank me'yorini tashkil etadi. Bunda bank faqat 8000 so'mini qarzga berishi mumkin.

Majburiy bank zahira me'yorini ko'tarish yordamida davlat pul taklifini kamaytiradi, zero bu banklarning ortiqcha bank zahiralari ning qisqarishiga olib keladi.

Monetar siyosatni o'tkazishda bu vosita butun bank tizimining asoslariga ta'sir etadi. Shuning uchun, u ko'pchilik mamlakatlarda o'ta zarur bo'lgandagina qo'llaniladi.

Davlat tomonidan oshiriladigan pul-kredit (monetar) siyosat YaMM, bandlik va baholar darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, faraz qilamizki, iqtisodiyotda ishlab chiqarish qisqarmoqda va ishsizlar soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda davlat MB orqali pul taklifini oshirishga biz yuqorida ko'rib chiqqan vositalar yordamida amalga oshirishga harakat qiladi. Buning natijasida pul taklifi o'sadi, foiz stavkasi esa pasayadi. Bu esa investisiyaga talabni oshiradi va o'z navbatida YaMM miqdorini ko'payishiga olib keladi. Bu bilan davlat ma'lum davrda o'z maqsadiga erishadi, ishlab chiqarishning orqaga ketishi to'xtaydi, ishsizlar soni kamayadi, jamiyatning daromadlari oshadi.

Shuni ta'kidlash joizki, monetar siyosat asosida yaxlit iqtisodiyotga pul va kredit siyosatining ta'sir jarayonlari pul nazariyasi yotadi. Ushbu nazariyaga 2 xil yondashuvchi iqtisodchilar o'rtasida tafovutlar bor. Bu takomillashgan Keynsiancha Nazariya va zamona-viy pul miqdori nazariyasi Monetarizm. Ikkala nazariya tarafidolari pul taklifini nominal YaMMga ta'sirini inkor etmaydilar, ammo bu ta'sirning ahamiyatiga har xil baho beradilar.


## 5. Pulga talabning tarkibi

Pul insonlarga o'zlarining kundalik extiyojlarini qondirish va jamg'arish uchun kerak. Shu sababli **pulga bo'lgan umumiy talab** bitimlar uchun pulga talabdan va moliyaviy aktivlar uchun pulga talabdan iborat.

Bitimlar uchun pulga bo'lgan talab - bu aholiga va korxonalarga tovar va xizmatlarni xarid qilish uchun zarur bo'lgan pul miqdoridir. U nominal YaMMni o'sishi bilan oshib boradi va pulning muomala vositasi vazifasini bajarishi bilan bog'liq. Nominal YaMM qancha ko'p bo'lsa, oldi-sotdi jarayoniga xizmat qilish uchun shuncha ko'p pul kerak bo'ladi.

Moliyaviy aktivlar tomonidan pulga bo'lgan talab pulning jamg'arish vositasi sifatidagi funksiyasiga asoslangan, ya'ni odamlar o'zlarining moliyaviy aktivlarni aksiyalar, obligatsiyalar bankdagi omonatlari ko'rinishida qo'llarida tutib turadi. Jamg'arish zaruriyati ham pulga bo'lgan talabni shakllantiradi.

Pulga bo'lgan umumiyl talab foiz stavkasi miqdoriga yoki pulning ishlatalishi bahosiga nisbatan teskari bog'liqlikda bo'ladi. Foiz stavkasi qanchalik yuqori bo'lsa pulga bo'lgan talab shuncha past bo'ladi va aksincha, foiz stavkasini pasayishi bilan pulga bo'lgan talab oshadi (chizmaga qarang).



**28-rasm. Foiz stavkasi va pulga bo'lgan talab o'rtaqidagi o'zaro bog'liqlik.**

Chizmadagi  $D_m$  chizig'i, foiz stavkasining har bir mumkin bo'lgan miqdorida odamlar bitimlar va jamg'armalar uchun sarflashni istagan pulning umumiyl miqdorini ko'rsatadi.

## 6. Pul bozorining muvozanatl holati

Pul bozoridagi muvozanat - bu uning shunday holatiki, bunda pulga talab va pul taklifi bir-biriga muvofiq keladi. Uni sodda ko'rinishda quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$MxV = PxY,$$

bunda, M - muomalaga chiqarilgan pul;


V - pulni aylanish tezligi;

P - YaMM deflyatori;

Y - real YaMM.

Ushbu ayniyatni pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi deb ataydilar. Uning o'ng qismi ( $MxV$ ) - bu real pul zahirasi taklifini, chap qismi - ( $PxY$ ) - nominal YaMMni ifodalaydi. Masalan, iqtisodiyotda 1000 birlik pul (M) muoamalada bo'lsa, bunda har bir pul birligi yil davomida 3 marta qo'ldan-qo'lga o'tsa yoki bir yilda 3 ta bitimga (oldi-sotdiga) xizmat qilsa (V), unda pul zahirasi taklifi real hisobda 3000 ga teng ( $MxV$ ). U mamlakatdagi bitimlarning umumiyl soniga ya'ni nominal YaMM xajmiga ( $PxY$ ) muvofiq kelishi lozim.

Pul bozoridagi muvozanat holatning grafik tasviri o‘zida ikki chiziqning: pul taklifini ifodalovchi  $S_m$  chizig‘ini va pul talabini ifodalovchi  $D_m$  chizig‘ini kesishuvini aks ettiradi (quyidagi grafikka qarang).



29-rasm. Pul bozoridagi muvozanat

Mahsulotlar bozorida bo‘lgani kabi talab va taklifning kesishishi nuqtasi muvozanat narxni belgilaydi. Pul bozorida bunday muvozanatlari narx bo‘lib foiz stavkasi ( $r$ ) hisoblanadi. Davlat pul taklifini oshira borib, uning vaqtinchalik ortiqchaligini paydo etadi, natijada foiz stavkasi tushib ketadi, yoki pul taklifini qisqartira borib, teskari samaraga erishadi, ya’ni pul yetishmasligini paydo etadi va natijada foiz stavkasi yoki puldan foydalanish bahosi o‘sadi.

## 7.Banklar va ularning iqtisodda tutgan o‘rni

Banklar kreditdagи vositachi hisoblanadi. Shuning uchun bank tizimi kredit tizimining bir qismi hisoblanadi. Kredit tizimi bank va bank bo‘limgan kredit muassasalaridan tashkil topadi. Bank bo‘limgan kredit muassasalariga: fondlar (investision, pension va boshqalar); kompaniyalar (sug‘urta, investision); moliyaviy kompaniyalar (ssuda-omonat assosiasialar, kredit birlashmalar); lombardlar, ya’ni kreditda vositachi funksiyasini bajaruvchi barcha tashkilotlar.

Ammo asosiy moliyaviy vositachilar – bu tijorat banklaridir. Zamonaviy bank tizimi ikki pog‘onali:

1. Markaziy bank

2. Tijorat bank tizimi

Markaziy bank – bu mamlakatning eng asosiy banki. U quyidagi funksiyalarni bajaradi:

mamlakatning emission markazi (banknotalar chiqarishda monopol huquqga ega). Markaziy bank pullari naqd (banknota va tangalar) pullardan va naqd bo‘limgan (Markaziy bankdagi tijorat banklarining hisoblari) pullardan tashkil topadi.

hukumatning bankiri hisoblanadi (hukumatning moliyaviy operasiyalari xizmatini bajaradi, g‘azna to‘lovlarida va davlatning kreditlarida vositachi bo‘lib xizmat qiladi. G‘aznaning barcha bo‘sh mablag‘lari Markaziy bankda depozit shaklida saqlanadi, o‘z o‘rnida Markaziy bank g‘aznaga o‘zining belgilangan me’yoridan ortiq foydasini o‘tkazadi;

banklarning banki hisoblanadi, tijorat banklari Markaziy bank mijozlari hisoblanadi, Markaziy bank ularning majburiy rezerv zahiralarini saqlaydi, bu esa ularning ichki va tashqi faoliyatlarini nazorat qilish va yo‘naltirish imkonini beradi, tijorat banklari uchun eng oxirgi instansiya kreditori hisoblanadi (bunda Markaziy bank tijorat banklariga pul emissiyasi yoki qimmatli qog‘ozlar sotish yo‘li bilan kredit beradi);

banklararo hisob markazi;

mamlakatning oltin-valyuta zahiralarini saqlaydi (mamlakatning xalqaro moliyaviy operasiyalarini o‘tkazadi va to‘lov balansi holatini nazorat qiladi, xalqaro valyuta bozorlarida sotuvchi va xarid qiluvchi bo‘lib maydonga chiqadi);

Markaziy bank pul-kredit (monetar) siyosatni olib boradi.

Bank tizimining ikkinchi pog‘onasi bo‘lgan tijorat banklari quyidigilarga bo‘linadi:

1. Universal tijorat banklari.

2. Ixtisoslashgan tijorat banklari.

Banklar ixtisoslashadi:

a) maqsadiga ko‘ra:

investision (investision loyihalarni kreditlaydi);

innovation (ilmiy-texnik rivojlanishga beriladigan kreditlar);

ipotekaviy (ko‘chmas mulk garovi hisobiga kreditni amalga oshiruvchi).

b) tarmoqlar bo‘yicha:

qurilish;

qishloq xo‘jaligi;

tashqi iqtisodiy.

v) mijozlar bo‘yicha:

faqat firmalarga xizmat qiluvchi;  
aholiga xizmat qiluvchi va boshqalar.

**Mavzu №11 buyicha savollar:**

1. Pulning mohiyati va uning funksiyalarini tushuntiring.
2. M1, M2, M3, M4-pullar deganda nimani tushunasiz?
3. Pul muomalasini tushuntiring
4. Pul-kredit (monetar) siyosatni tushuntirib bering.
5. Banklar va ularning iqtisodda tutgan o‘rnini tushuntiring
6. Bankning to‘lov qobiliyati va likvidliligi deganda nimani tu-shunasiz?

**Ochiq iqtisodiyot****Mavzuda ko'rib chiqiladigan savollar:**

1. *Ochiq va yopiq iqtisod tushunchasi*
2. *Jahon bozori va xalqaro ayirboshlash*
3. *Valyuta kursi*
4. *O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati, qoidalari va maqsadlari.*
5. *To'lov balansi.*

**Tayanch iboralar**

Ochiq iqtisod, yopiq iqtisod tushunchasi, milliy mahsulot, davlat xaridi, iste'mol harajatlari, investisiya harajatlari, sof eksport, jahon bozori, xalqaro ayirboshlash, xalqaro savdo, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, kapital migratsiyasi, ishchi kuchi migratsiyasi, o'zarot to'lovlar va hisob valyuta operatsiyalari, valyuta kursi, kotirovkalash, valyuta bozoridagi talab va taklif, erkin suzib yuruvchi, cheklangan suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslari, milliy valyuta, xorijiy valyuta, to'lov balansi, joriy operatsiyalar va kapital harakati, tashqi savdo balansining qoldig'i, valyuta rezervlari, hisob stavkasi.

**Adabiyotlar**

1. Karimov I. A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida", Toshkent, "O'zbekiston", 1995y
2. Yo'ldoshev Z. Qosimov M. "Makroiqtisodiyot asoslari" Toshkent, "O'qituvchi" 1994y.
3. Hakimova M. "Makroiqtisodiyot", Toshkent "Mehnat", 1997y.
4. Agapova T. A. Seregina S. F. "Makroekonomika", Moskva-Ufa, 1995y.
5. Alimov A., Hamedov I. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T.: «O'AJBNT» Markazi, 2004y., 491 bet.

**1. Ochiq va yopiq iqtisod tushunchasi**

Har bir zamonaviy mamlakat xorij bilan ko'plab iqtisodiy aloqaga ega. Bular qatoriga tovarlar, xizmatlar, axborotlar, kapital va ishchi kuchlari bilan ayirboshlashni kiritish mumkin. Bunday aloqalarning rivojlanish darajasiga qarab iqtisodiyotning qaydarajada ochiqligi aniqlanadi.

**Ochiq iqtisodiyot** – bu shunday iqtisodki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin.

Biroq, jahon tarixida shunday voqealar ham o‘rin olganki, biror bir mamlakat u yoki bu sabablar bilan o‘z hududlari chegarasida o‘ralashib qolgan bo‘ladi va xorij bilan ayriboshlashni kam olib boradi. Masalan, sobiq SSSR – urushgacha bo‘lgan davrda. Xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan iqtisodiyot yopiq iqtisodiyot deb ataladi. Ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda mutloq yopiq iqtisodiyot mavjud emas. Ammo, makroiqtisodiy tahlil va istiqbolni belgilashda foydalaniладиган modellarda bunday mavhumlikka yo‘l qo‘yiladi. Yopiq iqtisodiyot modelida tovarlar, xizmat va kapital oqimlari milliy chegaralar tashqarisiga chiqmaydi hamda unda asosiy makroiqtisodiyat ayniyat quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Y=C+I+G$$

bunda,

Y – milliy mahsulot, daromad;

C – uy xo‘jaligining o‘z mamlakatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid qilishga sarflagan iste’mol xarajatlari;

I – shu mamlakat ishlab chiqaruvchilarining o‘z mamlakati investisiya tovarlariga xarajatlari;

G – davlat tomonidan o‘z mamlakati tovar va xizmatlarini xarid qilinishi.

Ochiq iqtisodiyot (open economy) – xorijiy mamlakatlar bilan import, eksport va moliyaviy operasiyalar mexanizmlari bilan bog‘langan milliy iqtisodiyot.

Ochiq iqtisodiyotda mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar mavjud va u milliy iqtisodiyotda tovarlar va daromad harakatida namoyon bo‘ladi.

Asosiy iqtisodiy tenglikka qo‘srimcha ko‘rsatkich kiritilsa, u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Y=C+I+G+X_n$$

bunda,

X<sub>n</sub> – xorijliklarning shu mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga qilgan xarajatlari bilan xorijda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga ichki xarajatlar o‘rtasidagi farq, qisqacha aytganda eksport va import o‘rtasidagi farq.

## 2. Jahon bozori va xalqaro ayirboshlash

**Jahon bozori** deganda mamlakatlar o'rtasida ularning ijtimoiy mahsulotlarining bir qismini sotish bo'yicha o'zaro munosabatlari tizimiga tushuniladi. Bu iqtisodiy munosabatlар yoki ayirboshlash shunday shakllarda amalga oshiriladi:

- xalqaro savdo;
- ishlab chiqarish kooperatsiyasi;
- kapital migrasiyasi;
- ishchi kuchi migratsiyasi;
- o'zaro to'lovlar va hisob valyuta operasiyalari.

Tashqi iqtisodiy munosabatlarning eng muhim shakli – **xalqaro savdo** yoki alohida mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar bilan ayirboshlash hisoblanadi hamda u o'ziga quyidagilarni kiritadi:

- tovar bilan ayirboshlash;
- fan texnika yutuqlari bilan ayirboshlash (lisensiylar, nouxau va boshqalar);
- asbob-uskunalar yetkazib berishni ko'zda tutadigan kapital qurilish ob'ektlari bilan savdo qilish, loyiha va qurilish ishlarini bajarish;
- xizmatlar savdosi.

Xalqaro ayirboshlashning barcha boshqa shakllari tashqi savdo rivojlanishi asosida paydo bo'lgan.

**Ishlab chiqarish kooperasiyasi** deganda ikki yoki bir necha mamlakatlarning ma'lum bir ishni bajarish yoki qandaydir bir pirovard mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha birgalikdagi faoliyatlariga tushuniladi. Masalan, hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlar ishlammalari, hamkorlikda avtomobillar va boshqa murakkab asbob-uskunalarni ishlab chiqarish.

Hozirgi paytda xalqaro ayirboshlashning tez rivojlanib borayotgan shakllari **kapital migrasiyasi**, ya'ni kapitalni yuqori foyda ketidan bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib yurishi, shuningdek **ishchi kuchlarning migrasiyasi** hisoblanadi. Modomiki, mamlakatlar o'rtasidagi har qanday iqtisodiy munosabatlار qiymat jihatidan baholanishga va ma'lum tartibdagi to'lovlarga muhtoj bo'lar ekan, shunga muvofiq tez sur'atlar bilan valyuta munosabatlari ham taraqqiy etadi.

Mamlakatni jahon bozorida tutgan o'mni uning tabiiy geografik sharoitlari, fan-texnika va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasi, xalqaro mehnat taqsimotida o'ynaydigan roli bilan aniqlanadi.

Dunyoning 40 ta yirik davlati qatoriga kiruvchi O'zbekiston o'zida boy tabiiy resurslar zahirasiga, sanoat, qishloq xo'jaligi, infrastruktura rivojlangan tarmoqlariga, shuningdek tayyorlangan ishchi kuchlariga ega bo'lgani holda, dunyo bozorida sezilarli rol o'ynashi mumkin va zarur.

### 3. Valyuta kursi

**Valyuta kursi** – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi. Valyuta kursining qat'iy qayd etilgan va o'zgarib turadigan (valyuta bozoridagi u yoki bu valyutaga talab va taklifga qarab) turlari mavjud. Chet el valyutasi kursining valyuta birjasida maxsus organ tomonidan belgilanishi va maxsus byuletenerlarda nashr qilinishi valyuta kotirovkasi deyiladi.

Barcha xalqaro bitimlar valyutalarni ayriboshlash bilan olib boriladi. Va har qanday ayriboshlashda bo'lgani kabi valyuta bahosining yoki **valyuta kursini** aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi.

Shunday qilib, valyuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursini o'rnatish **kotirovkalash** deb ataladi. U to'g'ri va teskari kotirovkalashga ajratiladi. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko'rsatilsa, bunga to'g'ri kotirovkalash deb ataladi. Massalan, 1 AQSh dollari 1250 so'mga, 100 Rossiya rubli 4000 so'mga teng va hakozo. Teskari kotirovkalashda milliy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan xorijiy valyutaning miqdori o'rnatiladi. Massalan 1 o'zbek so'mi 0, 0008 AQSh dollariga to'g'ri keladi va hakozo. Dunyoning ko'p mamlakatlarida shu jumladan O'zbekistonda ham to'g'ri kotirovkalash qabul qilingan.

Valyutalarning almashtirish kurslari ularni olish-sotish jarayonida o'rnatiladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari – banklar, moliya-kredit muassasalari, korxonalar va jismoniy shaxslar tashqi savdo hisob-kitoblarini olib borish, kapital, ishchi kuchlari migrasiyasini amalga oshirish, valyuta rezervlarini to'ldirish, valyuta xavf-xatarlarini sug'urtalash, shuningdek valyuta kurslarini o'zgarishidan foyda olish uchun xorijiy valyutani sotadi va sotib oladi.

Valyuta bozoridagi talab va taklifni solishtirish natijasida valyutaning bahosi yoki kursi aniqlanadi. O'zbek so'mining kursi O'zbekiston valyuta birjasida o'rnatiladi, uning ishtirokchilari bo'lib valyuta operasiyalarini olib borish huquqiga ega bo'lgan banklar hisoblanadi.

Shu bilan birga, turli pul birliklari uchun valyuta kurslarini o'rnatish jarayoniga bozor kuchlarini ta'sir etish darajasi bir xil emas. Bu ta'sir kuchiga bog'liq holda kurslari **erkin suzib yuruvchi, cheklangan suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslariga ajratiladi**.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi shu valyutaga bo'lган bozor talabi va taklifi ostida erkin o'zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSh dollari, yapon yeni, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar yevrosi. Shu bois, bu valyutalar jahon valyuta ayrboshlashida ko'proq ishlatiladi.

Cheklangan suzib yuruvchi valyuta kursi uning o'zgarishini ayrim xorijiy valyutalar yoki valyutalar to'plami – (valyuta savati) kurslari o'zgarishiga bog'liq bo'lishini ko'zda tutadi. Misol uchun, ko'pchilik uchinchi dunyo mamlakatlari o'z valyutalarini AQSh dollariga, Yevropa yevrosiga va boshqa xorijiy pul birliklariga bog'laydi.

Qayd etilgan valyuta kursi – bu xorijiy valyutada ifodalangan davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan milliy pul birligining bahosi bo'lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi ta'sir qilmaydi. Hozirgi vaqtida qayd etilgan valyuta kursi asosan sust rivojlangan yoki tashqi dunyoga yetarli darajada ochiq bo'lмаган iqtisodiyotga ega bo'lган mamlakatlarda milliy moliyasi va ishlab chiqarishi kuchli bo'lган xorijiy raqobatchilardan himoya qilish hamda quvvatlash maqsadida qo'llaniladi.

#### **4. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati, qoidalari va maqsadlari**

Jahon tajribasi hamda o'z milliy iqtisodiyoti taraqqiyotining shart-sharoitlarini hisobga olib, O'zbekiston mustaqillikka erishgанинг birinchi kunlaridan boshlaboq, tashqi iqtisod sohasida aniq yo'nalishlarni belgilash bo'yicha amaliy tadbirlar belgiladi.

Bu yo'nalishlar davlatning asosiy dasturiy hujjalarda aks ettirilgan va respublikaning tegishli qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mo'ljallangan maqsadlarga erishish O'zbekistonga xalqaro iqtisodiy hamkorlikda qatnashishdan keladigan afzalliklardan mumkin qadar ko'proq amalda foydalanish imkonini beradi. Bu afzalliklar – tovar va xizmatlarning ichki va tashqi narxлари o'rtasidagi farq, mahsulot ishlab chiqarish ko'lamlarini kengaytirish, ilg'or xorijiy fan-texnika tajribasidan foydalanish va chet el kapitallarini jaib etish hisobiga milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishdan iborat.

Tarixan tarkib topgan ob'ektiv sabablarga ko'ra, O'zbekiston sobiq ittifoqdosh respublikalar iqtisodi bilan chambarchas bog'langan edi. Shu bois, O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosati ikki yo'nalishda ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Birinchi yo'nalish O'zbekistonni ishlab chiqarish, moliya, transport, energetika, fan, madaniyat va boshqa sohasidagi ko'p yillik aloqalar bog'lab turgan sobiq ittifoqdosh respublikalar bilan munosabatlari. Ikkinci yo'nalish – respublika ilgarilari mustaqil o'zaro munosabatlarda bo'lмаган xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlari.

Agarda, birinchi yo'nalish O'zbekistonga kam harajatlar sarflab, keng ko'lamda xom-ashyo, tayyor mahsulotlar, texnologiyalar, fantexnika axboroti keng bozorlariga kirib borishni, shuningdek, rivojlangan transport tarmoqlari va aloqa vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlasa, ikkinchi yo'nalish esa respublikaga iqtisadiyotni faol ravishda jahon hamjamiyatiga birlashuvining iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy asosini yaratish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy siyosat – davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish va ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimlanishida mamlakat ishtirokini maqbullashtirish rejimini belgilashga doir bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir. Tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy tarkibiy qismi - tashqi savdo siyosati (eksport va import siyosatini o'z ichiga oladi), chet el investisiyalarini jalb etish va xorijdagi milliy sarmoya qo'yilmalarini tartibga solish sohasidagi siyosat, valyuta siyosati. Bundan tashqari, alohida olingan davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operasiyalarni geografik jihatdan muvozanatlashtirish vazifalari ham tashqi iqtisodiy siyosatni hal etadiki, bu hol mamlakatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'langan.

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatni ham tartibga soladi. Ko'pchilik davlatlarda mavjud bo'lgan tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining keng doirasini ularga o'z tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibini va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini shakllantirishga ham, boshqa mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari va tashqi iqtisodiy siyosatiga ham faol ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Samarali tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun uning asosiy tamoyillarini aniq va ravshan belgilash lozim. Chunonchi, tashqi iqtisodiy siyosatda TIF qatnashchilarining xatti-harakatlarini iqtisodiy-huquqiy tartibga solishga asosiy o'r'in ajratiladi, toki u umummilliy manfaatlarga javob bersin.

Bozor munosabatlariga va mulkchilik shakllarining xilma-xilligiga o'tish, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha korxonalarga tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilgan sharoitda O'zbekiston davlat monopoliyasidan va u bilan bog'liq davlatning tartibga solish shakllaridan voz kechdi. Hozirgi shart-sharoitda davlatning bosh vazifasi – iqtisodiyot faoliyatining bozor qoidalariga monand va respublikani izchillik bilan jahon xo'jaligiga integratsiyalash siyosatini ishlab chiqishdir.

Mustaqillikka erishganidan so'ng O'zbekiston o'zining manfaatlaridan kelib chiqib, mustaqil tashqi iqtisodiy siyosatni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi, shu sababli tashqi aloqalarni milliy xo'jalikni rivojlantirish ehtiyojlariga muvosifqlashtirish va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish, jahon hamjamiyati mammakatlarning o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda integratsiyalash jarayonlarini rivojlantirish vazifasi o'rtaga qo'yildi. Hukumat jahon xo'jaligi va bozoriga nisbatan milliy iqtisodiyotning yanada ochiq bo'lismiga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi. Biroq O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jalik aloqalariga to'g'ridan-to'g'ri, bevosita kirish jarayoni «katta sakrash» ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin emas. Bu jarayon bosqichma-bosqich, ob'ektiv tarkibiy shart-sharoitlar yetili-shiga qarab va butun xo'jalik mexanizmini, xususan, uning tashqi iqtisodiy sektorini isloh qilish bilan rivojlanib boradi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosati mustaqillikning dastlabki bosqichlarida quyidagi vazifalarni hal etdi:

eksport-import operasiyalarini markazlashtirishdan chiqarish; davlat ehtiyojlari uchun tovarlar eksporti va importi ustidan nazoratni kuchaytirish;

davlat uchun strategik muhim hisoblanmaydigan tovarlar eksportini soddallashtirish;

strategik muhim tovarlar eksportidan olingan valyuta tu-shumi ustidan nazoratni kuchaytirish;

davlat siyosatining barcha choralarini qo'llab, chet el investisiyalari jalb etilishini va eksport salohiyatini rivojlantirishni rag'batlantirish.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosati negizida to'rtta asosiy qoida yotadi:

tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashishga qobil tarmoqlar va mintaqalarni rivojlantirish siyosatini ishlab chiqaradigan davlatning o‘zgartiruvchilik faoliyati, shu jumladan, mazkur faoliyatning bojxona mexanizmi va chet el investisiyalari uchun qulay rejim;

mamlakat xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini asosan bir galgi tashqi iqtisodiy bitimlardan tashqi bozorlarni ushlab turish va kengaytirishga uzoq muddatli yo‘naltirilgan, ular umumiyligi xo‘jalik faoliyatining doimiy va uzviy qismi sifatida tashqi iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirish;

tashqi iqtisodiy faoliyat funksiyalarini hokimiyat shoxobchalari, respublika va hududiy boshqaruv organlari hamda tarmoq idoralari o‘rtasida aniq taqsimlash;

jahon bozorida respublika eksportchilari uchun qulay sharoitlarni yaratish mamlakat tashqi siyosatining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolishiga da‘vat etilgan.

Bozor munosabatlari mustahkamlanib borishi bilan qonun doira-sida o‘z javobgarligidan kelib chiqib faoliyat ko‘rsatadigan, mulk-chilikning istalgan shaklidagi mustaqil korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy sub’ektlariga aylanishi kerak. Davlatning asosiy vazifasi esa har tomonlama yordam ko‘rsatish va ushbu sub’ektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini yengillashtirishdir. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati quyidagilarni ta’minlashi kerak:

mamlakat korxonalarining mashina va uskunalar, texnologiya va axborotlar, sarmoyalalar jahon bozorlariga, transport kommunikatsiyalariga kira olishi; korxonalar mahsulotining transmilliy korporatsiyalar nazorat qiladigan yoki chet el davlatlari va ular ittifoqlarining proteksionistik g‘oyalari bilan himoyalangan bozorlarga kirib borishiga siyosiy, moliyaviy va axborot madadini ko‘rsatish;

chet el mamlakatlari va ularning savdo-iqtisodiy guruhlari, tashkilot va ittifoqlari bilan munosabatlarda qulay savdo va siyosiy rejimni barpo etish, mavjud va ehtimoliy kamshituvchi cheklashlarni olib tashlash, MDH mamlakatlari bilan munosabatlarda turli savdo-iqtisodiy g‘oyalarni bartaraf etish;

O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladigan samarador tizimni shakllantirish (valyuta, eksport, bojxona nazorati va hakazo).

Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, ochiq bozor iqtisodiyotiga harakatlanish sharoitida eksport salohiyatini rivojlantirish va milliy

eksportchiga har tomonlama ko'mak berish samarali tashqi iqtisodiy faoliyatning asosi va mamlakat iqtisodiy xavfsizligining garovi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston uchun bu hol alohida ahamiyat kasb etdi, chunki faqat eksportni rivojlantirish orqali hayot uchun muhim tovarlar importini qisqartirmasdan turib savdo balansining musbat saldosiga erishish mumkin.

## 5. To'lov balansi

Har qanday davlat xalqaro mehnat taqsimoti qatnashchisi, zamonaviy jahon xo'jaligining a'zosi sifatida xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi doirasida tashqi iqtisodiy aloqalarни amalga oshirmasdan iqtisodiy rivojlanishni ta'minlay olmaydi. Mamlakatning o'z hamkorlari bilan bo'lgan tashqi iqtisodiy aloqalari milliy iqtisodiyotni jahon xo'jaligi bilan uzviy bog'lab turadi. Shu sababli ham «tashqi iqtisodiy aloqalar», «tashqi iqtisodiy operasiyalar» va «jahon xo'jaligi aloqalari» atamalarini sinonim sifatida qabul qilish mumkin.

Mamlakatlar o'rtaida iqtisodiy aloqalardan tashqari siyosiy, harbiy, madaniy va boshqa turdagи aloqalar mavjud bo'lib, ular natijasida pulli to'lovlar hamda hisob-kitoblar yuzaga keladi. Davlatning ko'p qirrali aloqalarining yig'indisini uning halqaro operasiyalar bo'yicha balans hisob varag'ida ko'rish mumkin. Bu xujjat to'lov balansi deb nomланади.

**To'lov balansi** – mamlakat tashqi iqtisodiy operasiyalarining hisob varag'i, ya'ni bu – davlatning tovarlar, xizmatlar, kapitallar olib kirish hamda olib chiqish ko'rsatkichlarining nisbati ko'rinishidagi barcha xalqaro aloqalari majmuuning puldagi ifodasi. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarning balans hisob varag'i o'z mohiyati jihatdan mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati ko'lami, tarkibi va shakli jihatdan miqdoriy va sifat ko'rinishini hamda uning xalqaro hamjamiyatdagi o'mini belgilaydi. Jahon amaliyotida «to'lov balansi» deb ataluvchi atamadan foydalanishga ko'nikma hosil qilingan bo'lib, barcha tashqi iqtisodiy operasiyalar bo'yicha valyuta oqimlariga kiruvchi va chiquvchi ko'rinishlarda farqlash kelishib olingan.

To'lov balansini tuzish amaliyoti tarixi bir necha asrlarga borib taqaladi. Uning ibtidosi Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya qirolliklari, keyinchalik Rossiya imperiyasi va AQShda g'aznaga bojxona va soliq tushumlari reestri (ro'yxati)ni tayyorlashdan boshlangan.

To‘lov balansi negizida barcha bitim turlarini ularning xususiyatlariiga bog‘liq ravishda buxgalteriyadagi standart kredit-debet yozuvidan foydalangan holda guruhash tamoyili yotadi. To‘lov balansining standart tuzilmasi uchta hisobni o‘z ichiga oladi: joriy operatsiyalar, kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar, rasmiy zaxiralar.

**To‘lov balansi** muayyan mamlakat rezidetlarining norezidentlar bilan ma’lum vaqt ichida tuzgan barcha xalqaro bitimlari to‘g‘risidagi statistik hisobtadir. U mamlakat xorijdan olgan va xorijga taqdim etgan tovarlar va xizmatlar hajmlari o‘rtasidagi nisbatni, shuningdek, dunyodagi boshqa mamlakatlarga nisbatan uning moliyaviy pozisiyasidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Shu sababli mamlakat to‘lov balansining dinamikasini tadqiq etish tashqi iqtisodiy muvozanat muammolarini tahlil etish uchun ayniqsa muhimdir.

To‘lov balansini tuzish o‘zaro chambarchas bog‘langan hisob va tahlil vazifalarini bajarish uchun mo‘ljallangan. To‘lov balansining tahlili mamlakat o‘zining tashqi iqtisodiy faoliyatini qanchalik samarali boshqara olishi va, tegishlich, tashqi iqtisodiy siyosat sohasida qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qila olishi to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Mamlakatning ma’lum bir vaqt davomidagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migrasiyasi ham uning to‘lov balansida o‘z aksini topadi. Modomiki, har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyutalarni ayirboshlash bilan kuzatiladigan oldi-sotdi jarayoni hisoblanar ekan, pirovard hisobda mamlakatning jahon bozoridagi faoliyatining natijalari xorijiy valyutaning tushumlari va harajatlarida ifodalanadi. Bir tomonidan xorijdan tushadigan barcha tushumlarni, boshqa tomonidan – mamlakatning xorijga barcha to‘lovlarini ko‘rsatuvchi hujjatga **to‘lov balansi** deb ataladi. Mamlakat to‘lov balansining tushumlarni (kredit «+» belgi) faqat eksport orqali, ya’ni milliy tovarlarni xorijiy valyutaga ayirboshlaganda ta’minalash mumkin. Uning harajat qismi, aksincha, xorijiy tovarlarni sotib olish yoki import bilan bog‘liq xorijiy valyutadagi harajatlari (debet «-» belgi) ifodalaydi. Bunda tovar deganda ayirboshlashning har qanday ob‘ekti: moddiy mahsulotlar, xizmatlar, ishchi kuchi, kapital va valyutaning o‘zi tushuniladi.

Barcha tashqi iqtisodiy operatsiyalar ikki katta guruhga bo‘linadi: **joriy operasiyalar va kapital harakati bilan bog‘liq operasiyalar.**

Joriy operatsiyalarning asosiy muddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ular o'rtasidagi farq **tashqi savdo balansining qoldig'i** deb ataladi. Joriy operatsiyalar bo'yicha balans salbiy qoldiqqa ega bo'lishi shuni bildiradiki, import operatsiyalari nati-jasida mamlakatda xorijiy valyutalarga bo'lgan talab uning eksport operatsiyalar bilan ta'minlanadigan taklifidan oshiq bo'ladi. Bosh-qacha so'z bilan aytganda, bunday vaziyatda mamlakat joriy operatsiyalar bo'yicha taqchillikka ega va uni qoplash uchun u yo qarz oladi (uzoq va qisqa muddatli kreditlar) yoki o'zining ko'chmas mulkini (yer, inshootlar) va moliyaviy aktivlarini (aksiyalar va obli-gatsiyalar) sotadi.

Biroq, mamlakat joriy to'lov balansining musbat qoldig'iga ham ega bo'lishi mumkin, agarda uning eksport operatsiyalari import operatsiyalaridan oshib ketsa. U holda mamlakatda xorijiy valyutalar ortiqchaligi paydo bo'ladi va ular xorijdan ko'chmas mulkni sotib olishga yoki boshqa mamlakatlarga qarz ko'rinishida yo'naltirilishi mumkin.

Investisiyalash va kreditlash bilan bog'liq operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida – **kapitallar harakati hisobida** aks ettiriladi. Savdo balansidagi taqchillik bilan bog'liq bo'lgan aktivlarni sotish yoki ular eksporti valyutalar oqib kelishini ta'minlaydi va bu **kapitalni mamlakatga olib kelishini** bildiradi.

Va aksincha, import yoki boshqa mamlakatlardan aktivlarni sotib olish, valyuta harajatlari bilan bog'liq bo'lib, **kapitalni mamlakat-dan chiqib ketishini** bildiradi.

Joriy operatsiyalar va kapitallar harakati balansi bir-birlari bilan o'zaro jips bog'langan: birinchisining taqchilligi kapitalning sof oqib kelishi bilan moliyalashtiriladi. Bu ikki bo'lim aslida bir-birlarini baravarlashtirib turishi lozim, ammo haqiqatda doimo taqchillik yoki ortiqchalik hollari mavjud. Shu sababli turli mamlakatlarning Markaziy banklari xorijiy valyutalar zahiralarini barpo etadi. Ular **valyuta rezervlari** deb ataladi va umumiy balansni tartibga solishda, uning qoldig'ini nolga keltirishda foydalaniлади.

To'lov balansi mamlakatning tashqi dunyo bilan o'zaro hisob-kitoblarini ahvolini ifodalar ekan, davlat uni mutanosib holda bo'lishidan manfaatdordir. Bunday mutanosiblikka qisqa muddat ichida valyuta kursini o'zgartirish hisobiga erishish mumkin.

Valyuta bozoriga bostirib kirish (intervensiya) va Markaziy bankning **hisob stavkasini** o'zgartirish yo'li bilan milliy valyuta

kursini pasaytirish mumkin. Bu import hajmini qisqarishiga va eksport hajmining ko‘payishiga olib keladi. Oqibatda xorijiy valyutalar tushumining o‘sishiga sabab bo‘ladi. Hukumat kamdan-kam hol-larda o‘z valyutasini devalvatsiya qilishga yoki rasmiy bir martalik qadrsizlanishiga yo‘l qo‘yishi mumkin.

### **Mavzu №12 buyicha savollar:**

1. Ochiq va yopiq iqtisod deganda nimani tushunasiz?
2. Jahon bozori deganda nimani tushunmoq lozim?
3. Xalqaro savdo, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, kapital migrasiyasi, ishchi kuchi migrasiyasi, o‘zaro to‘lovlar va hisob valyuta operasiyalarini tushuntiring.
4. Valyuta kurslari deganda nimani tushunasiz?
5. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari.
6. To‘lov balansini tushuntiring.

## Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

### Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Toshkent T: "O'zbekiston", 2003.
2. «Sug'urta faoliyati to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni «Xalq so'zi» 2002y. 28 may.
3. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. «Xo'jalik va huquq», 2000 y. 9-son.
4. «Chet el investisiyalari to 'g'risida»gi qonun. 1998y. 30 aprel O'zbekiston Respublikasi (Soliq to 'lovchi jurnal, 1998y. 6-son).
5. «Bank tizimini yanada isloq qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
6. «Ipoteqa kredit berishni qo'lllab - quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent sh. 2005 y. 6 may.
7. «O'zbekinvest» EIMSKning faoliyatini tashkil etish masalalari to 'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori. 1997y. 28 fevraldagi 113-son qarori.
8. «To 'g'ridan -to 'g'ri xususiy va xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Farmoni. «Xalq so'zi» 2005y. 12 aprel.
9. «O'zbekiston Respublikasining «Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'lllab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil etish to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent sh. 2005y. 2 may.
10. Karimov I. A. "Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloq etishdir." Toshkent "O'zbekiston" 2005 y.
11. Karimov I. A. «Ozod va obod vatan, erkin va farovon xayot-pirovard maqsadimiz» T.: «O'zbekiston», 2000y.
12. Karimov I. A. "Erishgan yutuqlarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lida izchil borish- asosiy vazifamiz: 2003 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2004 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza 2004 y 7 fevral.
13. Karimov I. A. O'zbekiston islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995 y.
14. Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» T., «O'zbekiston», 1992 y.

15. Karimov I. A. «Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi» 6-t. T. «O'zbekiston», 1998y.
16. Karimov I. A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahlid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent "O'zbekiston" 1998 y.
17. Karimov I. A. "O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz" Toshkent "O'zbekiston" 1999 y.
18. Z. Yo'ldoshev, M. Qosimov «Makroiqtisodiyot asoslari» Toshkent, «O'qituvchi», 1994 y.
19. Ahmedov D. K., Ishmuxamedov A. E., Jumaev K., Djumaev Z. A. «Makroiqtisodiyot» darslik. T.: TDIU. 2004y.
20. M. Hakimova «Makroiqtisodiyot» T. – «Mehnat» 1997 y.
21. Ishmuxamedov A. E. Jumaev K., Djumaev Z. A. «Makroiqtisodiyot» Ma'ruzalar matni. Toshkent. TDIU. — 2000.
22. Makroiqtisodiyot. Masalalar, Testlar, Variantlar. Amaliy qo'llanma. T. ITM., 2001y.
23. A. O'lmasov, M. Sharifxujaev «Iqtisodiyot nazariyasi». Toshkent – «Mehnat» – 1995 y.
24. Abdullaev Yo. "Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob" Toshkent "Mehnat", 1997y.
25. Alimov A., Hamedov I. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T.: «O'AJBNT» Markazi, 2004y., 491 bet.
26. Alimov R. X., Ganixo'jaev S. A., va boshqalar. Mahalliy iqtisodiyot va menejment. T.: 2004y.
27. Tashpulatova L. M. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati. Toshkent. 2004y.
28. Turdiev A. S. «Investision faoliyat boshqaruvinini takomillashtirish yo'llari» T.: NIIEK i RPS, 2001y.
29. Vechkanov R. S. Vechkanova G. R. «Makroekonomika» M. 2004.
30. Ivashkovskiy S. N. «Makroekonomika» M. »Delo« 2002.
31. Agapova T. A., Seregina S. F. Makroekonomika. Moskva – Ufa, 1995 y.
32. Makkonell K., Bryu S. «Ekonomiks. Prinsipi problemi i politika». Per. s 13-go angl. izd. – M. INFRA – M, 1999. – XXXIV, 974 s.
33. Tarassevich L. S. i dr. «Makroekonomika» Uchebnik 5-izdanie. M.: 2004.
34. Shagas N. L., Tumanova Ye. A. «Makroekonomika-2» MGU. M. 2004.
35. Burdo M., Viplosh Ch. "Makroekonomika" (Yevropeyskiy tekst), S. Peterburg.
36. Kostyak V. N. "Makroekonomika"-M., 1998

## **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Vorkuev B. L. «Modeli makroekonomiki» M.: TEIS. 2004.
2. Jeffri D., Saks D. i dr. «Makroekonomika. Globalniy podxod». M.: Iz-vo «Delo». 1996.
3. Jurnal «Ekonomicheskoe obozrenie» № 3 (13) iyun 2001 Uchreditel jurnala – Sentr ekonomiceskix issledovaniy.
4. Kutorshevskiy G. A. «Ekonomika» M. «Ekonomika» 2004.
5. Linvut T., Gayger. «Makroekonomika teoriya i perexodnaya ekonomika». M.: 1996.
6. Makkonnell K., Bryu S. "Ekonomiks" i 1-2, Moskva "Respublika", 1992y.
7. Maksimova V. F., Ishshov A. A. i dr. «Rinochnaya ekonomika: uchebnik. M. Somintek. 1992..
8. Menkyu. N. G. «Makroekonomika». M.: Iz-vo Moskovskogo universiteta. 1994.
9. Samuelson N. «Ekonomika vvodniy kurs». M. Progress. 1996.
10. Xeyns P. «Ekonomicheskiy obraz mishleniya». Perevod s angl. M.: Izd. Novosti. 1991.
11. Xolopov A. V. «Valyutniy kurs i makroekonomiceskaya politika» M.: 2003.
12. David N. Hyman: Economics. Richard D. IRWIN, INC. 1995.

## **Internet ma'lumotlari**

1. Novosti Uzbekistana, [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com).
2. «Juhon Banki» ma'lumotlari. [www.wordbank.org](http://www.wordbank.org).
3. "Evropa tiklanish va taraqqiyot banki" ma'lumotlari [www.ebrd.org](http://www.ebrd.org).
4. «Xalqaro valyuta fondi» [www.imf.org](http://www.imf.org) ma'lumotlari.
5. Kak Zapad stal bogatim [www.contr-tv.ru](http://www.contr-tv.ru).
6. [www.arbt.ru](http://www.arbt.ru).
7. [www.sovnet.ru/projektm.narod.ru](http://www.sovnet.ru/projektm.narod.ru) [www.pmi.ru](http://www.pmi.ru).
8. [www.pmproft.ru](http://www.pmproft.ru).
9. [www.DOCFLOW.Ru](http://www.DOCFLOW.Ru)
10. <http://www.vai.freenet.lez.trudy.bratisvriko>.
11. [www.makroiqtisodiyot.narod.ru](http://www.makroiqtisodiyot.narod.ru)

# MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>Mavzu № 1. Makroiqtisodiyot fanining predmeti va uslubi.....</b>	<b>5</b>
1. Makroiqtisodiyot fanining predmeti .....	5
2. Makroiqtisodiy tahlilning usul va tamoyillari .....	6
3. Mahsulotlar, harajatlar va daromadlarning doiraviy aylanishi ....	10
<b>Mavzu № 2. Ijtimoiy ishlab chiqarish natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va narxlar indeksi.....</b>	<b>13</b>
1. MHT (milliy hisobchilik tizimi) dagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularning o‘zaro nisbati .....	14
2. Yalpi milliy mahsulotni aniqlashga ikki xil yondoshuv .....	15
3. Ijtimoiy ishlab chiqarish ko‘lamini belgilashda narxlarning ahamiyati. Nominal va real YaMM .....	19
4. Deflyator va undan real milliy mahsulotni aniqlashda foydalanish.....	20
5. «Sof iqtisodiy farovonlik» ko‘rsatkichi va YaMM.....	22
<b>Mavzu № 3. Makroiqtisodiy jarayonlar tahliliga ikki xil yondashuv .....</b>	<b>24</b>
1. Klassik model: asosiy postulat (dastlabki qonun) va xulosalar ...	25
2. Keynsian makroiqtisodiy model: asosiy qonun va xulosalar.....	30
<b>Mavzu № 4. Iqtisodiy o‘sish.....</b>	<b>35</b>
1. Iqtisodiy o‘sish va uning ko‘rsatkichlari .....	36
2. Iqtisodiy o‘sish turlari va omillari .....	39
3. Davlat siyosati va iqtisodiy o‘sish .....	42
4. Iqtisodiy o‘sishning afzalliklari va kamchiliklari .....	45
<b>Mavzu № 5. Iqtisodning davriy tebranishi.....</b>	<b>48</b>
1. Iqtisodning davriy tebranishi va uning fazalari .....	48
2. Iqtisodiy tebranishlar sabablari.....	50
3. Iqtisodiy tebranishlar ko‘rsatkichlari .....	53
4. Iqtisodiy tebranishlar turlari .....	54

<b>Mavzu № 6. Makroiqtisodiy beqarorlik: ishsizlik va inflyatsiya .....</b>	<b>56</b>
1. Ishchi kuchi va undan foydalanish darajasini ifodalaydigan ko‘rsatkichlar .....	57
2. Ishsizlik ko‘rinishlari .....	58
3. Ishsizlikning tabiiy darajasi (to‘la bandlik) va iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensiali.....	59
4. Ouken qonuni .....	60
5. O‘zbekistonda mehnat bozorini tashkil etish va tartibga solish asoslari .....	61
6. Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari. Talab va taklif inflyatsiyasi.....	62
7. Inflyatsiya turlari .....	63
8. Inflyatsiyaning o‘lchanishi .....	63
9. Inflyatsiyaning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlariga ta’siri .....	64
10. Inflyatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik. Fillips egri chizig‘i.....	65
<b>Mavzu № 7. Yalpi talab va yalpi taklif .....</b>	<b>67</b>
1. Yalpi talab va yalpi taklif tushunchasi.....	67
2. Yalpi talab egrisi va unga ta’sir etuvchi omillar: narxga bog‘liq va bog‘liq bo‘limgan omillar.....	69
3. Yalpi taklif egrisi va unga ta’sir qiluvchi narxga bog‘liq va bog‘liq bo‘limgan omillar. Yalpi taklif kesimlari va ularning mohiyati .....	72
4. Narxlarning muvozanatlari darajasi va ishlab chiqarishning muvozanatlari real hajmiga yalpi talab o‘zgarishining ta’siri.....	73
5. Narxlarning muvozanatlari darajasi va ishlab chiqarishning muvozanatlari real hajmiga yalpi taklif o‘zgarishining ta’siri .....	74
6. Xrapovik samarası .....	76
<b>Mavzu № 8. Iste’mol va jamg‘armalar.</b> <b>investisiyalar .....</b>	<b>78</b>
1. Daromad - iste’mol va daromad - jamg‘arma o‘rtasidagi bog‘liqlik .....	78
2. Iste’mol, jamg‘arish grafiklari .....	79
3. Iste’mol va jamg‘arishning o‘rtacha hamda cheklangan miqdori.....	80

4. Investisiyalar. Investisiya darajasiga ta'sir etuvchi omillar.	
Investisiyalarga talab egri chizig'i .....	82
5. O'zbekiston Respublikasida chet el investisiyalarini tartibga solish mexanizmini rivojlantirishning mantiqiy asoslari .....	84
<b>Mavzu № 9. Fiskal siyosat.....</b>	<b>87</b>
1. Fiskal siyosat, uning maqsad va instrumentlari .....	87
2. Fiskal siyosat instrumentlarining yalpi talabga (AD) ga ta'siri .....	88
3. Fiskal siyosat ko'rinishlari.....	89
4. Fiskal siyosat instrumentlarining yalpi taklif (AS) ga ta'siri.....	90
<b>Mavzu № 10. Davlat byudjeti. Davlat byudjeti taqchilligi va davlat qarzları.....</b>	<b>93</b>
1. Davlat byudjeti: davlat byudjetining daromad va xarajatlari .....	94
2. Davlat byudjeti holatining ko'rinishlari.....	95
3. Davlat byudjeti kamomadi va uning ko'rinishlari .....	95
4. Davlat byudjeti konsepsiylari .....	96
5. Davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish yo'llari .....	98
6. Davlat qarzi, uning turlari va oqibatlari.....	102
<b>Mavzu № 11. Pullar va bank tizimi .....</b>	<b>104</b>
1. Pulning mohiyati va funksiyalari.....	104
2. Pul massasini o'lhashning turli xil usullari.....	106
3. Pul muomalasi .....	107
4. Pul - kredit siyosati .....	108
5. Pulga talabning tarkibi .....	109
6. Pul bozorining muvozanatli holati .....	110
7. Banklar va ularning iqtisodda tutgan o'mni .....	111
<b>Mavzu № 12. Ochiq iqtisodiyot .....</b>	<b>114</b>
1. Ochiq va yopiq iqtisod tushunchasi .....	114
2. Jahon bozori va xalqaro ayriboshlash.....	116
3. Valyuta kursi.....	117
4. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati, qoidalari va maqsadlari.....	118
5. To'lov balansi .....	122
<b>Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>126</b>

Texnik muxarrir:

*Mirolim ZARIFOV*

Kompyuter vedorstkasi:

*Dilfuza ORIFJONOVA*

Kompyuterda teruvchilar:

*Obidxo'ja MAHAMADXO'JAYEV*

Ushbu ma'ruzalar kursi ToshDSHI O'quv-uslubiy kengashi  
tomonidan nashrga tavsiya etilgan (1-sonli bayonnomma, 08.11.2007).

Bosishga ruxsat etildi 14.02.08.

Bichimi  $60 \times 84 \frac{1}{16}$ . Shartli 8,25 b.t. 200 nusxada bosildi. Buyurtma № 7  
Toshkent Davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi.  
Toshkent, Shahrисабз ko'chasi, 25

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2008